**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo`lyozma huquqida*

*UDK 937*

**Narziyev Akmal Abdullojonovich**

# Italiya partiyaviy-siyosiy tizimida qayta qurish masalalari to`g`risida (1990-2015)

**Mutaxassislik: 5A120302- Tarix (yo`nalishlar va mamlakatlar bo`yicha)**

**Tarix (yo`nalishlar va mamlakatlar bo`yicha) magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A T S I Y A**

| | |
|---|---|
| **Ish ko`rib chiqildi va himoyaga qo`yildi.** | **Ilmiy rahbar:** |
| **Jahon tarixi kafedrasi mudiri tarix fanlari nomzodi ,dotsent** | **tarix fanlar nomzodi. Rahmatullayev M.R.** |
| **Xoshimova M.M.________________** | **______________** |
| **«____» ________________2018 yil** | |

**SAMARQAND-2018**

# MUNDARIJA:

Kirish…………………………………………………………………….....2-6

**I. Bob. Iqtisodiyot tuzulmasidagi o‘zgarishlar…………………………......7-28**

1.1. Italiya G‘arbiy Yevropaning iqtisodiy yetakchilaridan biri………….........7-19

1.2. Ijtimoiy islohotlar………………………………………………........…20-28

**II. Konstitutsiyaviy islohotlar. Yangi saylov tizimi………………………..29-63**

2.1. Partiyaviy tizimdagi o‘zgarishlar……………………..............................29-42

2.2. Konstitutsiyaviy islohotlar. Yangi saylov tizimining shakillanishi va rivojlanishi ……………………………………………………………….……43-63

**III.Bob. Italiya tashqi siyosati……………………………………………….64-84**

3.1. Italiya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar …..………………...64-74

3.2. Italiya-AQSH-NATO…………………………………...………………...75-84

Xulosa……………………………………………………………………....85-88

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati……………………………….…………...89-92

# KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Vatanimiz istiqlolga erishganidan so‘nggina tarixni haqqoniy yoritish va shu asosda milliy o‘zlikni anglash zaruriyati yuzaga keldi. Tarixga yangicha yondashish- tarixni chuqur, xolisona o‘rganish, tadqiqot natijalarini davrimizning dolzarb muammolari bilan bog‘lab rivojlantirish, kishilarning yangi dunyoqarashini shakillantirishdir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi” - degan nazariy qoidani ilgari surdi[1].

Mustaqillik tufayli demokratiya yo‘lidan rivojlanayotgan yurtimizda tarixiy manbalarga tayangan holda, tarixiy voqeylikni bo‘yab ko‘rsatmasdan, o‘z ko‘rinishida yoritish, uni xolis tadqiq etishga sharoit yaratildi. Shu munosabat bilan yurtimizda tarix faniga alohida e’tibor qaratilib, nafaqat Vatan tarixi, shuningdek Jahon tarixini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, jahon tarixida ro‘y bergan va ro‘y berayotgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, globallashuv sharoitida O‘zbekistonga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Zero, O‘zbekiston tarixi - Jahon tarixining ajralmas qismidir.

Ushbu dissertatsiyada 1990-2015-yillarda Italiyada partiyaviy-siyosiy tizimda qayta qurush masalalari yoritilgan. Bunda Italiyadagi siyosiy tizimning juda ham chigalligi, saylov tizimidagi kamchiliklar, davlat boshqaruviga ko‘rinmas kuchlarning ta`siri, partiyalarninh haddan ziyod ko‘pligi tarixchi va siyosatshunoslar uchun chuqur bahsli mavzu hisoblanadi. XX asrning 90-yillarida Italiyada ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi saylov tizimini isloh qilishga ham bo‘lgan e`tibor har qachongidan ham oshdi. Davrning o‘zi saylov tizimida o‘zgarishlar qilishni taqozo qilib qo‘ydi. Hukumat tepasida turgan siyosiy shaxslarning korrupsiya botqog‘iga botganligi nafaqat Italiyani balki butun dunyo mamlakatlarini e`tiborini o‘ziga tortdi. Italiyada partiyaviy tizimdagi o‘zgarishlarni

[1] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т., Шарқ. 1998. 5 б.

o‘rganish nafaqat tarixchilar uchun balki siyosatchilar uchun ham ancha qiziqarlidir. Italiyaning bu davridagi tarixining qiziq tomonlaridan yana biri shundaki hukumat tepasida turgan shaxslarning ko’rinmas hokimyat bilan aloqalari mustahkamligidir.

**Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning maqsadi, XX asr 90-yillaridan XXI asr boshlaridagi Italiyaning saylov tizimidagi o‘zgarishlar, partiyaviy tizimdagi islohotlar, davlatning iqtisodiy rivojlanishi, bosh vazirlar siyosatini o‘rganish, tahlil qilish va ochib berish. Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarga e’tibor qaratish talab etiladi.

- XX asrning 90-yillarida Italiyadagi siyosiy tizimdagi tanglikning asl sabablarini o‘rganish, hukumat tepasida turgan partiyalar va  atrofida kelib chiqqan keskinliklarning sabablarini tahlil qilish;
- Partiyaviy tizimda olib borilgan islohotlarning mazmunini ochib berish;
- XX asr 90-yillarida Italiyada iqtisodiy rivojlanishi sabablarini o‘rganish va uning amalga oshirilish yo‘llarini ochib berish;
- XXI asrda saylov tizimidagi o‘zgarishlarni, konstitutsiyaviy islohotlarni tahlil qilish.

Tadqiqotning **metodologik asosi**ni tahlil, tarixiy yondashuv, tanqidiy o‘rganish tashkil qiladi.

**Tadqiqot ishining manbashunosligi va tarixshunosligi. Muammoning ishlab chiqilish darajasi.** Italiyada partiyaviy-siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar mavzusida olib borgan ilmiy izlanishmda asosiy e’tiborimni aynan shu jihatni yoritishga xizmat qiladigan adabiyotlar va manbalarga qaratdim. Bunda Rossiyalik tarixchilar tomonidan nashr qilingan ko‘plab asarlarni ilmiy ishimni asosiy manbalari qilib oldim.

Rossiyalik tarixchilardan quyidagilarning asarlariga oʻz e`tiborimni qaratdim: Авилова А.В[2], Гольдфарб А.А.[3], Андреев С.С[4]., Бабышев Л.С, Б.И. Осминин[5], Бурков В.Н., Заложнев А.Ю[6], Новиков Д.А, В.Е. Сафонов, Миряшева Е.В[7], Г.Н. Комкова, Е.В. Колесников[8], О.В, Кунц[9], И, Любин В[10], Зонова Т[11]. В, Тагепера Р., Шугарт М[12], va boshqalar.

Bundan tashqari dissertatsiyamni yozishda koʻplab ilmiy maqolalar, ilmiy jurnallar ma`lumotlaridan foydalandim. Men tanlagan bu mavzu hozirgi davrdagi siyosiy jarayonlar bilan bogʻliq boʻlganligi sababli oʻz e`tiborimni internet saytlarida keltirilgan ishonchli ma`lumotlarga qaratishga harakat qildim.

**Tadqiqotning davriy va xronologik chegaralari.** Tadqiqotning davriy va xronologik chegarasi XX asr oxiri XXI asr boshlarida( 1990-2015-yillarda) Italiya partiyaviy tizimidagi oʻzgarishlar, tarixiy oʻrni va neokoloniyal munosabatlar shakllanishi aks ettirilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchidan, XX asr 90-yillarida va XXI asr boshlarida Italiya saylov tizimidagi olib borilgan oʻzgarishlar oʻziga bagʻishlangan va uni atroflicha yoritib, asoslab bergan ilmiy ishlar unchalik koʻp emas; ikkinchidan, Italiyada konstitusion islohotlarning olib borish yoʻlidagi qilingan ishlar tarixchi va

---

[2] Авилова А.В. Италия: своеобразие южноевропейского пути развития. - СПб: 2008. - 80с.
[3] А.А. Гольдфарб. Шпаргалка по конституционному праву. - М.: РГ-Пресс, 2013. - 80 с.
[4] Андреев С.С., Бабышев Л.С. Италия. - М: Академия, 2001. - 432 с.

[5] Б.И. Осминин. Принятие и реализация государствами международных договорных обязательств. - М.: , 2006. - 408 с.
[6] Бурков В.Н., Заложнев А.Ю, Новиков Д.А. Мировая экономика и международный бизнес. - "Эксмо", 2009. - 360-365с
[7] В.Е. Сафонов, Е.В. Миряшева. Конституционное право зарубежных стран. Особенная часть. - М.: Юрайт, 2013. - 422 с
[8] Г.Н. Комкова, Е.В. Колесников, О.В. Афанасьева. Конституционное право зарубежных стран. - М.: Юрайт, 2012. - 416 с.
[9] Кунц И. Италия на рубеже веков. - М. Наука, 1999. - 56 с.
[10] Любин В. Италия перед вызовами XXI столетия. - АСТ, 2008. - 122-125с
[11] Зонова Т. В. «Италия. От Первой ко Второй Республике», М.: Весь мир, 2011 г.

[12] Тагепера Р., Шугарт М. Описание избирательных систем. -- Голосов Г.В., Глакина Л.А. (ред.) Современная сравнительная политология. М., 1997. С. 43.

siyosatshunoslar uchun chuqur bahsli mavzu hisoblanadi; uchinchidan, Italiya siyosiy tizimidagi partiyalarning juda ko‘pligi, ular o‘rtasidagi parlament saylovlaridagi kurashning o‘ziga xosligi ham ancha qiziqarlidir.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari**ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning milliy davlatchilik tarixi, mamlakat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, milliy ma’naviyatni yuksaltirishga qaratilgan tashqi siyosat masalalari keng va har tomonlama yoritib berilgan asarlariga va xalqaro tashkilotlar doirasida O‘zbekiston yondashuvi yuzasidan so‘zlagan nutqlariga tayanildi.

Prezidentning tarixni o‘rganishda aniq va real voqealarga tayanish kerak, degan fikrlari asosida mavzu ilmiy-metodologik me'yorlar doirasida yoritishga harakat qilindi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlaridagi nazariy yondashuvlar ishning metodologik asosi qilib olindi. Xususan " Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak:[13]”, " Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.[14]”, " kabi asarlaridan, bundan tashqari O‘zbekistonda mustaqillik yillari chop etilgan ilmiy asarlar hamda davriy matbuot nashrlaridan ham keng foydalanildi. Bu asarlarda ilgari surilgan nazariy konseptual qoidalar, tarixiy voqealarni obyektiv tahlil qilish, tarixiylik, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning birligi tamoyili tashkil etadi. Tadqiqot ishi xolislik, qiyosiy-tahlil va konseptual yondashuv usullaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.** Ushbu dissertatsiya ishi Italiyada partiyaviy va saylov tizimidagi qilingan o‘zgarishlar, saylov tizimida olib borilgan islohotlar, buning natijasida Italiya siyosiy jihatdan tarqoqligiga

[13] Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. 2017 yil14 yanvar Sh.M. Mirziyoyev.– Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

[14] Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”./Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

sabab bo‘layotgan boshqaruv tizimidagi muommolar, bundan tashqari Italiyaning bu davrdagi tashqi siyosati aks ettirilgan. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi natijalaridan ilmiy maqolalar, o‘quv qo‘llanma, dasturlar, maxsus kurslar tayyorlashda, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim maskanlarida talabalari, magistrantlarga ma’ruzalar o‘qishda foydalanish mumkin.

**Ishning tarkibiy tuzilishi:**

Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 93-sahifani tashkil etadi.

# I.Bob. Iqtisodiyot tuzulmasidagi o‘zgarishlar

## 1.1. Italiya G‘arbiy Yevropaning iqtisodiy yetakchilaridan biri.

Italiyada XX asrning 90-yillarida iqtisodni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarilgan “Vanani rejasi” ga ko‘ra bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bu rejaga muvofiq mamlakatdagi janub va shimol o‘rtasidagi iqtisodiy notenglikni tugatish belgilangan edi. XX asrning 80-yillari oxirida mamlakat iqtisodiyotiga foydani 59 % ni Shimoliy hudud keltirayotgan edi. Janubiy viloyatlar iqtisodga unchalik katta foyda keltirishmasdi. Lekin davlat budjetining kattagina qismi shu hududga sarflanardi. 90-yillar o‘rtalariga kelganda Shimoliy hududning ulushi 50 % gacha tushdi. Bu rejaga ko‘ra Janubiy hududlarda iqtisodiy hayotni yo‘lga qo‘yilsa hududlar o‘rsatidagi tengsizlik yildan yilga kamayib borardi. Bu davrda Shimoliy viloyatlardagi butun aholining 9 % ishsiz bo‘lsa bu ko‘rsatkich Janubiy Italiya viloyatlarida 19 % ni tashkil qilardi[15].

80-90 yillar arafasida Italiya iqtisodiy sohada rivojlangan industrial davlatlardan biriga aylandi va kapitalistik dunyoda YAIM (yalpi ichki mahsulot) ko‘rsatkichlariga ko‘ra 5-o‘rinni egalladi. Mashinasozlik (turli xil stanoklar ishlab chiqarish bo‘yicha kapitalistik dunyoda 4-o‘rinni egallaydi) va avtomobil ishlab chiqarish sanoatlari yuqori texnologiyali FIAT konserni bu sohaning yetakchisi bo‘lib qolmoqda. Italiya iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalarning mablag‘lari hisobiga 1200 dan ortiq turli xil korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Italiya sarmoya kiritiladigan davlat bo‘lishi bilan bir vaqtda, chetga sarmoya chiqarish imkoniyatiga egadir.

Italiya yuksak rivojlangan industrial-agrar mamlakatdir. Dunyoda eng rivojlangan 10 davlatning biri. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 31,6%, qishloq xo’jaligi ulushi 2,9%, xizmat ko‘rsatish sohasi 65,5% (1997). Italiyada 12 mln.dan ziyod aholi xizmat xo‘jaligi ko‘rsatish sohasida, 6,5 mln. kishi sanoatda,

---

[15] Мировое хозяйство и экономика стран мира [Текст]: Учеб. пособие для вузов/В.П. Воронин. - М.: Финансы и статистика, 2007.ст. 123.

1,5 mln. kishi qishloq xo‘jaligida band. Sanoatida og‘ir sanoat ustun. Jumladan, mashinasozlik, metallurgiya, avtomobilsozlik, to‘qimachilik, elektroenergetika, neftni qayta ishlash, neft kimyosi rivojlangan. Sanoat mahsulotining anchagina qismi eksport qilinadi.

Italiyada xom ashyo va energetika zaxiralari kam, borlari ham notekis joylashgan. Neft va gaz (asosan, Padan tekisligi, Po daryosi etaklari, Adriatika dengizi sohiliga yaqin joylar va Sitsiliya o.da), qo‘rg‘oshin, rux (asosan, Sardiniya orolida), temir rudalari (Aostada va Sardiniya orollarida), boksit, kinovar (simob rudasi), prut (Toskana viloyatida), oltingugurt, tuz (Sitsiliya orolida), qo‘ng‘ir ko‘mir, binokorlik materiallari va boshqalar qazib olinadi. Issiklik elektr stansiyalari elektr energetikaning asosini tashkil etadi. Atom elektrastansiyalari va geotermal stansiyalar qurilgan. Yiliga o‘rtacha 222 mlrd. kVtsoat elektr energiyasi hosil qilinadi.

Metallurgiya sanoati, asosan, chetdan keltirilgan xom ashyo asosida ishlaydi. Qora metallurgiyaning eng yirik korxonalari Genuya, Neapol atrofida, shuningdek, Pombino va Tarantoda; rangli metallurgiya korxonalari Venetsiya, Bolsano, Mori, Milan shaharlari va Sardiniya orolida joylashgan. Neftni qayta ishlash korxonalari (chetdan keltirilgan xomashyo asosida), asosan, dengiz sohilidagi joylar (Genuya, Neapol, Venetsiya, Spetsiya, Augusta) da va neft mahsulotlari eng ko‘p shaharlar (Milan va boshqalar) da ishlatiladi. Sanoatning yetakchi sohasi bo‘lgan mashinasozlik tarmoqlari: avtomobilsozlik (Turin), kemasozlik (Genuya, Livorno, Neapol, Venetsiya, Triyest), stanoksozlik (Milan, Breshna, Turin), priborsozlik (Ivrea), elektrotexnika (Milan, Varese, Bergamo, Turin, Genuya) va elektron (Milan atrofi) sanoati rivojlangan. Neft kimyosi, plastmassa, ma’danli o‘g‘it, sun’iy tola, farmatsevtika va rezina mahsulotlari, sintetik kauchuk ishlab chiqarish yuqori darajaga yetgan. Lombardiya va Pyemont — an’anaviy to‘qimachilik markazlaridir.[16]

---

[16] Андреев С.С., Бабышев Л.С. Италия. - М: Академия, 2001. – ст. 231.

Oziq-ovqat sanoatining asosiy tarmoqlari — un, makaron, pishloq, qand-shakar, konserva, zaytun yog‘i, uzum vinosi (yiliga 70mln. gektolitr) ishlab chiqaradi. Yengil sanoatda, xususan, poyabzal ishlab chiqarish rivoj topgan. Hunarmandchilikka ayniqsa katta e’tibor beriladi. Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari—dehqonchilik (58%) va chorvachilik (42%)ni tashkil qiladi. Unumdor yerlarning 34,3%ni (19,6 mln. gektar) haydalib, ekin ekiladi, 11% ni bog‘, tokzor va zaytunzor, 19,2% ni maysazor va yaylovlar tashkil qiladi. Asosiy don ekinlari — bug‘doy, makkajo‘xori, suli, arpa, sholilardan iboratdir. Shu bilan birgalikda qand lavlagi, uzum, zaytun, sitrus mevalar va sabzavot ham yetishtiriladi. Vino ishlab chiqarish hajmi jihatidan Italiya dunyoda yetakchi o‘rinlardan birida turadi. Italiya yiliga 6 mln. tonnaga yaqin turli xil ho‘l mevalar yetishtiradi, uning salkam 60% mamlakat shimolidagi ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladi. Janubiy viloyatlarda bodom, yong‘oq, fundukzorlar ko‘p. Uzum hosili yiliga 10 mln. tonna (uning 90% qayta ishlanib, vino qilinadi), sitrus mevalar har yili 3,3 mln. tonna, pomidor hosili 5,5 mln. tonnani tashkil qiladi. Chorvachilikda qoramol (8,8 mln. bosh), cho‘chqa (9,6 mln. bosh) va qo‘y (12,2 mln.bosh) boqiladi[17]. Mamlakat shimolida sut va go‘sht yetishtirish yetakchilik qiladi. Bundan tashqari baliqchilik ham yaxshi rivojlangan.

Italiyada transport sohasi ham ancha yaxshi rivojlangan. Transportda yo‘lovchilarning 90% dan ko‘prog‘ini, yuklarning 80% dan ortig‘ini avtomobil transportida tashiladi. Avtomobil yo‘llari uzunligi —304 ming kmni tashkil qiladi. Bundan tashqari chetga yuboriladigan va chetdan olinadigan yuklarning aksariyati dengiz transporti orqali tashiladi (eksport yuklarining 60—65%, import yuklarining 80-90%). Asosiy dengiz portlari: Genuya, Triyest, Venetsiya, Neapol. Italiya xalqaro sayyohlikning katta markazlaridan biri (yiliga 50 mln.dan ko‘proq sayyoh kelib ketadi).

---

[17] Мировое хозяйство и экономика стран мира [Текст]: Учеб. пособие для вузов/В.П. Воронин. - М.: Финансы и статистика, 2007.ст. 126.

Ammo, Italiya iqtisodiyotida mavjud bo‘lgan, ba’zi bir salbiy holatlar hozirgi paytda ham saqlanib qolmoqda. Bu salbiy holatlarga mintaqaviy (shimol-janub) va tarmoqlararo dispraporsiya (nomutanosiblik), turmush qiymatlarining yuqori sur’atlar bilan o‘sib borishi, ishsizlik, xom-ashyo va yoqilg‘i quvvatining importi uchun sarflanayotgan xarajatlarning ko‘pligi, yuqori texnologiyalar ishlab chiqarishi sohasida yanada ilg‘orroq hisoblangan mamlakatlar oldidagi tobeliklar misol qilib keltirishimiz mumkin.

XX asr 90-yillarga kelganda, Italiya ijtimoiy-siyosiy hayotidagi beqarorlik va qarama-qarshiliklar yanada kuchaydi. Keskin siyosiy inqirozlar asosan, mo‘tadil kelishuvlar bilan tugar edi.

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish hukumat oldidagi asosiy vazifa edi. Janubiy Italiyada kichik korxonalar tarmog‘ini rivojlantirishda juda katta imkoniyatlarga ega ekanligini inobatga olgan holda, hukumat tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi. Janubiy hududlar o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda davlat ishtirokida o‘rta va kichik kompaniyalar tarmog‘ini ko‘payitish va ularni boshqa chet davlatlari bilan aloqalarini mustahkamlash choralari ko‘rila boshlandi. Italiyalik va chetellik sarmoyadorlar o‘z sarmoyalarini Janubiy hududdagi ishlab chiqarish tarmog‘ini tehnika va uskunalar bilan taminlash maqsadida hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi.

Italiya hukumat tepasida turgan partiyalarning  bu kabi muommolarini hal qilishi dolzarb vazifaga aylanib bordi. Janubiy hududga ko‘p miqdorda mablag‘ning sarflanishi uchun bu yerdagi sharoitni tartibga solish kerak edi.

Yashirin iqtisod va mafiya faoliyati muommosi ham davlatga zarari katta edi. Janubiy Italiyada har jabhada bunday tizim ko‘zga tashlanardi. Bu hududlarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, kichik firmalar tarmog‘ini yaratish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Lekin bu islohotlar bir qancha to‘siqlarga ham uchradi. Italiyaning bu hududlarida iqtisodiy hayotni tartibga solish uchun bir qancha to‘siqlar ham bor edi. Janubiy Italiya iqtisodiy va siyosiy hayotida ko‘rinmas kuchlarning o‘rni katta bo‘lgan. Bu ko‘rinmas kuchlarning yana bir

nomi mafiya edi. Mafiya iqtisod va siyosatga aralashar va uni o‘z yo‘lidan yurgizishga harakat qilardi.

Italiyaning dunyo va Yevropada iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, bu davrda Italiya industrial davlatlar qatorida turardi. Italiya tashqi iqtisodiy aloqlarni rivojlantirish tarafdori sifatida katta ishlarni amalga oshirdi. Italiya qazilma boyliklariga kabag‘lligi sababli u bunday resurslarni chetdan olib kelishga majbur edi. Buning natijasida Italiya xalqaro maydonda tabiiy qazilma boyliklariga ega bo‘lgan davlatlar bilan aloqlarni yaxshilashga majbur bo‘ldi. Davlat iqtisodiyotidan xom-ashyo importiga talaygina mablag‘ sarflanardi. Italiya mashinasozlik bo‘yicha ham dunyo davlatlari orasida yuqori o‘rinlarni egallardi. Qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarishda ham Italiya Yevropa davlatlari orasida yuqori o‘rinda turardi. Metalga ishlov berish bo‘yicha dunyoda 4-o‘rinda bo‘lib, darxat maxsulotalarining 80 %ni chet davlatlarga eksport qilardi. Italiya bundan tashqari dunyoda kimyoviy maxsulotlar, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ham yuqori o‘rinlardan birini egallagandi. Tekstil mahsulotlarining 70 % chet davlatlarga eksport qilinadi.

Italiyaning tashqi savdo balansidagi ko‘lami so‘nggi o‘n yillikda ijobiy tomonga qarab o‘zgardi. Davlatning o‘rtacha yillik eksport qiymati 240-245-mlrd dollar atrofida bo‘ldi. Bu davrdagi import qiymati esa 230-235-mlrd dollarni tashkil qildi. Bunday natijaga erishish Italiya iqtisodi uchun ijobiy ko‘rsatkich sifatida baholandi. Davlat eksportdagi mahsulotlar tarkibiga nazar soladigan bo‘lsak, ular quyidagicha : mashinasozlik 40,8 % ni, tekstil mahsulotlar 10,5 % ni, teri va oyoq kiyimlar 5,4 % ni, kimyoviy mahsulotlar esa 9,4 % ni tashkil qilardi[18].

Italiya mahsulotlarining eksport hajmini kengaytirishni rag‘batlantirish, davlatda eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida kompaniyalarga beriladigan imtiyozli kredit va sug‘urta tizimini yaxshilash lozim edi. Buning uchun kredit olish tartibini ancha soddalashtirish kerak edi. Davlatda bu sohani

---

[18] Андреев С.С., Бабышев Л.С. Италия. - М: Академия, 2001. – ст. 234.

tartibga solishni Milliy sug'urta instituti (MIS), eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga kredit berishni nazorat qilivchi tashkilot CAZE va Moliya vazirligi zimmasiga yuklatildi. CAZE bu uzoq, o'rta va qisqa muddatga kredit berishin yangi tartibini ishlab chiqdi.

Italiya o'zining iqtisodiy ahvolini tartibga solish maqsadida ishlab chiqarishga chet davlatlar investitsiyalarini jalb qilish ishida faol harakat qildi. Chet davlatlaridan jalb qilinayotgan investitsiya hajmi yiliga 110 mlrd dollar hajmida bo'lib, bu mablag' asosan G'arbiy Yevropa davlatlaridan kiritigandi. Bu mablag'lar asosan tez rivojlanayotgan sohalarga, xususan, elektronika, kimyo, telekomunikatsiyalarga sarflanardi. Italiya chetga investitsiya chiqarishda ham yuqori o'rinlardan birini egallardi. Bu davrda 190 mlrd dollorlik hajmdagi investitsiyani Italiya o'zining chegaradosh davlatlari iqtisodiyotiga sarflamoqda edi. Bu asosan YI davlatlariga to'g'ri kelardi.

Italiya eksportining 70 % rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Shundan 54 % ni YI tarkibiga kirgan davlatlar bilan olib boriladigan iqtisodiy aloqalar tashkil qiladi. Rivojlanayotgan davlatlar esa Italiya eksportidagi ulushi 18% ga teng edi. Italiyaning iqtisodiy aloqalardagi eng yaxshi hamkori Germaniya va Rossiya davlatlari bo'lgan. Misol sifatida Italiya va Rossiya o'rtasidagi savdo aylanmasi 10 mlrd dollorni tashkil etardi. Italiya iqtisodi Rossiyada keltirilgan xom-ashyolarga bog'langandi. Rossiyadan sotib olinadigan mahsulotlarning 89 % energetik resurslar bo'lsa, 5 % ni qora va rangli metallar tashkil qilardi. Italiyaning Rossiyaga eksportini esa mashina va oyoq kiyimlar 42,2 % ni, mebel 6 % ni, qayta ishlov berilgan qora metal 5 % ni , farmasevtika mahsulotlari 4, 5 % ni , plasmassa mahsulotlar 4 % ni, ichimliklar esa 2,3 % ni tashkil qilardi. Italiya iqtisodiy aloqalarni "katta yettilikka " kiradigan davlatlar bilan ham rivojlantirdi[19]. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Kanada bilan har tomonlama manfaatli iqtisoddiy hamkorlik o'rnatilgandi.

[19] Мировое хозяйство и экономика стран мира [Текст]: Учеб. пособие для вузов/В.П. Воронин. - М.: Финансы и статистика, 2007.ст. 131.

Italiya iqtisodidagi nuqsonlar sifatida  Janub va Shimol o‘rtasidagi iqtisodiy ahvolning nafaqat iqtisodiy hayotga balki, hududlardagi aholining norozilik kayfiyatining yanada ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. 1995-yilgi ma`lumotlarga ko‘ra Italiya ishlab chiqargan sanoat mahsuloti umumiy hajmining 63,4 % ni rivojlangan Shimol viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu davrda ham Janubiy viloyatlar ishlab chiqarishda ancha past ko‘rsatkichga ega edi. Italiya iqtisodi shunday bo‘lsada rivojlanishdan to‘xtamadi. 1995-yilga kelganda 1979-yilga qaraganda iqtisodiy o‘sish 65 % ni tashkil qildi. Mamlakatda qishloq xo‘jaligi bu vaqt oralig‘ida 14,5 % ga, sanoat esa 37,8 % ga o‘sganligini ko‘rsatdi. Shu yillarda qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lgan aholi soni 2,8 mln kishidan 1,8 mln kishiga qisqardi. 1995-yilda sanoat ishchilarining umumiy soni 22,2 mln kishini tashkil etdi.

Italiyada 2002-yilda Yalpi ishlab chiqarish hajmi 1 trilion 410 mlrd dollorga teng miqdorni tashkil qildi. Yillik o‘rtacha o‘sish darajasi esa 2001-yilga qaraganda 1,8% ga o‘sdi. Bundan tashqari davlat iqtisodiyotining yillik o‘sish suratlari 2002-yilda 0,4 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2003-yilga kelganda bu ko‘rsatkich 1,3 % ga o‘zgardi. Aholi jon boshiga YIM bu vaqtda 24,4 ming dollarga to‘g‘ri keldi.

2002-yil Italiya iqtisodiyotida  YIM dagi taqsimlanishi quyidagi ko‘rinishga ega edi. Davlatda ishlab chiqariladigan mahsulotning 28 % i sanoatga to‘g‘ri kelsa, xizmat ko‘rsatishga 69 % i, qishloq xo‘jaligi esa 3% ni egallardi. Bu davrda Italiya aholisining 6 % i qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lsa, 29 % sanoatda qolgan 65 % esa  xizmat ko‘rsatish sohasi bilan band edi.

2002-yilgi ma`lumotlarga qaraganda Italiya sanoatida tabiy qazilma boyliklarini qayta ishlashi bor yo‘g‘i 10,5 %ni tashkil qilardi. Italiya iste`mol qiladigan mineral resurslarining 70 % ni, energiyaning 84 % ni boshqa davlatlardan import qilardi.

Italiyada qishloq xo‘jaligiga qarashli yerlar miqdori ko‘p bo‘lganligi bilan uning davlatga keltiradigan foydasi ancha kamdir.

Davlat iqtisodiyotiga katta mablag‘ keltiradigan sohalardan biri bu turizmdir. Italiyaga o‘rtacha yiligi 36 mln xorijiy sayyoh keladi. Har yili o‘rtacha turizmdan davlat budjetiga 30 mlrd yevro miqdoridagi mablag’ tushadi.

Italiya iqtisodi 2001-2003-yillarda o‘ziga xos yo‘lda rivojlanadi. Yillik o‘sishi iqtisodiyotda 1,8 % ni tashkil qildi. Mamlakatda ishsizlik darajasi 9 % ni tashkil qildi. Inflyatsiya darajasi asta-sekin pasaya boshladi[20].

2004-2005-yillarda Italiya iqtisodiyoti ancha ijobiy natijalarga erishdi. Bu davrda Italiya iqtisodi qo‘shni Yevropa davlatlariga qaraganda iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha ancha past ko‘rsatkichni qayd etdi. 2005-yilda Italiyada iqtisodni yillik o‘sish surati 0 foizga teng bo‘ldi. Davlatda sanoat ishlab chiqarish pasaydi, ishsizlik ortdi, davlat budjetida kamomat anchaga ortdi. Iqtisodiy o‘sishni basharot qiluvchilar Italiya iqtisodini 2006-yilda YIM o‘sishi 1,4 % ni tashkil qilishini, infliyatsiya darajasi esa 2 % gacha pasayishini tahmin qildilar.[21]

Italiya iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznes ham katta o‘ringa ega edi. Davlatdagi butun ishchilarning tahminan 70 % ni 50 kishidan ko‘proq mehnat qiladigan kompaniyalar hisasiga to‘g‘ri kelardi. Yakka tartibda ishlab chiqarish, oilaviy biznesda davlatdagi ishchilarning 30 % ni o‘zida jamladi. Italiya hukumati tomonidan kichik kompaniyalar tarmog‘ini yanada rivojlantirish to‘g‘risida ko‘plab qonunlar qabul qilindi. Eksportda mayda va kichik kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi bo‘yicha Italiya Fransiyadan ikki marta ko‘proq edi.

Italiya iqtisodini isloh qilish uchun hukumat tomonidan bir qancha choralar ko‘rildi. Iqtisodiy islohotlarni quyidagi yo‘l bilan o‘tkazish belgilab qo‘yildi.: xo‘jalik boshqaruvidagi islohotlar bo‘lib unda asosiy e`tiborni koperativ mulklarni liberallashtirishga qaratdi. Shu bilan birgalikda Italiyada davlat tomonidan sarmoyani iqtisodga taqsimlashda o‘ziga xos xarakterga ega edi. Unda oilaviy

[20] Андреев С.С., Бабышев Л.С. Италия. - М: Академия, 2001. – ст. 235.

[21] Перечнева И. Италия. Приватизация, инвестиции //polpred.com/ (Дата публикации: 01.04.2006)

biznesni rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Ularni nazorat qilish uchun moliyaviy xoldinglar tuzildi. Bu oilaviy guruhlar davlat iqtisodiyotida juda katta o‘rinni egallardi. Italiyada juda katta obro‘ga ega bo‘lgan oilaviy kompaniyalarga misol sifatida : An`elli, Pireeli, Perentilarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Bu kabi oilalar Italiya sanoatida juda katta monopoliyaga ega bo‘lgan “ Fiat”, “Prilli”, “Italchementi” va boshqa kompaniyalarga egalik qilishardi. Bu kabi katta kuchga ega bo‘lgan kompaniyalar davlat siyosatiga ham o‘z ta`sirini o‘tkaza olardi. Bundan tashqari bu kompaniyalarda sifatli kadrlar mehnat qiladi ya`ni ular ishchilarning malakasini oshirishga alohida ahamiyat qaratardi.

Jahon iqtisodiy inqirozining Italiya iqtisodiga ta`siri boshqa Yevropa davlatlariga bo‘lgani kabi katta zarar yetkazdi. 2008-yilning 11-dekabridan rasman ommoviy axborot vositalarida Jahon moliyaviy inqirozi boshlanganligi xususida ma`lumot tarqaldi. Italiya iqtisodi 2008-yilning oktyabr oyidan boshi berk ko‘chaga kira boshlagandi. Shu vaqtning o‘zidayoq Italiya ishlab chiqarish darajasi 2007-yilning oktyabr oyiga qaraganda 6,7 % ga past ko‘rsatkichni qayd etdi. Shu yilning noyabr oyiga kelganda esa mamlakatda ishlab chiqarish o‘tgan yilning shu oyiga nisbatan 11 % ga past ko‘rsatkichni ko‘rsatdi. 2008-yilning oxiriga kelganda mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘sishi 4,3 % ga qisqardi. Shu bilan birgalikda iqtisodiyotda gaz va suvdan energiya olish 3,4 % ga, mebel ishlab chiqarish 2,2 % ga, oziq-ovqat ishlab chiqarish 0,1 % ga o‘sdi. Ishlab chiqarishda bir qancha tarmoqlarda sezilarli darajada pastlash holatlari yaqqol ko‘rinib turardi. Misol sifatida teri va oyoq kiyimlarni ishlab chiqarish 8,7 % ga qisqardi, neftni qayta ishlab chiqarish esa 5,5 % ga kamaydi.[22]

Bu davrda davlat moliya-kredit tizimiga katta zarar yetkazildi. 2009-yilning boshlarida o‘tgan yilgi metal ishlab chiqarish hajmini juda ham kam qismini tashkil qildi. 2009-yilning yarim yillik ishlab chiqarishi sarhisob qilinganda o‘tgan yigi ko‘rsatkichning atigi 79 % ga yetganligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich so‘nggi 10

[22] Завадский М. Экономика Италии в 2008 году в условиях мирового финансового кризиса //www.rcrussia.it/

yillikdagi eng past ko‘rsatkich edi. Bu davrda stanoksozlikdan ham o‘tgan yildagi ishlab chiqarish natijasining 63 % ni tashkil etdi. Italiya iqtisodiga jahon iqtisodiy inqirozi shu darajada salbiy ta`sir o‘tkazdiki 2009-yilning yarim yillik davridagi davlat eksport hajmi 2008-yilning shu davriga nisbatan solishtiradigan bo‘lsak 26,8 % darajada past ko‘rsatkichni qayd etdi. Importni qiyoslaydigan bo‘lsak 32,2 % ni tashkil etardi. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi bu vaqt orolig‘ida 40 % ga pasaydi. Hukumat iqtisodiy vaziyatni tartibga solish uchun bir qancha ijobiy ishlarni amalga oshirdi. Hukumat soliq tizimida kompaniyalarga bir qancha imtiyozlar berdi. Bundan tashqari davlat imtiyozli shartlar asosida kreditlar berish tizimini qaytadan yo‘lga qo‘yishga ham harakat qildi.

2009-yilning 10 oylik yakuniga qaraganda davlat iqtisodiyoti juda katta ziyon ko‘rdi. Mamlakat ishlab chiqarishida katta o‘ringa ega bo‘lgan avtomobil ishlab chiqarish hajmi 30 % ga qisqarishiga sabab bo‘ldi. Bunga dunyo mamlakatlarida avtomobilga bo‘lgan talabning keskin ravishda pasayib ketishi sabab bo‘ldi. Jahon moliyaviy inqirozi ta`sirida 2009-yilning 10 oyi davomida Italiyada 39 ta kompaniya o‘z bankrotligini e`lon qildi. Bacha sohalarda bo‘lgani kabi inqiroz Italiya neftni qayta ishovchi kompaniyalar foliyatiga ham salbiy ta`sir o‘tkazdi. Misol sifatida Ein Spa kompaniyasi 2009-yilning oxirida o‘z ishlab chiqarish darajasini 60,5 % hajmini qayd etdi.[23]

Italiyada inqirozga qarshi kurashish maqsadida Asottatsiya tashkil etdi. Davlatning eksport hajmi kutilgan darajadan ham past ko‘rsatkichni qayd etdi. Davlat Xalqaro valyuta fondidan yordam olishga harakat qildi. Bu davrda Italiyaning bosh vaziri bo‘lgan Mario Monti tomonidan iqtisodiy holatni tartibga solish maqsadida bir qancha harakatlar amalga oshirildi. U davlatning iqtisodiy ishlab chiqarish darajasini ko‘tarish, budjetning kamomatining 20 mlrd dollor miqdorida kamaytirishni maqsad qilib qo‘ydi. Hukumat rahbari tomonidan

[23] Мировое хозяйство и экономика стран мира [Текст]: Учеб. пособие для вузов/В.П. Воронин. - М.: Финансы и статистика, 2007.ст. 128.

iqtisodiy hayotni tartibga solishni rejalashtirgan dasturga ko‘ra, davlat budjetidan sarflanayotgan harajatlarni keskin qisqartirish va to‘lanilayotgan soliqlar miqdorini keskin oshirish belgilandi. Yevrokomissiya tomonidan olib borilgan tekshiruvlardan so‘ng Italiya iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi 2008-yilgi ko‘rsatkichdan 1,3 % ga kamligi aniqlandi[24].

Italiyada 2008-yil dekabrida boshlangan iqtisodiy inqiroz natijasida siyosiy hayotda ham bir qancha o‘zgarishlarning bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu inqiroz natijasida hukumat tepasida o‘zgarish bo‘ldi. Davlatning bosh vaziri Silvio Berluskoni o‘z vazifasidan iste`fo berishga majbur bo‘ldi. U so‘ngi 3,5 yil davomida mamlakatni boshqarib kelmoqda edi. Uning o‘rniga YI ning monopoliyaga qarshi kurashish komitetining rahbari bo‘lgan Mario Montini bu lavozimga tayinladi.

Monti hukumati iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish uchun o‘ziga xos yo‘l tutdi. Yaqin uch yilga mo‘ljallagan dastur ishlab chiqildi. Uning qiymati 33 mlrd yevroni tashkil qilardi. Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan bu dastur “ moliyaviy maydon” nomini oldi. Bu dastur natijasida Italiya budjeti 2013-yilga kelganda kamomatsiz ko‘rinishda bo‘lishi lozim edi. Moliyaviy maydon dasturini shaxsan Italiya prezidenti Djorjo Napalitaning o‘zi imzoladi. Iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish maqsadida ajratilgan 33 mlrd yevro 2013-yil 17-dekabrda parlamentining qo‘shma yig‘ilishida tasdiqlandi. Monti hukumati tomonidan olib borilgan siyosat tufayli iqtisodiy inqirozda ko‘rilgan keng hajmdagi zarar asta-sekin qoplana bordi. Bundan tashqari bu hukumat vaqtida nafaqat iqtisodiy ahvol balki ijtimoiy hayot ham ancha ijobiy tomonga qarab o‘zgardi. 2012-yilda hukumat tomonidan pensiya yoshi xususida bir qancha bahsi muzokoralar bo‘lib o‘tdi. Natijada erkaklar uchun pensiya yoshi 66 yosh, ayolllar uchun esa 62 yosh etib belgilandi. 2018-yilga kelganda ayollar ham 66 yoshda pensiyaga chiqishi kerakligi belgilandi.

---

[24] Завадский М. Экономика Италии в 2008 году в условиях мирового финансового кризиса //www.rcrussia.it/

Italiyaning Monti davridagi iqtisodiy ahvoliga qaraydigan boʻlsak ancha ijobiy natijalar qayd etilgandi. Davlatning eksport hajmi yildan yilga oshib bormoqda edi. Mutaxasislar 2012-yilda Italiyaning eksport qiymatini 208-242-mlrd yevro atrofida boʻlishini tahmin qilishdi. Misol sifatida 2012-yilning fevral-aprel oylarida ishlab chiqarish hajmi 91 mlrd dollorni tashkil edi. Italiya moliya vaziri boʻlgan Vettorio Grilt “Corriere della Serraga” gazetasiga bergan intervyisiga qaraganda Italiya yaqin 5 yil uchun davlat iqtisodni rivojlantirish maqsadida har yili 15-20 mlrd yevro miqdorida mablagʻ sarflashini aytib oʻtdi.

Italiyada ushbu vaqtdagi ishsizlik darajasi 2012-yilgi yanvar oyidagi holati 2011-yil dekabr oyidagi holatga qaraganda 0,3 % ga qisqardi va 9,2 % ni tashkil qildi. Italiya statistik agentligi ma`lumotiga qaraganda davlatdagi bunday yuqori darajadagi ishsizlik 11 yildan beri saqlanib qolmoqda edi. Italiyadagi ishsizlarning umumiy soni 2,3 mln kishi atrofida edi.

2012-yil iyul oyida hukumat tomonidan inqirozga qarshi kurashish rejasiga binoan davlatning harajatlarini qisqartirish lozimligi toʻgʻrisida qaror chiqarildi. Unga koʻra 4 yil davomida davlatning harajatlari 26 mlrd yevroga qisqartirilishi lozim edi. Bu rejaga koʻra 2012-yilda davlat budjetidan sarflanayotgan xarajatlar 4,5 mlrd yevroga, 2013-yilda esa 10,5 mlrd yevroga, 2014-yilda esa 11 mlrd yevro miqdorida qisqartirilishi kerak edi. 2011-yilda davlat budjeti kamomati YIM ning 1,7 % ga teng koʻrsatkichni tashkil qildi.[25]

2012-yil 22-iyunda YI da katta oʻringa ega boʻlgan toʻrtta yirik davlat rahbarlari Germaniyadan Angila Merkel, Fransiya prezidenti Fransuz Olland, Ispaniya bosh vaziri Mariano Roxoy va Italiya bosh vaziri Monti oʻrtasida Rim shahrida uchrashuv boʻlib oʻtdi. Bu uchrashuvdan koʻzlangan maqsad iqtisodiy inqirozga birgalikda kurashishga kelishildi. Toʻrt davlat rahbarlari uchrashuvi natijasida 130 mlrd yevro qiymatiga ega boʻlgan budjet tashkil qilinishiga kelishib

[25] Мировое хозяйство и экономика стран мира [Текст]: Учеб. пособие для вузов/В.П. Воронин. - М.: Финансы и статистика, 2007.ст. 132.

olindi, bu butun YI ning umumiy YIM ning 1 % ga to‘gri kelardi. Bu budjetda davlatlar moliyaviy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolgan vaqtdagina foydalana olishlari mumkin edi. Bu budjet davlatlar tomonidan belgilangan shaxslar tomonidan nazorat qilinardi.

Xullas, Italiya iqtisodiy rivojalnishi bu davrga kelganda ancha o‘zgardi. Hukumat tepasida turgan siyosiy partiyalar ham iqtisodiy sohani tartibga solish maqsadida bir qancha qonunlarni qabul qilishga harakat qilgan. Italiya bu davrda G‘arbiy Yevropa davlatlari orasida iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egallagandi.

## 1.2.Ijtimoiy islohotlar

Italiyaning 90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayotida siyosiy jihatdan barqarorlikning saqlanib qolganligi bilan izohlanadi. Mamlakat parlamentida “mustahkam ko‘pchilik”ning yo‘qligi, parlament va hukumatlarni boshqarishda koalitsiyalar amaliyotidan foydalanishga sabab bo‘ldi. Parlamentni tarqatib yuborish, yangi tarkibni tuzish bo‘yicha navbatdagi saylovlar 70-yillardagidek muddatidan oldin o‘tkazilar edi. Ko‘pgina qonunlar qog‘ozdagina mavjud bo‘lib, ular bajarilmas edi. Mamlakatda partiyalarning imkoniyatlariga ishonmaslik, hafsalasi pir bo‘lish holatlari kuchaydi. Giyohvandlar va mafiyaning qurbonlari soni yanada ortdi. Terrorizm va korrupsiya Italiya siyosiy hayotining ajralmas qismiga aylanib qoldi.

Mehnat faoliyatini isloh qilish, Italiyada boshqa sohalarda bo‘lgani kabi bu sohada ham islohot o‘tkazildi. Bu islohotdan ko‘zlangan maqsad butun mamlakat hududida mehnatga birdek haq to‘lanishini taminlash edi. Bu davrgacha mamlakat hududlarida ish haqiga to‘lanadigan haq turlicha edi. Yangi chiqarilgan qonunlarga ko‘ra bunday tengsizlikni tugatilishi belgilandi. Mamlakatning Janubiy qismiga uch yil davomida soliq to‘lashda imtiyozlar berildi. Bu hududda ishlayotgan fuqarolar daromad solig‘ini to‘lashda bir qancha imtiyozlarga ega bo‘ldi. Janubiy hududlar ham maktab ta`limini rivojlantirish maqsadida imtiyozlarga ega bo‘ldi.

Yer islohoti davlatdagi muhim islohotlardan biri bo‘lgan. Italiyada davlat yer fondini hajmini ko‘paytirish maqsadida va yerdan foydalanish sharoitlarini yaxshilash uchun islohot o‘tkazildi. Bu islohot quyidagi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ydi. Davlat o‘z yerlarini ijara asosida odamlarga 30 yil muddatga berish, ularni yiliga 3,5 % miqdorda ijara haqini to‘lab to‘lab turushlari shartliligi belgilandi. Agarda ortiqcha yeri bo‘lsa, bu yerlar davlat yer fondi hisobiga musodara qilinishi yoki bo‘lmasa kompensatsiya to‘lashi lozimligi belgilandi. Kompensatsiya miqdori yiliga 5 % dan 25 yil muddatga to‘lanishi lozimligi qayd etilgandi. Yer islohoti ayniqsa Janubiy Italiya okruglarida ko‘plab to‘siqlarga uchradi. Bu hududa katta miqdorda yerlarga ega bo‘lgan pomeshchiklar o‘z yerlaridan ayrilmaslik uchun

qo‘llaridan kelgancha qarshilik ko‘rsatishdi. Davlatning bu islohoti Shimoliy va Markaziy hududlarda Janubdagidek qarshilik ko‘rsatish hollari uchramadi.

2001-yil bahorida Italiyada yangi bosh vazirni saylash uchun saylov kompaniyasi ish boshladi. Berluskoni saylovoldi kompaniyasi vaqtida soliqlarni kamaytirish, pensiyalar oshirish, bir million yangi ish o‘rinlarini yaratish, noqonuniy immigratsiya qarshi kurash kamaytirishga va`da bergandi.

Ijtimoiy sohaning ajralmas qismidan biri bo‘lgan sog‘liqni saqlash sohasiga ham davlat o‘z e`tiborini qaratdi. Italiyada davlat davolash muassasalaridan tashqari xususiy shifoxonalar ham keng tarqalgandi. Shifokorlar 27 tibbiyot muasasalarida tayyorlanadi[26]. Kurortlar ayniqsa, ma’danli suv va loybalchiklar vositasida davolovchi sanatoriy ko‘p edi. bunga misol qilib: Montekatini-Terme, Fyuji, Salsomajore, Kastellammare-diStabiya, AbanoTerme, Kaprilarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Ma’orif, madaniy-ma’rifiy va ilmiy muassasalarga bo‘lgan e`tibor ham bu davrga kelganda ancha yaxshilandi. Italiyadagi zamonaviy xalq ta’limi tizimi XIX-asrning 2-yarmidan tarkib topa boshlagan bo‘lsa, 1859-yilda 6-9 yoshdagi bolalarning majburiy ta’limi to‘g‘risida qonun (Kazati qonuni) qabul qilingan edi. Italiyada 6-14 yoshdagi bolalar uchun majburiy 8 yillik ta’lim joriy etilgan. Davlat maktablari bilan birga, asosan, diniy tashkilotlar ta’minotidagi xususiy maktablar ham mavjud. Xalq ta’limi tizimiga quyidagilar kiradi: 3-5 yoshli bolalar uchun majburiy bo‘lmagan maktabgacha tarbiya muassasalari, majburiy maktablar (6-11 yoshli bolalar uchun 5 yillik boshlang‘ich va 3 yillik quyi o‘rta maktab), majburiy maktab negizida o‘rta umumiy ta’lim va kasb-hunar beradigan to‘liq, o‘rta umumiy ta’lim maktab-litseylari (5 yillik ta’lim beradigan mazkur o‘quv yurtini bitirganlar universitetga kirish huquqini oladi), o‘rta pedagogik o‘quv yurtlari (boshlang‘ich maktab muallimlarini tayyorlovchi 4 yillik o‘qituvchilar internatlari va maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilarini tayyorlovchi 3 yillik

[26] Кунц И. Италия на рубеже веков. - М. Наука, 1999. – ст.32.

pedagogik maktablari), kasb-hunar o‘quv yurtlari (malakali ishchilarni tayyorlovchi 3 yillik hunar internatlari, o‘rta texnika ma’lumotli xodimlarni tayyorlovchi texnika inistitutlari), o‘rta badiiy va musiqa o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlari (universitetit va oliy maktablar) ham bor edi. Italiyad da 27 ta univerisitet, 50 dan ortiq davlat va xususiy oliy maktablari, hamda xususiy univerisitetlar bor edi.Yirik universitetlariga: Bolonya, Rim ,Neapol, Milan, Bari, Genuya va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin bo‘ladi[27].

Italiyada 150 ta yirik kutubxona, jumladan, Rimda 31 ta, Milanda 19 ta, Neapolda 19 ta, Florensiyada 9 ta, Turinda 6 ta kutubxona bor. Davlatda 170 dan ortiq muzey va rasm galereyalari mavjud. Eng mashhurlari: Rimdagi Milliy muzey, Julia muzeyi va villasi, Borgeze muzeyi va galereyasi,antik san’at galereyasi, zamonaviy san’at milliy galereyasi, Florensiyadagi Milliy muzey, arxeologiya muzeyi, rasm galereyasi (jumladan, Uffitsi galereyasi), Messina, Neapol, Palermo, Peruja, Venetsiyadagi muzeylarni misol qilib keltirib o‘tishimiz mumkin.

Ishsizlikning yuqori darajasi 1990-yillarning o‘rtalarida Italiyani xavotirga solgan bo‘lsa. Davlatning yevro zonasiga o‘tish bilan bandlikning yaxshilanishi kuzatildi, ammo 2012-yildan boshlab mamlakatda ishsizlik muommosi yana qaytadan ko‘tarildi. Bu vaqtga kelganda mamlakatda ishsizlarning umumiy soniga nisbatan bu ko‘rsatkich 11,9% ni tashkil etardi. Bu davrda Yevropada ishsizlik ko‘rsatkichi o‘rtacha 7,5%ni tashkil qiladi. Shu davrda Italiya aholisining ish bilan taminlanganlarning 57 foizini erkaklar tashkil qilardi. Yevropaning boshqa davlatlarida bu ko‘rsatkich o‘rtacha 69 foizni tashkil qilgan. Farq shundaki Italiyada ayollar boshqa Yevropa davlatlaridan ko‘ra kamroq ish bilan band bo‘lgan. Bu ham mamalakatdagi ijtimoiy muommoning bir ko‘rinishi edi.

Italiyada mehnatga to‘lanadigan ish haqi boshqa Yevropa davlatlariga qaraganda ancha kam miqdorni tashkil qilardi. Italiya mehnatkashlari orasida

---

[27] Кунц И. Италия на рубеже веков. - М. Наука, 1999. – ст.39.

ayollar kamchilikni tashkil qilishi bilan birgalikda, ular o‘z ishlari uchun erkaklardan kam miqdorda haq olardi. Italiya ayollari erkaklarnikiga nisbatan 5% kamroq daromad olgan holda, bu ko‘rsatkich bo‘yicha ham davlat Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlariga qaraganda ancha past natijani ko‘rsatardi.

Italiya aholisi transport vositalari bilan boshqa Yevropa davlatlariga qaraganda ancha yaxshi taminlangandi. Misol sifatida aholi o‘z avtomobil bilan ham boshqa davlatlarga qaraganda ancha yaxshi taminlangan. Italiya avtomobillar soni eng ko‘p bo‘lgan mamlakat bo‘lib 100 kishiga 61, Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlarida har 100 kishiga o‘rtacha 54 ta avtomobil to‘g‘ri kelardi. Italiyaliklar ommaviy transportni yoqtirmaydi. Davlatda aholi shuning uchun ham o‘z avtomobil transportiga ega bo‘lishga harakat qiladi.[28]

XX asrning 90-yillariga kelganda Italiyada tug‘ilishning keskin pasayib ketishiga qarshi davlat rahbarlari bir qancha choralarni qo‘llay boshladi. Berluskoni hukumat tepasiga kelgandan keyin saylovoldi kompaniyasi payti bergan va`dalarga javob tarizda bu muommoni hal qilishi maqsadida bir qancha harakatlarni amalga oshirishga urundi. 1996-yilda hukumat tepasiga kelgan Romano Prodi ham saylovoldi dasturiga davlatdagi demografik holatni yaxshilashga e`tibor qaratish lozimligiga alohida urg‘u bergandi.

Afsuski, so‘nggi ikki yilda Italiyada tug‘ilish pasayishda davom etmoqda. Bugungi kunda italiyaliklar 30 yoshdan keyin ilk bor onalar bo‘lmoqda. Italiyada birinchi bolani tug'adidan onaning o‘rtacha yoshi 32 ni tashkil qilsa, boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlarida bu ko‘rsatkich o‘z navbatida 30,9 yoshni tashkil qilmoqda. Italiya va G’arbiy Yevropa davlatlarining aholisi yildan-yilga qarimoqda.

Italiyada XX asrning 90-yillaridan keying oliy ta`lim tizimini holatiga etibor qaratadigan bo‘lsak boshqa Yevropa davlatlariga qaraganda past ko‘rsatkichni qayd etdi. G‘arbiy Yevropa davlatlari orasida Italiyada ta`lim yoshidagi yoshlar

[28] Зонова Т. В. «Италия. От Первой ко Второй Республике», М.: Весь мир, 2011 г.

nisbatan ancha kam oliy ta`lim muassasalarida o‘qiydi. Bu ko‘rsatkich Italiyada butun ta`lim olish yoshidagilarning atigi 26,2 % gina oliy ta`lim muassasalarida talim olishardi[29]. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Italiya boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlariga qaraganda nisbatan past ko‘rsatkich edi.

Italiyada Prodi va Monti hukumat tepasiga kelgandan so‘ng oliy ta`lim tizimini isloh qilish maqsadida bir qancha ishlarni amalga oshirishga harakat qildi. Berluskoni ham oliy ta`lim tizimini tartibga solish maqsadida bir qancha qarorlarni chiqardi. Shu bilan birgalikda Italiya universsitelarida nafaqat italiyaliklar balki, boshqa davlatlardan kelgan xorijliklar ham ta`lim olishardi. Italiya hukumati buni inobatga olgan holda xorijdan kelib o‘qiydigan yoshlarni har tomondan ham nazorat qilish ham qo‘llab-quvvatlashga harakat qilardi.

XXI asr boshlariga kelganda Italiyada sog‘liqni saqlash tizimi bo‘lgan e`tibor oldindagiga qaragandan ham ancha ijobiy tomonga qarab o‘zgardi. Yevropa davlatlari orasida sog‘liqni saqlash tizimiga Italiya ham katta miqdorda budjetdan mablag‘larni sarflamoqda. Hukumat tepasiga kelishidan oldin Silvio Berluskoni davlatdagi sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish va davlat budjetidan sarflanayotgan mablag‘lar miqdorini yanada ko‘paytirishga saylov dasturida alohida e`tibor qaratgandi. Hukumat tepasiga kelgandan so‘ng Berluskoni bergan va`dalarni amalga oshirishga kirishdi. Davlat kasalxonalarini qaytadan kapital tamirlash, Janubiy Italiyaning chekka shahar va qishloqlarida aholigaa tibbiy yordam ko‘rsatish tizzimini yanada yaxshilashga alohida e`tibor qaratdi. Davlat budjetidan ijtimoiy soha uchun sarflanayotgan mablag‘larning 40% ni sog‘liqni saqlash tizimiga qarab yo‘naltirishga harakat qildi. Janubiy Italiyaning kapital tamirga muhtoj bo‘lgan kasalxonalriga keraklicha miqdorda mablag‘larni ajratishga va kerakli mutaxasislar bilan taminlashga bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi.

[29] Андреев С.С., Бабышев Л.С. Италия. - М: Академия, 2001. – ст. 238.

Prodi va Monti hukumat tepasiga kelgandan so‘ng ular ham ijtimoiy sohaga alohida e`tibor qaratish siyosatini davom ettirdi. Misol sifatida Prodining birinchi boshqaruv davrida hukumat tomonida asosan sog‘liqni saqlash tizimiga aloqasi bo‘lgan xususiy kasalxonalar tarmog‘ini yanada kengaytirish bilan birgalikda davlat kasalxonalari tarmog‘ini ham xususiy kasalxonalardan kam bo‘lmagan tarizda asbob, jihoz, dori-darmon bilan taminlanishiga alohida e`tibor qaratila boshladi. Shu bilan birgalikda tibbiyot muassalarining ham alohida davlat nazorati ostiga olish maqsadida bir qancha choralarni amalga oshirdi. Monti hukumat tepasiga kelgandan keyin u ham sog‘liqni saqlash tizimiga o‘z etiborini kuchaytirdi. Keksalarga davlat kasalxonalaridan bir yilda bir marta tekin tibbiy ko‘rikdan o‘tishi huquqi berildi. Monti ham sog‘liqni saqlash tizimiga sarflanadigan xarajatlarni ham oshirishga yo‘lini tutdi.  M. Rensi hukumat tepasiga kelgandan keyin zamon talablariga har tomonlama mos bo‘lgan yangi kasalxonalar tarmog‘ini kengaytirish dasturini o‘z saylovoldi kompaniyasi vaqtida e`lon qilgandi. Hukumat tepasiga kelgandan so‘ng bergan va`dalarni amalga oshirishga harakatini boshladi. Italiyada 2014-yilning o‘zida o‘nlab yangi shifoxonalar quruldi, yuzlab shifoxonalar esa kapital tamirdan chiqdi.

XX arning 90-yillarida Italiyada bolalarning tug‘ilishi keskin pasayishi bilan birgalikda o‘lim darajasi ham sezilarli darajada oshgandi. Shunday bo‘lsada Italiyada chaqaloqlarning o‘lim darjasi boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlariga qaraganda ancha past ko‘rsatkichin qayd etardi. XXI asr boshlariga kelganda Italiya hukumati tomonidan olib borilgan ijtimoiy siyosati natijasida chaqaloqlarning o‘lim darajasi sezilarli ravishda pasaymoqda edi. Bu davrda davlatda har ming tug‘ilgan chaqaloqqa o‘lim soni 2,8 % ni tashkil qilgandi. Xuddi shu vaqtda Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlarida bu ko‘rsatkich 3,4 % ni tashkil qilardi. Italiyada bu ko‘rsatkichning ijobiyligi hukumat tomonidan olib borilgan oqilona siyosat natijasi edi.

1992-ylda hukumat tepasiga kelgan Amanto ham Janubiy hududlaardagi bu ijtimoiy muommolarga alohida etibor qaratishga harakat qildi. Lekin uning qisqa

hukumat tepasida turga vaqtida o‘z oldiga qo‘ygan natijalarga erisha olmadi. Natijada Janubiy Italiya aholisi keskin ravishda norozilik bildira boshladi.

Italiyada hukumat tepasiga S. Berluskoni kelganidan so‘ng uning birichi boshqaruv davrida ijtimoiy sohaning ajralmas qismiga aylanib qolayotgan Janub masalasiga o‘ziga xos yo`l bilan yondasha bordi. Uning shaxsan o‘zi janubiy Italiya viloyatlariga borib ahvolni o‘rgandi va tegishli choralar qo‘llashga va`da berdi. U saylov kompaniyasi vaqtida Janubiy Italiyaning iqtisodini ko‘tarishga bergan va`dalarini hokimyat tepasiga kelganidan keyin hammasini bajara olmadi. U ko‘proq Shimoliy Italiya viloyatlari pozitsiyasi tarafida bo‘ldi.

Janubiy Italiyadagi ijtimoiy muammolar yildan-yilga jiddiylashib bormoqda edi. Bu yerda XX asrning 50-yillaridan beri uya qurib olgan mafiya o‘z bilganicha ish tutmoqda edi. U na davlat bilan na aholi bilan isoblashmasdi. Janubiy Italiyadagi vaziyatni mo‘tadillashtirishda Romano Prodining xizmatlari sezilarli darajadadir. U 1996-yilgi parlament saylovlari oldida bergan va`dasini amalda isbotlash maqsadida bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Birinchi navbatda Janubiy Italiya uchun asosiy muommolardan biri bo‘lib kelayotgan yer islohotiga o‘z e`tiborini qaratdi. Hukumat bu hududlarda katta yerlarni egallab olgan yirik yer egalarining yerlarini to‘lov evaziga olib kam yerli dehqon va yersizlarga taqsimlab berish siyosatini qo‘lladi. Olib borilgan bu tadbirlar nisbatan ancha yaxshi samara bera boshladi. Prodi hukumati bu hududdagi vaziyatni tartibga solishda faqatgina yer islohoti bilan to‘xtab qolmadi. U bu hududdagi ishsizlarni ish bilan taminlash maqsadida Shimoliy Italiyaning katta iqtisodiy bazaga ega bo‘lgan kompaniyalarini Janubiy Italiya viloyatlarida sanoatni rivojlantirish ishida faol qatnashishga jalb qila boshladi. Bunda hukumat kompaniyalarga davlat tomonidan bir qancha imtiyozlar berishini va`da berdi. Misol sifatida Italiyaning janubiy viloyatlarida o‘z kompaniyalarini ochgan tadbirkorlarga soliq tizimi va banklardan olayotgan kredit foizlarini imtiyozli asosda belglanishi va shunga o‘xshagan yana bir qancha imtiyozlar berilishini aytdi. Shunday bo‘lsada Prodi hukumati olib borilgan siyosat ancha ijobiy bo‘lmasin oxiriga yetmay qoldi. Bunga sabab sifatida

Italiyalik mutaxasislar davlat boshqaruvidagi mafiya tizimini to‘liq yo‘q qilinmasa har qanday ijobiy islohotlar oxiriga yetmay qoladi degandi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida Janubiy Italiyadagi vaziyat bir muncha ijobiy tarafga qarab o‘zgargan bo‘lishiga qaramasdan bu hududan ko‘plab kishilarning boshqa hududlarga ish izlab ketish holatlari ancha ko‘p kuzatildi. Bu hududda ishsizlar o‘z oilasini boqish maqsadida mavsumiy yoki uzoq muddatli ishlash maqsadida asosan mamlakatning shimoliy qismi va  Yevropa Ittifoqining boshqa ancha rivojlangan qo‘shni davlatlariga ish izlab ketardi. Italiya hukumati tepasida turgan siyosiy partiyalar bu muommoni hal qilishda o‘ziga xos yo‘ldan borishga harakat qildi. Yuqorida aytib o‘tilganidek bu hududda aholining ish bilan bandlik darajasini ancha oshirish choralari ko‘rildi. XXI asrning boshlariga kelganda janubiy viloyatlardagi ishsizlik muommosi ancha ijobiy hal qilindi. Bu hududlarda ko‘plab sanoat korxonalari qurildi. Hukumat tomnidan qo‘llab-quvvatlangan kichik va o‘rta biznes natijasida janubiy viloyatlarda ko‘plab kichik firmalar tarmog‘i vujudga keldi. Lekin bu holat uncha uzoq davom etmadi. 2008-yilda boshlangan butun jahon iqtisodiy inqirozi natijasida davlatdagi ko‘plab kompaniyalar bankrotlik holatlarini e`lon qildi. Natijada boshqa davlatlarda bo‘lgandek Italiyada ham ishsizlik har tomonlama o‘sdi. Hukumat tepasida turgan partiyalar bu vaziyatdan to‘g‘ri yo‘lni topa olishmadi. Nafaqat Janubiy Italiya balki butun Italiya hududlarida ham ishsizlik masalasi ko‘tarildi. Iqtisodiy-ijtimoiy hayotda ko‘tarilgan bu muommo natijasida siyosiy hayotda ham o‘zgarish bo‘lishni taqazo qilardi. Hukumat tepasiga kelgan yangi kuchlar bu inqirozdan davlatni qanday olib chiqib ketish yo‘llarini izlamoqda edi. Davlat oldida turgan asosiy masalalardan biri sifatida davlatda ishsizlarni ish bilan taminlash muommosi bo‘ldi. Hukumat ishsizlarni ijtimoiy jihatdan taminlash maqsadida bir qancha ijobiy ishlarni amlaga oshirdi. Ularga iqtisodiy yordamlar ko‘rsatila boshlandi. Ishsizlarga yangi ish o‘rinlarini topishga yordam ko‘rsatildi. Hukumatning ishsizlarni ish bilan taminlaydigan alohida komissiyasi tuzildi. Bu komissiya o‘z faoliyati davomida ko‘plab ishlarni amlaga oshirdi. Shunday bo‘lsada, hozirgi

kunda ham Italiyada ishsizlik muommosi dolzarb muommolardan biri bo‘lib kelmoqda. Hozirda ham Janubiy Italiya viloyatlarining kattagina qismi ishlash maqsadida Shimoliy Italiya viloyatlariga yoki qoshni rivojlangan davlatlarga ish izlab ketishmoqda.

Xullas, Italiyada davlat tepasida turgan siyosiy arboblar o‘z e`tiborlarini ijtimoiy sohani izga solish yo‘lida bir qancha ishlarni amalga oshirishga harakat qilgan. Bu davrga kelganda ko‘p yillardan beri Italiya jamoatini qiynab kelayotga ijtimoiy muommolar hal qilina boshlandi.

# II.Bob. Konstitutsiyaviy islohotlar. Yangi saylov tizimi.

## 2.1.Partiyaviy tizimdagi o‘zgarishlar.

Italiyada partiya tizimining barqarorligi 1990-yillarning boshlariga kelganda tugadi. Taniqli jamoat arboblari va mamlakat yirik partiyalar bilan bog'liq o‘tkir moliyaviy janjal, korrupsiya fosh qilindi. Natijada davlatdagi sobiq siyosiy tashkilotlarni yo‘q qilish yoki butunlay o‘z ko‘rinishini o‘zgartirish lozimligi yaqqol ko‘rinib qoldi. So‘nggi o‘n yil mobaynida Italiyada butun partiya tizimi tubdan o‘zgardi. Bir-birining kuchini shubha ostiga qo‘yadigan ikkita asosiy siyosiy blok - o‘ng ("Ozod uyi") va markaz-chap ("Olive Tree") shakllandi[30].

Ikkinchi jahon urushi tugagandan to 1993-yilgacha bo‘lgan davrdagi eski qoidalarga muvofiq faoliyat yuritayotgan partiyaviy tizim asta-sekin yemirildi. Bu haqida Florensiyalik siyosatshunos K. Fusari o‘zining demokratik o‘zgarishlarga bag‘ishlangan nutqida ma`lumot keltirib, bu tizimni keskin tanqid qilgandi. Uning fikriga qaraganda an'anaviy partiyalar tizimida inqirozga o‘z navbatida korrupsiya va mafiyaga bog‘liq bo‘lganligi sababli kelib chiqdi.

Elektorat dinamikasi shunday dalolat beradiki, 90-yillarning boshida sotsialistlarning obro‘si yanada oshdi, bunga qarama-qarshi ravishda esa kommunistlarning nufuzi tushib ketdi. Sharqiy Yevropada sotsializmning inqirozga yuz tutishi sharoitida IKP rahbariyati kompartiyani ommaviy so‘l kuchlar partiyasiga aylantirish tashabbusi bilan chiqdi. IKPning 1991-yil boshlarida bo‘lib o‘tgan XX-syezdida uning saflarida ixtilof oqibatida ajralish yuz berdi. Ko‘pchilik, partiyaning Italiyada demokratiyaning o‘rnatish va himoya qilishdagi xizmatlarini unutishni o‘ziga ma’qul ko‘rdi. Yaqin o‘tmishda bu partiya uchun saylovchilarning ¼ to 1/3 gacha qismi ovoz berishi ham esadan chiqarildi[31].

---

[30] Зонова Т. В. «Италия. От Первой ко Второй Республике», М.: Весь мир, 2011 г.
[31] Андреев С.С., Бабышев Л.С. Италия. - М: Академия, 2001. – ст. 239.

Bu vaqtga kelganda kommunistlarning katta qismi (a'zolarining deyarli 2/3) so‘l kuchlarning Demokratik partiyasini (DPL) tashkil etishdi. Yoshlar kommunistik harakatining sobiq yetakchisi va kompartiyaning kundalik gazetasi hisoblangan “Unita”ning redaktori Massimo D’Alema 1994 yildan beri DPLning kotibi hisoblanadi. DPL Yevropadagi sotsial-demokratik harakatlarning saflariga singib (qo‘shilib) ketdi. Sobiq IKPning kichikroq qismi (o‘zlarining stalinchilar deb hisoblagan partiyaning a’zolari) esa Kommunistik uyg‘otish partiyasini tashkil qilishdi. Yangi partiyani kommunistik harakatning faxriysi Fausto Bertinotti boshqardi.

XDP uchun ham qiyin kunlar boshlanib ketdi. XX asrning 90-yillari boshidayoq XDP kommunistlarning davlat tepasiga chiqishiga to‘siq bo‘lgan holda, davlatni boshqa partiyalar koalitsiyasida boshqardi. Bu vaziyatni beqaror muvozanat deb atashdi. Ammo, 90-yillar mobaynida XDP o‘zining hukmron partiya sifatidagi rolini yo‘qotdi. Bunday bo‘lishiga mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealar sabab bo‘ldi.

XX asrning 90-yillari boshiga kelganda Italiyani yangi siyosiy mojarolar larzaga keltirdi. Bu mojarolarga davlat amaldorlari bilan bir qatorda yirik siyosatchilar ham aralashib qolgan edi. 1992 yil fevralida Milandagi partiyalar uyining direktori M.Kyez qamoqqa olindi[32]. Bu orada esa siyosiy mojarolar davlat xizmatchilari bilan uyushgan jinoyatchilik o‘rtasida mustahkam aloqalar mavjudligi to‘g‘risida ko‘pgina dalillarni ko‘rsatib berdi. M.Kyezning hibsga olinishi bilan Italiyada “Toza qo‘llar” nomli umummilliy kompaniya avj olib ketdi. Asosan, so‘l qarashlarni qo‘llab-quvvatlovchi, Milan shahri prokuraturasi xizmatchilarining bir guruhi (magistratlar degan nom bilan atalgan) juda katta tergov jarayonini boshlab yubordi. Bu jarayon tufayli mafiya bilan bir necha minglab kishilar qamoqqa olindi. Ular orasida ko‘zga ko‘ringan tijoratchilar va

[32] Италия (север и Центр) [Текст]: Путеводитель - 7-е изд. - М.: Авангард, 2007. - (Путеводитель «Пти Фюте»).ст. 121.

tadbirkorlar, yirik va kichik partiyalarning funksionerlari, hukumatda yuqori doiralarning vakillari ham bor edi. Bu sud amaliyotida o‘xshashi bo‘lmagan (analogi) va keng xalqaro rezonans (jarangdor)ga ega bo‘lgan, misli ko‘rilmagan operatsiya edi.

Sobiq premyer-ministir, XDPning ustunlaridan biri sanalgan D.Andreattiga jinoiy ish ochilib, unga nisbatan partiyani noqonuniy yo‘llar yordamida mablag‘ bilan ta’minlash, mafiya bilan aloqadorlikda va buyurtmali suyiqasdlar uyushtirish bilan shug‘ullanganlikda gumon qilinib ayb qo‘yildi. Qo‘yilgan ayblar shu darajada jiddiy ediki, hatto D.Andreotti o‘z ixtiyori bilan deputatlik daxlsizligidan voz kechishga rozi bo‘ldi va hibsga olindi. “Toza qo‘llar” operatsiyasi sotsialistlar yetakchisi, sobiq premyer ministr B.Kraksini ham siyosiy jihatdan badnom qildi. ISPni 16 yil davomida boshqargan B.Kraksi iste’foga chiqishga majbur bo‘ldi. qamalishdan qo‘rqib, Kraksi mamlakatni tark etdi. Tunisda quvg‘inda yashadi va 2000 yilda shu mamlakatda vafot etdi.

Xristian demokratlar uchun hukumat mablag‘larini taqsimlash imkoniyati yanada qisqardi va shunga bog‘liq ravishda partiyaning ommaviy bazasi ham kamaydi. XDPning hukumatidagi doktarati ham ozchilikni tashkil etib, yetakchilarning nufuzi tushib ketdi. XDP ichidagi partiyaviy kurash yanada keskinlashdi. XDP obro‘sining tushib ketishiga, xalq ruhiyatida, ayniqsa, yoshlar orasida katolik cherkovi an’analariga bo‘lgan qiziqishning susayganligi ham turtki bo‘ldi. O‘z navbatida, xalq partiyasining o‘zi ham yana 3 ta oqim va bir qancha guruhchalarga ajralib ketdi. Masalan, sobiq xristian-demokrat, Palermo shahrining meri L.Feando yetakchiligidagi guruh “yashillar” harakati bilan birlashib Sitsiliyada faoliyat ko‘rsatuvchi “To‘r” nomli partiyani tashkil etdi. Bu partiyaning maqsadlaridan biri mafiyaga qarshi kurash olib borish edi.

Mamlakatdagi boshqa siyosiy partiyalarning taqdiri ham shu qismatga duchor bo‘ldi. Moliyaviy nopokliklar haqidagi ayblovlar yomg‘iri avvallari kaolitsion hukumatlar tarkibiga kirgan respublikachilar, liberallar va sotsial-

demokratlar kabi partiyalarni amalda siyosat maydonidan tushirib tashladi. Endilikda XDP bu partiyalar uchun tayanch nuqtasi bo‘lolmay qoldi.

O‘ng partiyalarning peshqadam mavqega ko‘tarilishi (chiqishi) 90-yillar siyosiy marketingida yangi hodisa  bo‘ldi. Umberto Bossi boshchiligidagi Shimol Ligasi nomli o‘ng siyosiy gruppirovka janub muammosi, Italiya va ayniqsa Shimoldagi barcha kulfatlarning manbai degan fikrni surdi. Liga tarafdorlarining qarashlari uchun separativ (bir tomonlama) kayfiyat xarakterli edi. Rahbariyat esa populistik taktikani asos qilib oldi. Liganing asosiy elektorati, tabiiy ravishda mamlakatning shimoliy viloyatlarida to‘plangan edi. 1992 yildagi saylovlarda Shimol Ligasi katta muvaffaqiyatga erishdi. Chunonchi, parlamentda 55 ta (1 ta qarshi) va senatda 25 ta (1 ta qarshi) o‘ringa ega bo‘ldi. Shimol Ligasi o‘ng partiyalar bilan kaolitsiyada bo‘lishni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘ng qanotga oid bo‘lgan siyosiy guruhlardan yana biri, ya’ni-neofashistlar 90-yillar o‘rtalariga kelganda, siyosiy kurashning respektabel (salobatli, hurmatli,) qatnashchisiga aylanib ulgurdi. Uni ISDlar harakatining a’zosi va keyinchalik “Italiya ijtimoiy harakati - Milliy o‘ng kuchlar” (ISD NPS ) partiyasining yetakchisiga aylangan Djanfranko Fini boshqardi. Uni Italiyada ko‘pchilik Dj.Almiraning g‘oyaviy merosxo‘ri deb hisoblashar edi. Fashistik o‘tmishdan uzoqlashgan holda Fini neofashizmning ortodokslari (mustahkam e’tiqodli, sobitqadam, sodiq) bilan aloqani uzdi va 1993-1995-yillar orasida bu partiyani postfashistik  Milliy alyansga aylantirdi. Bu partiya o‘z maqsadlari yo‘lida o‘ng va markazchi raqiblari bilan siyosiy kompanyon (sherik) bo‘lishga ham tayyor edi.

O‘ng markazchi guruhlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi 1993-yilda tashkil topgan “Olg‘a, Italiya” nomli partiya edi. Bu partiya markaziy siyosiy kuch bo‘lishga da’vogarlik qiladi. “Olg‘a, Italiya” partiyasining tashkilotchisi va yetakchisi S.Berluskoni hisoblanadi.

Silvio Berluskonining asli kasbi huquqshunos bo‘lib, u o‘zining shaxsiy sifatlari va qobiliyati noqulay vaziyatdan muvaffaqiyatli chiqib keta olish iqtidori evaziga juda katta boylik orttirdi. U hozirgi kunda Italiyadagi eng boy kishilardan

biri hisoblanadi. Berluskoni yaxshi tijoratchi va tug‘ma tadbirkor sifatida ham tan olingan. U hozirgi kunda mamlakatdagi uchta yirik xususiy telekanal, bir qancha supermarketlar to‘riga, katta miqdordagi qurilish kompaniyalari, Italiyadagi 30 ta yirik gazetalarning nazorat aksiyalariga ega bo‘lgan “mondadori” nomli nashriyot uyi va “Milan” futbol klubining xo‘jayini hisoblanadi. Shubhasiz, oddiy bank xizmatchisi o‘g‘lining moliyaviy imperiya egasiga aylanib ketish qonunni himoya qiluvchi organlarning e’tiborini tortmasdan ham qolmagan. Berluskoni “Ozodlik Alyansi” nomli saylovoldi blokini tashkil etdi. Blokka “Olg‘a, Italiya” partiyasidan tashqari neofashistik Milliy Alyans va o‘nglarning siyosiy gruppirovkasi hisoblangan Shimoliy Liga ham kirgan edi. Yangi koalitsiya 1994-yil martida bo‘lib o‘tgan saylovlarda 38% ovoz bilan g‘alaba qozondi. Bu saylovlarda boshqa nufuzli guruh va partiyalarning obro‘si ancha tushib ketdi. Masalan, XDP uchun saylovchilar 11% (“Toza qo‘llar operatsiyasi boshida 31,7% qarshi ovoz”), sotsialistlar uchun esa bor yo‘g‘i 2,2% (oldingi saylovlardagi 14,5 % ga qarshi) ovoz berdi. Ozodlik Alyansining g‘alabasi tufayli o‘nglar deputatlar palatasida absalyut ko‘pchilikka (301-mandat) ega bo‘ldi. Saylovlarda “Olg‘a, Italiya” partiyasi 21% ovozga ega bo‘lib, yetakchilikni o‘z qo‘liga oldi, Berluskoni esa 1994-yilning may oyida bosh vazir etib tayinlandi.

Bosh vazir Berluskoniga iqtisodiy muammolarni bartaraf etishdan tashqari, “Ozodlik Alyansi”ning bir-biri bilan muxolif bo‘lib qolgan ikki vakilini murosaga keltirish muammosi ham paydo bo‘ldi. Shimoliy Liga o‘ng markazchi koalitsiyalardan chiqib, parlamentdagi ko‘pchilikka barham berganida, Berluskonining hokimiyat tepasiga kelganiga bor-yo‘g‘i 7 oy bo‘lgan edi. Bu siyosiy voqealar 1994-yil dekabrida iste’foga chiqishga majbur qildi. Italiyada jamoatchilik orasida Berluskonining televizion saltanatini bitta kanalgacha cheklash va reklama monopoliyasiga barham berish haqidagi fikrlar to‘lqini yuzaga chiqdi. Berluskoni bu g‘avg‘olardan omon qolgan bo‘lsada, yana darhol yangi korrupsiya mashmashasiga aralashib qoldi. Bu mojaro kichik ukasi va unga qarashli bo‘lgan “Fininvest” kompaniyasining direktorlariga daxldor bo‘lib,

Berluskoni bu kompaniya orqali telereklamani monopoliya qilar va Italiyadagi ko‘pgina telekanallarning faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan edi[33]. Berluskoni poraxo‘rlik va soliq nayranglarida, hamda neofashistik Milliy Alyans va Shimoliy Liga separatizimini qo‘llab-quvvatlash kabi jinoiy ishlarda ayblanib, sud oldida javob berishga majbur bo‘ldi.

1996-yil aprelida bo‘lib o‘tgan saylovlarda So‘l Demokratik partiyaga mansub bo‘lgan eks-kommunistlar muhim o‘rin tutgan “Zaytun daraxti” nomli so‘l-markazchi bloki Berluskoni yetakchilik qilgan o‘ng markazchi kaolitsiyadan birozgina farq bilan ustunlik qildi. Bu blokning tashkilotchisi va yetakchisi iqtisodiyot proffessori Romano edi. Romano Prodi o‘zining siyosiy faoliyatini xristian demokratlar safida boshlagan bo‘lib, u nafaqat Italiyada, balki Yevropadagi ishbilarmonlar doirasida ham e’tiborli arbob edi. Bu hukumat nisbatan barqarorroq (bardoshliroq, chidamliroq) bo‘lib, 2,5 yil faoliyat ko‘rsatdi. Ammo, 1998-yil kuzida budjet masalasi bo‘yicha parlamentda bo‘lib o‘tgan qizg‘in bahslardan so‘ng, R.Prodi iste’foga chiqdi. Prezidentning topshirig‘i bilan tuzilgan yangi koalitsion o‘ng markazchi hukumatni 49-yoshli eks-kommunist (SDP a’zosi) Massimo D Alema boshqardi. U Italiya tarixida sobiq IKP ning hokimiyat tepasiga chiqqan birinchi vakili edi. Massimo D Alema hokimiyatni 18 oy davomida boshqardi.

2000-yilning aprel oyida 20 ta viloyatning 15 tasida mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarida ma’muriy saylovlar bo‘lib o‘tdi. D.Alemaning “yarim kommunistik rejimidan” norozi bo‘lgan o‘ng oppozitsiya o‘zining siyosiy raqiblariga nisbatan qaqshatqich kurash boshladi. O‘ng markazchi “Ozodlik qutbi”ning (Ozodlik qutbiga birinchi galda “Olg‘a, Italiya”, “Milliy Alyans va bir qator boshqa partiya va harakatlar kiradi) yetakchisi Berluskoni yana bir bor Shimoliy Liganing federalchilari bilan birlashdi va qizg‘in saylovoldi tashviqotni boshlab yubordi. Cherkov dindorlarni o‘ng kuchlarning nomzodlarini yoqlab ovoz

[33] Италия (север и Центр) [Текст]: Путеводитель - 7-е изд. - М.: Авангард, 2007. - (Путеводитель «Пти Фюте»).ст. 123.

berishga chaqirdi. Natijada, o‘nglar shimoldagi sanoatni rivojlangan barcha hududlar bilan qo‘shib hisoblaganda, 8 ta viloyatda g‘alaba qozondi.

Yaqindagina “so‘llar hokimiyat tepasiga uzoq vaqtga keldi” deb bayonot bergan Massimo D Alema bunday vaziyatda o‘z mag‘lubiyatini tan olishga majbur bo‘ldi va prezidentga iste’foga chiqish haqidagi xujjatni topshirdi. Prezident K.A.Champi (1999 yilda buyon) texnokratlarning o‘tish hukumatini belgiladi va G‘azna, budjet va iqtisodiy rejalashtirish moslamalari bo‘yicha vaziri sotsialist Djuliano Amatoga hukumatni boshqarishni taklif qildi. Jurnalistlar taniqli iqtisodchi va siyosiy arbob Dj.Amatoni o‘ziga xos sezgirligi uchun “o‘tkir janob” deb nomlashgan. Yaqin o‘tmishda u ISPning rahbarlaridan B.Kraksining izdoshlaridan biri edi. Yangi bosh vazir uchun meros bo‘lib qolgan muammolardan biri saylov tizimidagi proporsional prinsipni bartaraf qilish orqali saylov to‘g‘risidagi qonunning mohiyatini o‘zgartirish edi. Mablag‘larni aylantirish jinoyatiga oid qonunchilikni takomillashtirish ham kun tartibidagi dolzarb muammo edi. Chunki Italiyada bu turdagi jinoyat misli ko‘rilmagan darajada ko‘payib ketdi. To‘g‘ri, mablag‘larni aylantirish jinoyat sifatida tan oliniyu, jinoyat kodeksining moddasiga ko‘ra 4 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum etish va 2 dan 30 mln liragacha jarima to‘lash belgilab qo‘yilgan bo‘lsada, bu illatga qarshi kurashish samaradorligi uncha yuqori emas edi.

Shu bilan bir qatorda Italiyani 2001-yilda bo‘lib o‘tadigan navbatdagi saylovlar kutmoqda edi. 2000-yilda o‘ng kuchlar tomonga ro‘y bergan tub burilishi yanada ko‘zga tashlana bordi. 2000-yil bahorida mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga bo‘lib o‘tgan saylovlardagi muvaffaqiyatdan ruhlanib ketgan Berluskoni “Ozodliklar uyi” nomli yangi Alyansni tashkil qiladi. “Ozodliklar uyi” 2001-yil bahoridan saylovoldi kompaniyasiga kirishib ketadi. Yangi Alyansga markaziy kuch bo‘lishga intilayotgan “Olg‘a, Italiya” partiyasi, hamda o‘nglarga tegishli bo‘lgan Milliy alyans va Shimoliy Ligalar qo‘shildi[34]. Saylovoldi

[34] Любин В. Италия перед вызовами XXI столетия. - АСТ, 2008. –ст.122.

kompaniyasida Berluskoni imperiyasining butun qudrati ishga solindi. Tashviqot-targ‘ibot ishlarida eng yangi siyosiy texnologiyalar, so‘l kuchlarning zaif joylarini ochib tashlash, italiyaliklar ruhiyatida hukumatning boshqaruv institutlari va qonunlaridan hafsalalarini pir qilish kabi vositalardan ham foydalanildi. Bunday sharoitda F.Rutellining “Zaytun daraxti” nomli so‘l markazchi kaolitsiyasi uncha ishontirolmaydigan kuch sifatida namoyon bo‘ldi. Siyosiy raqiblarning saylovoldi dasturlari bir-biridan unchalik farq qilmas edi. Chunonchi har ikkala blok ham Italiyaning iqtisodiy qoloqligini bartaraf etish tadbirlarini, davlatda tinchlik bo‘lishni va bir qancha siyosiy islohotlarni amalga oshirishni rejalashtirib qo‘yishgan edi. Shunday bo‘lsada, saylovchilarning katta qismi 2001-yil 13-mayda Berluskoni yetakchiligidagi “Ozodlik uyi”ni yoqlab ovoz berishdi[35].

Saylov natijalariga ko‘ra “Ozodlik uyi” kaolitsiyasi mamlakat parlamentidagi ko‘pchilik o‘rinlarni egallashga muvaffaq bo‘ldi, jumladan deputatlar palatasidagi 630 o‘rindan 367 tasiga, senatdagi 315 o‘rindan 177 tasiga ega bo‘ldi. “Zaytun daraxti” nomli so‘l markazchi blok 248 ta, kommunistlar 11 ta va qolganlar esa 4 ta deputat mandatiga ega bo‘ldilar. “Olg‘a, Italiya” partiyasi mamlakat parlamentidagi eng katta fraksiyaga aylandi. Oldingi saylovlarga qaraganda, u o‘z elektoratini 21 dan 30% gacha oshirishga muvaffaq bo‘lgan yagona partiya bo‘ldi. Parlamentning har ikkala palatasida ham ko‘pchilikka ega bo‘lgan Berluskoni nazariy jihatdan hukumatni qonun bilan belgilab qo‘ygan holda 5 yil muddat davomida to‘la boshqarish imkoniyatiga ega. Bosh vazir lavozimi va bir vaqtlar olingan Yevroparlament deputatining statuti Berluskoniga katta immunitet huquqini beradi. Ya’ni, uni nafaqat italiyalik sudyalar va balki boshqa davlatlarning qonunni himoya qiluvchi tashkilotlari hamda jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatidan mahrum etilganlar. Yangi bosh vazir oldida undan oldin faoliyat ko‘rsatgan o‘tmishdoshlari uddalay olmagan muammolarni hal qilish turardi. Bunday muammolarga; konstitutsion tizimni takomillashtirish, hukumatning asosiy illatlari sifatida saqlanib qolayotgan byurokratizim va

[35] Любин В. Италия перед вызовами XXI столетия. - АСТ, 2008. –ст.122

korrupsiyani yo‘q qilish, yuqori darajadagi ishsizlik (9%), maktab islohoti, soliq tizimini korrektirovka qilish kabi o‘nlab masalalar misol bo‘la oladi. S.Berluskoni muammolarni bartaraf qilish bo‘yicha o‘z variantini “kontrakt” deb nomlangan saylovoldi xujjatida e’lon qildi. Unga ko‘ra, Berluskoni ishsizlarni 1,5 mln kishiga qisqartirish, nafaqalar bo‘yicha islohot o‘tkazish, kichik biznesga yordam berish, soliqlarni qisqartirish, merosga solinadigan soliqlarni bekor qilish kriminal va byurokratiyaga qarshi kurashishga va’da berdi. Tashqi siyosatda esa chuqur o‘zgarishni amalga oshirish ko‘zda tutilmagan edi.

Shunday qilib, Italiya XX asrga bloklararo strategiya an’analarini saqlab qolgan holda kirib keldi. Mamlakatdagi barcha siyosiy partiyalarga tegishli o‘zgarishlar yuz berdi: ba’zi birlari o‘z faoliyatlarini to‘xtatishsa, ba’zilari esa bo‘linib ketdi yoki yangilanishdi. O‘ng partiyalar bloklararo siyosiy o‘yinlarning qoidalarini qabul qilib, mamlakatni boshqarish dastagini ushlab turishga siyosatini davom ettirishga harakat qililishdi. XDP esa “Katolik dunyo”ning monopol (yagona) siyosiy vakili bo‘lmay qoldi. “Olg‘a, Italiya” partiyasi o‘zining mustahkam o‘rnini saqlab qolishga urinmoqda edi. So‘l partiyalar ichida SDPning mavqei ancha yuqori hisoblanadi.

Markaz va chap blok 2007-yilda oktyabr oyida tashkil etilgan demokratik partiyasi hamkorlik qilishga kelishishdi. Kommunistlar esa "Kamalak" blokda joylashdi. Xristian demokratlar ittifoqi (etakchi - Pier Ferdinando Casini) mustaqil bo‘linma sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

"Ozodlik uchun" partiyasi Italiyada mo‘tadil siyosat olib borish tarafdori edi. Bu partiya 2007-yil 18-noyabrda tashkil etilgan, lekin rasman 27-29 mart kuni partiya syezdida ro‘yxatga olingan. 2009-yilda bu partiya "Forza Italia!" va boshqa partiyalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

"Forward, Italy" partiyasi partiyaning etakchisi S. Berluskoni

"Forza Italia!" Italiyaning eng katta o‘ng partiyasi bo‘lib,u 1994-yilda Silvio Berluskoni tomonidan tashkil etilgan va o‘zini mo‘tadil deb e'lon qildi. O‘z faoliyati davomida bu partiya ko‘plab partiyalar bilan hamkorlikda harakatini

amalga oshirdi. Misol sifatida "Erkinliklar qutbasi" va "Erkinliklar uyi" koalitsiyalarini tuzishda faol qatnashdi. 2006-yildagi bo‘lib o‘tgan saylovlarda mag‘lubiyatga uchraganligi sababli bu partiya muxolifat tomonida edi. 2008-yilgi parlament saylovlarida partiya faol ishtirok etdi. 2009-yilda Milliy Ittifoq bilan birlashib, "Ozodlik uchun" partiyasini yaratdi.[36]

"Milliy Ittifoq" partiyasi 1995-yil yanvar oyida sobiq neo-fashistik partiya, Italiya Ijtimoiy Harakati negizida tashkil topgan millatchilik partiyasi edi. Rasman, "Milliy Alliance" deb atalib, u o‘z dasturida irqchilik, antisemitizim va fashizmga qarshi demokratiya va bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga alohida e`tibor qaratishini e`lon qilgandi. 2001-yilda qabul qilingan yangi dasturiga ko‘ra, "Milliy Alliance"- o‘ziga xos dasturni olg‘a suradi. Bu partiya bir qancha partiyalar bilan hamkorligida kaolitsiyalarga birikib o‘z faoliyatini olib bordi. Misol sifatida "Ozodlikning qutblari" va "Ozodlik uyi" koalitsiyasida ham faol harakat qildi. 2006-yildan beri u muxolifatda edi. 2008-yilgi parlament saylovlarida partiyaning "Ozodlik" xalq harakati a'zolari sifatida ishtirok etdi. 2009-yilda Milliy Ittifoq bilan birlashib, "Ozodlik uchun" partiyasini yaratdi.

2008-yilgi parlament saylovlarida g'alaba qozongan partiya deputatlar palatasida 630 o‘rindan 238 va Senatda 322 o‘rinni egalladi. Natijada Italiya siyosiy hayotida o‘nglarning yangi boshqaruv tizimi o‘z faoliyatini boshladi.

"Shimoliy Ligasi" partiyasi Italiyaning shimoliy viloyatlariga mustaqillikka erishish va Milan shahri poytaxti bo‘lgan Padaniya mustaqil davlatini shakllantirish uchun ajratuvchi siyosiy partiyadir. Bu partiyaning siyosiy orientatsiya - millatchilik, konservatizim qarashlarigani o‘zida jamlagan edi. Bu partiyaning rahbari Umberto Bossi bo‘lib u o‘z maqsadlarini qanday bo‘lsa ham amalga oshirishni maqsad qiladigan shaxslardan edi.

1995-yil iyun oyida bu partiya asoschisi va rahbari Umberto Bossi partiyaning yangi nizomini qabul qildi. 1996-yil 15-sentyabr to‘planganlar oldida

---

[36] Италия (север и Центр) [Текст]: Путеводитель - 7-е изд. - М.: Авангард, 2007. - (Путеводитель «Пти Фюте»).ст. 124.

Padania mustaqilligini e'lon qildi. Ammo Italiyaning Shimoliy shtatlaridagi harakatning mashhurligining pasayishi "Shimoliy ligaga" taktikani biroz o‘zgartirishga majbur qildi. Mamlakatdagi voqealar sababli Shimoliy Liga o‘z dasturini biroz yumshatishga majbur bo‘ldi. 2008-yildagi oxirgi saylovlarda bu partiya quyi palatada 60 o‘ringa va Senatdagi 26 o‘rinni egalladi. Bu hukumat kaolitsiyasining bir qismi edi.

"Lombard - partiyasi  1991-yil fevral oyida Shimoliy Italiya viloyatlarida avtonomist guruhlari birlashtirish yo‘lda rasman tashkil etilgan. "Shimol ligasi" sinf yoki ijtimoiy kurash qarshi va asosiy siyosati masalalarni ko‘rib chiqadi. Bu partiya ham o‘z maqsadlari sifatida Shimoliy viloyatlarning huquqlarini himoya qilish siyosatini olib bordi.

Demokratik partiya markaz-chap yo‘nalishidagi muxolif siyosiy partiyadir. Partiyaning mafkurasi ijtimoiy-demokratik va ijtimoiy-liberal qarashlarni davlat siyosatida joriy qilishdir.  Bu partiya 1995-2007-yillarda mavjud bo‘lgan "Zaytun filiali" koalitsiyasining vorisi bo‘lib, saylovlarda faol ishtirok etib kelmoqda edi. 2007-yilning 14-oktyabrda Rim hokimi Valter Veltroni, ya`ni kelajakdabi bu partiya rahbari davlatda ochiq saylovlar bo‘lib o‘tishi lozimligi to‘g‘risida o‘z fikrlarini boldirib o‘tdi. Shu yilning 28-oktabrida partiyaning ta'sis qurultoyi Milan shahrida bo‘lib o‘tdi, va  21-noyabr kuni partiyaning rasmiy tuzilganligi tasdiqlandi.

2008-yilda bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarida partiya deputatlar palatasida 217 o‘rin va senatada 119 o‘rinni egallab, muxolifat partiya maqomini oldi. Umuman olganda, DP boshchiligidagi markaz-chap ittifoqi quyi palatada 630 o‘rindan 246 nafari va Senatdagi 315 o‘rindan 132 tasini oldi. Saylovlarda partiyaning dasturi ikki yo‘nalishga asoslangandi. Bular: Italiyaning siyosiy hayotini barqarorlashtirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat va siyosiy islohotlarni faollashtirishdan iborat edi.

2009-yil fevral oyida Valter Veltroni partiya rahbarligidan iste'foga chiqdi va uning o‘rnini vaqtincha Dario Francescini egalladi. 2009-yil iyun oyida

Yevropa Parlamentiga oʻtkazilgan saylovlarda, DP, Italiyaga tayinlangan 78 oʻrinda 21 oʻrinni egalladi.

2009-yil 25-oktyabr kuni partiyaning ikkinchi ochiq saylovi boʻlib oʻtdi, unda Pier Luigi Bersani g'olib chiqdi. Pier Luigi Bersani partiyaning etakchisi boʻldi. Partiyada liberal, xristian-demokratik, ijtimoiy-demokratik va "yashil", shu jumladan partiya tarkibida juda koʻp sonli tendensiyalar mavjud edi.

Italy Value Party, bu partiya "Qadriyatlar Italiya"– mafkuraning koʻzlaydiga, yoki aksincha liberal g'oyalarni olgʻa suradigan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. U 1998-yilda oktyabr tashkil etilgan boʻlib, Antonio Di Pietro uning yetakchisi hisoblanardi. U korrupsiyaga qarshi taniqli kurashchi sifatida hammaga tanilgan edi. Bu partiya oʻz oldiga ijtimoiy va oilaviy hamjihatlik, mehnat va ijtimoiy adolat, bozor iqtisodiyotining liberal madaniyati, shaxsiy erkinlik, sotsialistik madaniyat, katolik madaniyati, shaxsiy tashabbus va mas'uliyatni, oʻz-oʻzini boshqarish, "barqaror rivojlanish" va Yevropa federalizmi kabi bir qancha maqsadlarni oʻz dasturida belgilab olgan edi.

2004-yilda partiya Yevropa parlamenti saylovlarida oʻz roʻyxatini taqdim bosh tortdi va uning nomzodlar Italiya kommunistik partiyasi oxirgi yetakchisi bilan yagona roʻyxatiga kiritiladi - "Di Pietro Okketto", saylovchilarning 2,14% ovozni oldi.

2006-yilning 9-aprelida boʻlib oʻtgan saylovlar natijasida"Qadriyatlar Italiya" parlament quyi palatasida 16 oʻrinni egalladi. Bu partiyaga saylovchilarning 2,3% qismi ovoz bergan edi. Romano Prodi boshchiligidagi ikkinchi markazi-chap koalitsiyaning bir qismi sifatida parlament saylovlarida ishtirok etdi. Senatdagi saylovlarda partiya 4,89 foiz ovoz bilan g'alaba qozondi.

Ushbu saylovlar natijasida Prodi hukumati tashkil etildi. Antonio Di Pietro infratuzilma vaziri, Luiji Li Gotti oldi adliya vazirligi lavozimini egalladi.

2008-yilning 13-aprelida parlament saylovlarida "Qadriyatlar Italiya" Demokratik partiya yetakchisi Valtera Veltroni bilan kelishgan holda kaolitsiya kirdi va parlamentda Qadryatlar Italiay partiyasi 28 oʻrin egalladi. Bu partiyaga

saylovchilarning umumiy ovozining  4.37% ni oldi. Partiya Senat saylovida saylovchilarning (parlamenti yuqori palatasi 14 oʻrin) ning 4.32% ovoziga ega boʻldi. Veltroni kaolitsiyasi mag'lubiyatga uchradi va uning ishtirokchilari hukumatga kirishmadi.

2009-yil 7-iyun  boʻlib oʻtgan Yevropa parlament saylovlarida partiya muayyan muvaffaqiyatlarga erishdi. “Qadriyatlar Italiya,” tarkibiga bir necha soʻlchi rahbarlari (huquqshunos Luidji De Madzhistris, faylasuf Gianni Vattimo, sotsiolog Pino Arlachchi, LGBT faoli Franco Grillini  va sobiq kommunist Mauritsio Dzipponilar ) ham kiritilgandi. Bu saylovlarda partiya yaxshi natijalarga erishdi. Yevropa parlamentida bir qancha oʻrinlarni egalladi.

2011-yil may oyida "Qadriyatlar Italiya" nomzodi Luidji De Madzhistris Ozodlik xalqi va demokratik partiyasidan koʻrsatilgan nomzodlarni magʻlub qilgan holda Neapol meri saylovida g'alaba qozongan. 2013-yilda boʻlib oʻtgan parlament saylovlarida Qadryatlar Italiy partiyasi qaqshatqich magʻlubiyatga uchradi. Bu partiya deputatlar palatasi va senatda juda ham kam oʻringa ega boʻldi.  Senat saylovlarida atigi 1,8 % ovoz olishga muvaffaq boʻldi. 2013-yilning 26-fevralida Di Pietro mag'lubiyat uchun mas'uliyatini tan olganidan keyin iste'foga chiqdi.

XXI asr ikkinchi oʻn yilligi boshlarida Italiyada ancha demokratik ruhdagi kuchlar hokimyatga kela boshladi. Bu vaqtda M. Rensi saylovlarda gʻalaba qozondi. Aholi oʻrtasidagi milliy soʻrovlarda Beppe Grilloning "Besh yulduz" partiyasining obroʻsi  Berluskonining partiyasidan ham yaxshiroq  ekanligini koʻrsatdi. 2012-yil 28-oktyabr kuni Sitsiliyada oʻtkaziladigan mintaqaviy saylovlarda ushbu afzallik aniq namoyon boʻlishi kerak edi. Bu saylovlarda yangi gʻoyalar kurash maydonida oʻzaro toʻqnashishi kuzatildi.

Yangi respublikada  oʻz roliga ega   boʻlish uchun yana bir raqib Florensiya provinsiyasi va bu shahar meri boʻlgan 37 yoshli Tuscan Matteo Renzi siyosiy maydonga kirib kela boshladi. U Markaziy Demokratik Partiyani vakili sfatida siyosiy sahnada faol harakatini boshladi. Uning afzalligi Italiyaning parlament gerontokratiyasining demokratik isloh qilishga qilgan harakati edi. Eslatib oʻtamiz,

Italiya parlamenti o‘z tarkibida 630 nafar deputatlar palatasi va 315 nafar senatorlik senatiga ega edi. Renzi, o‘tgan yili Berluskoniga siyosatni tark etishi kerakligini talab qilib chiqdi. Buning natijasida siyosiy hayotda u mashhur bo‘lib ketgandi. Uning bu talab bilan chiqishiga sabab Berluskonini yoshi ancha kattaligi Renzini bobosidan u atigi 6 yosh kichik edi.

Bu paytda Italiya siyosatida so‘l tarafdorlarning ham harakatlari ancha jonlana boshladi. Kommunistik qayta tiklanish partiyasida ham o‘zgarishlar boshlanib Apulia viloyati rahbari bo‘lgan Nikki Vendola unga rahbarlik qildi. Italiyaning ommaviy axborot vositalarining ta'kidlashicha, uning qadr-qimmati "yumshoq manzara fonida yashirin ovoz bilan harakat qilishidir".

O‘ng qanotda Berluskoni va Bossining ketishi sababli aniq bo‘shliq paydo bo‘ldi. Savoyyaning aristokrati, mashhur Ferrari kompaniyasi boshqaruv kengashi raisi Luca Cordero di Montezemolo bu yerda boshqaruvni o‘z qo‘liga olishga harakat qildi. Di Montezemolo o‘zining chiroyli ko‘rinishi va taniqli kishilar bilan yaqindan aloqada ekanligi bilan ajralib turard. Di Montezemolo "Italia Futura" siyosiy assotsiatsiyasini boshqaradi va bir so‘z bilan aytganda, partiyasiz bosh vazir Mario Montini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bosh texnologiya bo‘yicha mutaxassisi Mario Monti bir necha marta parlament saylovlaridan so‘ng ijro etuvchilardan chiqib ketishini ma'lum qildi. Biroq, 2012-yil 27-sentyabrda Monti kelgusidagi saylovlar demokratik ruhda bo‘lishidan umid qilgandi. Shunday bo‘lsa ham Italiyada partiyaviy tizimda ko‘plab o‘zgarishlar bo‘ldi. 2014-yilda Italiyada hukumat tepasiga M.Renzi boshchiligidagi partiya keldi. U nisbatan ancha demokratik kayfiyatdagi siyosatni yurita boshladi.

Xullas, Italiyada partiyaviy tizimda olib bori;gan islohotlar natijasisa siyosiy hayot ancha izga tushdi. Demokratik talablar ham tiklana bordi.

## 2.2.Konstitutsiyaviy islohotlar. Yangi saylov tizimining shakillanishi va rivojlanishi.

Italiyaning 1947-yilda qabul qilingan konstitutsiyasida hokimiyatni ajratish printsipi asosida oʻrnatilgan hukumat shaklida belgilanadi. Unga koʻra qonun chiqaruvchi hokimiyatning oliy organi deputatlar palatasi va Senatdan iborat ikki palatali parlament hisoblanadi.

Bu konstitutsiyaga koʻra parlament besh yil muddatga saylanadi, uning vakolat muddati uzaytirilishiga faqat urush davridagina yoʻl qoʻyiladi. Parlament faoliyatini cheklash ham konstitutsiyaga binoan amalga oshirilardi.

Italiyada deputatlar palatasiga 630 kishi saylanishi belgilab qoʻyilgan boʻlib,unga deputatlar universal saylovlar oʻtkazish orqali saylanardi. XX asrning 90-yillarning oʻrtasiga kelganda bu tizimda ham bir qancha oʻzgarishlar boʻldi[37].

Senatda-yuqori palata hisoblanib, unga saylovlar viloyatlarda oʻtkaziladi. Tanlangan senatorlar soni mintaqa aholisi bilan mutanosib tarzda belgilanardi. Har bir hudud senat tarkibida belgilangan tarzda senator saylardi. Shuningdek, Molise (ikki senator) va Valle d'Aosta (bitta senator) yuborish huquqiga ega edi. Shunday qilib, tanlangan senatorlar umumiy soni 315 nafarni tashkil etadi.[38]

Bundan tashqari, deputatlar va senator saylovi yosh chegarasi sifatida ham farq bor edi. Quyi palataga saylovlar oʻtkazish uchun faol va passiv saylov huquqi 18 va 25 yoshni tashkil qiladi. Senatga esa 25 va 40 yoshni tashkil etadi. Passiv saylov huquqini amalga oshirish uchun ushbu yosh chegarasi dunyodagi eng yuqori koʻrsatkichlardan biridir.

Italiyaning har bir sobiq prezidenti, qonunda belgilab qoʻyiganidek senat tarkibidan joy olardi. Agarda uning oʻzi inkor etmagan boʻlsa uning bu huquqi konstitutsiyada belgilab qoʻyilgan edi. Davlat rahbari vatanni ulug'lagan, jamoat faoliyatida, ilm-fan, san'at va adabiyot sohasida ulkan xizmatlari bilan, umrbod

---

[37] В.Е. Сафонов, Е.В. Миряшева. Конституционное право зарубежных стран. Особенная часть. - М.: Юрайт, 2013. – ст.226.

[38] Андреев С.С., Бабышев Л.С. Италия. - М: Академия, 2001. – ст. 243.

senator sifatida besh nafar fuqaroni tayinlashi mumkin bo‘lgan. 2000-yilda yuqori lavozimli jami 324 nafar senator, jumladan, to‘rt nafar sobiq prezident, davlat oldida xizmat qilish uchun tayinlandi[39].

Qonunga muvofiq deputatlar palatasi yoki senatning a'zosi bo‘lish mumkin edi. Imperativ mandat yo‘q. Parlament vakillari cheklangan immunitetga ega. Deputatlarning ko‘pchiligi - siyosiy partiyalar yoki jamoat birlashmalari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan professional siyosatchilar bolganlar. Parlamentga a'zolarni qattiq talab bilan qabul qiladi.

Har bir palataning konstitutsiyaga va boshqa normalarga mos keladigan o‘z nizomi mavjud bo‘lib, uning holati ham qoidalarga, qonunga mos kelishi lozim edi. Yilda ikki marta yani kuzda oktyabr oyida va fevralda katta yig‘ilish o‘tkazishi belgilangandi.

Konstitutsiyaga muvofiq qonunchilik faoliyati parlament komissiyasiga topshirildi. Ularni tashkil etishda partiya tamoyillari asosida tashkil etilgan parlament guruhlari muhim rol o‘ynaydi. Deputatlar palatasida har bir parlament guruhi har qanday komissiyaga teng miqdordagi deputatlarni tayinlashi kerak edi. Senat tarkibida parlament guruhi o‘z a'zolarini komissiyaga 12 nafar a'zo uchun 1 nafar senator miqdorida tayinlaydi. Senat a'zolarining soni komissiyalarga nisbatan kamroq bo‘lgan.

Komissiyalar turli funktsiyalarga ega, jumladan, nazorat, siyosat va boshqalar. Nizomda bir nechta komissiyalarning qo‘shma yig'ilishi, maxsus tergov komissiyalarini tuzish imkoniyati ko‘zda tutilgan.

Parlament va uning palatalari mas'ul qonunchilik, moliya-byudjet va tashkiliy-nazorat qilish vakolatlarini amalga oshiradilar. Hukumat avvalo qonun loyihasini taqdim etishga haqli bo‘lgan. Lekin, respublika prezidentining qarori bilan, rais yoki mas'ul vazir tomonidan qarama-qarshi qoidalar qo‘llaniladi.

[39] Италия (север и Центр) [Текст]: Путеводитель - 7-е изд. - М.: Авангард, 2007. - (Путеводитель «Пти Фюте»).ст. 131.

Qonunchilik tashabbusi huquqiga Parlamentning barcha a'zolari, shuningdek, parlament guruhlari va komissiyalar ham ega edi.

Inson qonunchiligining tashabbusi (Konstitutsiyaning 71-moddasi) instituti mavjud edi. Qonun loyihasi parlamentga "kamida 50 ming saylovchi nomidan nomzod" sifatida taqdim etilishi lozim bo‘lgan.

Mintaqaviy kengashlar,viloyatlarning vakillik organlari, shuningdek, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lib, faqatgina hududlarga taalluqli masalalar bo‘yicha qarorlar chiqarishi mumkin edi.

Qonun prezident tomonidan ma'qullangan sanadan boshlab bir oy mobaynida e'lon qilinishi lozim edi. Shundan so‘ng bu hujjat qonun kuchiga ega bo‘lardi.

Italiya qonunchiligining o‘ziga xos xususiyati qonunchilik vazifalarini hukumatga topshiradigan palatalar (Konstitutsiyaning 76-moddasi), bu hollarda bu qarorlarni qabul qilish tartibi konstitutsiya moddasiga mos tartibda qabul qilinardi.

Har ikki palata ham siyosiy qarashlar yoki tavsiyalar mavjud bo‘lgan qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Parlament ijro etuvchi hokimiyatning faoliyatini nazorat qilishda bunday shakllardan keng foydalanardi. Masalan, hukumatga ishonchsizlik va boshqalar kirardi. Palatalarning har biri jamoatchilik manfaatlari masalalari bo‘yicha maxsus tergov komissiyalarini tuzishi mumkin edi. 90-yillarda tuzilgan bunday tergov komissiyalari uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashga katta hissa qo‘shdi.

Italiya Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaviy maqomi: Uning konstitutsiyaviy mavqei Italiya davlatining parlament boshqaruv shakli bilan belgilanadi. Konstitutsiyada prezidentni saylash uchun bilvosita protsedura ko‘zda tutilgan. Unga ko‘ra prezident parlament tomonidan, hududiy kengashlar tomonidan saylangan mintaqalar vakillarining ishtirokidagi palatalarning qo‘shma majlisida saylanardi[40].

---

[40] В.Е. Сафонов, Е.В. Миряшева. Конституционное право зарубежных стран. Особенная часть. - М.: Юрайт, 2013. – ст.228.

Konstitutsiyaga ko‘ra 50 yoshga to‘lgan va fuqarolik va siyosiy huquqlarga ega bo‘lgan har qanday fuqaroning prezident bo‘lishi mumkinligi belgilab qo‘yigandi. Prezidentning vakolat muddati etti yil etib belgilangan. Konstitutsiyaga ko‘ra takroriy qayta saylanish mumkin. Konstitutsiyaga ko‘ra, prezident "davlat rahbari va milliy birlikni anglatadi" (87-modda). Majburiy marosim-vakillik vazifalarini va vakolatlarini amalga oshirish bilan bir qatorda, prezident katta vakolatlarga ega edi. Prezident Qurolli kuchlar qo‘mondoni, Mudofaa Oliy Kengashi va Magistratura Oliy Kengashi raisidir. Prezident vazifalarini bajara olmaganda uning o‘rniga bu vazifalarni bajarish Senat raisi tomonidan amalga oshiriladi.Prezident viloyatlar vakillik organlarini tarqatib yuborish huquqiga ega edi.

Hukumatning huquqiy maqomi. Hukumat davlat hokimiyatining eng yuqori ijroiya organidir.U Vazirlar Kengashi raisi (hukumat boshlig'i) va vazirlardan iboratdir. Rasmiy nom Vazirlar Kengashi deb nomlanadi. Italiya Prezidenti Vazirlar Kengashi Raisi va uning taklifiga binoan vazirlarni tayinlaydi. Davlat rahbari siyosiy kuchlarning uyg'unligini va parlament saylovlari natijalarini inobatga oladi. Italiya parlament respublikasidir, shuning uchun hukumat parlamentning ikkala palatasi: Deputatlar palatasi va Senatning ishonchini qozonishi kerakdir.

Vazirlar Kengashi tuzilgandan keyin 10 kundan kechiktirmay uning hukumat dasturi palatalariga taqdim etiladi. Italiyaning muhim xususiyati shundaki, yuqori palata hukumatning shakllanishida bevosita ishtirok etardi.

Vazirlar Kengashi konstitutsiyaviy va saylov masalalari, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish, byudjet tuzish va xarajatlar smetasi to‘g'risida farmonlar chiqarish huquqiga ega edi. Amalda qonunlar ko‘pincha jiddiy tashkiliy islohotlarni amalga oshirish uchun qo‘llanilgan. Vazirlar kengashi davlatda ko‘plab ishlarni amalga oshirish huquqiga ham ega edi.

XX asrning 90-yillaridan keyin Italiyada saylov tizizmini sloh qilish uchun boshlangan harakat nisbatan ancha muvaffaqiyatga erishdi. Hukumat tepasiga

kelgan siyosiy partiyalar o‘z dasturlarida belgilangan tartib bo‘yicha saylov qonuniga o‘zgartirish kiritishga harakat qila boshladi.

Italiyada senatorlar va deputatlar saylovi bo‘yicha yangi qoidalarini ishlab chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu sobiq saylov tizimini o‘zgartirish bo‘yicha referendum o‘z tashabbuskorlari De Mitoy va ISP boshchiligidagi demokratik so‘lchilar. 1991-yilda Konstitutsiyaviy sud uchta tavsiya etilgan referendumdan birini ya`ni, parlament quyi palatasidagi nomzod uchun imtiyozli ovoz berishni ma'qulladi. Parlament XI sesiyasida davlat tizimini isloh qilish bo‘yicha komissiya tuzish va belgilangan tartibda faoliyat yuritishi lozimligi belgilandi. Nihoyat,1993-yilning 18-aprelida saylovchilarning 90% i qatnashdi, shulardan 77%i yoqlab ovoz bergandi[41].

Asosan qisqa vaqt ichida deputatlari palatasining tartibga solish, jumladan saylovlar belgilangan tartib asosida bo‘lib o‘tish va uni boshqarish, yangi saylov qonun tayyorlash uchun mamlakat prezidenti Ciampi yangi Amato hukumatiga katta vakolatlar berdi. Bu hukmron doiralar ishonganidek, siyosiy rivojlanishning dolzarb ehtiyojlariga mos kelardi. Senat va deputatlari palatasiga tegishli bo‘lgan saylovda ikkita yangi qonun qabul qildi. 1993-yil aprel oyida hukumat referendum natijalariga ko‘ra bu qonunlarni rasman tasdiqladi. Bu qonunga binoan bir qancha o‘zgarishlar amalga oshirilishi lozim edi.

Deputatlar palatasiga saylovlar tizimi quyidagilardan iborat:1993-yilda avgust oyida qabul qilingan Italiya Respublikasi deputatlari, Senat va palatasiga saylovni boshqarish, ikkita yangi saylov qonunga ko‘ra tubdan o‘zgartirishi lozimligi belgilangandi. Ovoz berish mexanizmlari va deputatlar nominatsiya rejimida senati va deputatlik palatasiga saylanish tartibi o‘zgarishi belgilandi. Saylovda ishtirok etadigan nomzodlar uchun bani-varaqalari shakllantirildi. Turli elektoratini yagona a'zosi tumanlarida o‘rinlarni aniqlash tartibini, imkoniyatini shunigdek joylarda mavjud sinflar usullari, saylov chegaralarini ko‘rsatishi

---

[41] В.Е. Сафонов, Е.В. Миряшева. Конституционное право зарубежных стран. Особенная часть. - М.: Юрайт, 2013. – ст.229.

lozimligi belgilandi. 11-chaqiruv parlamenti 1993-yil dekabrda parlamentning 11-chaqir oyida parlamentning XI chaqiriqida saylovoldi tashviqotlarini oʻtkazishning yangi tartibini ham tasdiqladi. Bunda yana xarajatlarni, ommaviy axborot vositalaridan erkin foydalanish olish kabi muhim masalalar koʻrib chiqildi. Nomzod qancha miqdorda mablagʻ ishlatish huquqiga ega ekanligi ham belgilandi. Shuningdek qaysi hollarda nomzodlar davlat tomonidan sarflangan harajatlarni qaytarib toʻlash mumkinligi belgilab qoʻyildi. Ushbu muhim oʻzgarishlar 1994-yilda yanvar oyida parlament tarqatib yuborilishiga sabab boʻldi. 1994-yilning 27-28-mart kunlari yangi saylovlarini belgilash boʻyicha Italiya prezidenti Scalfaro tomonidan tasdiqlangan qaror qabul qilindi.

Saylov huquqi toʻgʻrisidagi qonunga 1993-yil 18-apreldagi referendumda ifodalangan xalq irodasiga boʻgʻliq ravishda bir qancha oʻzgartirish. Ochiq saylovoldi kurash boʻlishi qonunda belgilab qoʻyilgandi. Mamlakatdagi siyosatchilar yangi qonunlar va yangi qoidalar ustidan oʻz fikrlarini bildirish huquqlarga ham ega boʻldi. Italiya saylovchilarining saylovga boʻlgan munosabat oʻzgardi. Yangi qonunlar qabul qilish tashabbuskorlari - ular orasida demokratik qarash vakillari va DPLS - Shimoliy ligasi, "Forza Italia!", Milliy - partiyalar va harakatlarning ommaviy usullarini saylovlarda tez g'oliblikka erishishi maqulladilar. Biroq ovoz berish natijalari ular uchun ham, koʻpchilik professional kuzatuvchilar uchun ham juda kutilmagan edi.

1994-yil mart oyida oʻtkazilgan saylovlarda italiyaliklar 1993-yilgi saylov islohoti natijasida hosil boʻlgan yangi qoidalarni qoʻlladilar, ularning ta'sirini mustahkamlash uchun an'anaviy partiyalarning hisob-kitoblari mutlaqo asossiz edi.

Konstutitsiyaviy islohotlar taniqli siyosatchi Mateo Rensi Italiya bosh vaziri lavozimiga oʻtirgach qisqa muddat ichida davlatdagi qonunchilik sohasida katta oʻzgarish qilishga va`da beradi. Avvalo ishni Italiyani 100 kun ichida har tomonlama oʻzgartirishdan boshladi. Bundan tashqari davlatni yaqindagina YI tomonidan qabul qilingan bir qancha qarorlarni ham inobatga oldi. Italiya ming

kun vaqt davomida YI davlatlari ichida har tomonlama ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan modernizaatsiya qilish rejasi ishlab chiqildi.

Davlat hayotida birinchi o‘rinda siyosatni tartibga solish rejasi ishlab chiqildi. Ayni vaqtda siyosiy hayotda konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish ko‘ndalang bo‘lib turardi. M. Rensi qilmoqchi bo‘lgan islohotni dastlab parlamentning yuqori palatasi bo‘lgan senatning isloh qilishdan boshlashni o‘ziga maqsad qilib qo‘ydi. Senatning vakolatlarini qisqartirishularning siyosiy hayotga aralashishlarini cheklash maqsadida yangi qonun loyihasi ustida ish boshladi. Bundan tashqari davlat boshqaruvi tizimidagi federalizm elementlarini yo‘qotish to‘g‘risida ham qonun chiqardi.

2013-yil 4-dekabr kuni Italiyada Konistutitsiyaviy sud o‘z ishini boshladi. Bu yig‘ilishdan maqsad davlat siyosiy hayotiga aloqador bo‘lgan bir qancha qonun loyihalarini ko‘rib chiqishni maqsad qilib qo‘ygandi. Shu kungacha amalda bo‘lib kelayotgan saylov to‘g‘risidagi qonunni hozirgi kundagi siyosiy hayotga to‘g‘ri kelmaydi deb topdi. 2005-yilda qabul qilingan N 270 sonli saylov tizimiga oid qonunni qaytadan ko‘rib chiqib uni hozirgi siyosiy tizimga moslab qayta ishlab chiqishni tavsiya qildi. M. Rensi qabul qilinishi lozim bo‘lgan saylov to‘g‘risidagi qonun Italiyadagi demokratik tizimga har tomonlama mos tushushi lozimligini takidladi. Agarda yangi saylov to‘g‘risidagi qonun demokratik ruhda bo‘lsa u davlatning har tomonlama rivojlanishiga turtki bo‘ladi deydi. Bu qonunni ishlab chiqish jarayonida undan oldingi saylov to‘g‘risidagi qonundan faqat kerakli joylari olingan va natijada bu qonun davlat taraqqiyoti uchun zamin bo‘lishi lozim edi.

Italiyada saylov tizimiga oid qonun ancha oldin qabul qilingandi. Ikkinchi jahon urushidan oldingi vaqtdagi ya`ni 1923-yilda Achibero qonuniga ko‘ra saylov bo‘lardi. Bu qonunga ko‘ra partiyalar saylovda umumiy ovozning 25 % idan ko‘prog‘ini olsa o‘z navbatida parlamentdagi deputatlarning 2/3 qismini egallagan

bo‘lardi[42]. Bunday saylov tizimi davlatdagi siyosiy vaziyatga salbiy ta`sir o‘tkazardi. Shu sababdan mamlakatdagi siyosiy vaziyatni ijobiy tomonga qarab o‘zgartirish maqsadida partiyalar o‘rtasidagi qonuniy raqobatni jonlantirish uchun ko‘ppartiyaviylik tizimga alohida ahamiyat berish lozimligi bu yangi qonun loyihasida e`tiborga olingandi.

Parlamentga saylangan partiya yakka partiyaviy tizimga ega bo‘lsa davlat boshqaruvida turli xil noroziliklar va tushunmovchiliklar keltirib chiqarardi. Bitta partiya hukumatni boshqarishning afzal tomoni qilayotgan ishda samara bo‘lardi. Hukumat boshqaruvida esa o‘z navbatida barqarorlik ancha mustahkam bo‘lardi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Italiya siyosiy hayotida hukumat shakillantirilishida ko‘ppartiyaviylik ustunlik qilardi. Bunga ko‘ra hukumat hukumatning shakliilantirilishida bir necha partiyalar o‘zaro ittifoqqa kirgan holda yoki saylovlarda boshqa partiyalarga nisbatan ko‘proq olgan partiyanong partiya yoki partiyalar ittifoqi bilan hamkorlikda o‘z faoliyatini olib borardi.

Italiyada 10 yil davomida qonunchilik sohasini isloh qilish masalasida bir qancha bahsli munozaralar bo‘lib o‘tdi. 1991-1993-yillardagi saylov tizimiga oid bo‘lgan qonunchilik masalasida butun mamlakat bo‘ylab referendum bo‘lib o‘tdi. Bunda saylov tizimida hududlardan saylanayotgan deputatlar proportsionallik asosida saylanish kerak edi. 1993-yilda qabul qilingan saylov tizimiga oid qonun 2005-yil oxirida amalda qo‘llanila boshlandi. Bu masala deputatlar va senat palatalariga qonun loyihasini C. Mattarell tomonida taqdim qildi. Yangi qonunga muvofiq endilikda saylovlarning birinchi turida umumiy berilgan saylovchilarning 75 % dan ortiq ovozni olgan partiya qolgan partiyalar esa 25 % ovozga ega bo‘lishadi. 1994-yilgi saylovda Berluskoni partiyasi kaolitsiyaga kirib parlamentdagi o‘rinlarning 70 % ni egalladi[43].

---

[42] Г.Н. Комкова, Е.В. Колесников, О.В. Афанасьева. Конституционное право зарубежных стран. - М.: Юрайт, 2012. – ст.332.

[43] Италия (север и Центр) [Текст]: Путеводитель - 7-е изд. - М.: Авангард, 2007. - (Путеводитель «Пти Фюте»).ст. 132.

2005-yilda yaqindagina bo‘lib o‘tgan parlament saylovlarida g‘olib chiqqan S. Berluskoni boshchiligidagi kaolitsion ittifoq siyosiy tizimga yangilik kiritishga harakat qildi. U yangi saylov to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishga kirishdi. Bu qonun 2005-yil 21-dekabrda 270-soni ostida qabul qilindi[44]. Bu qonunga qaraganda saylov tizimidagi bir qancha o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu qonunga ko‘ra parlamentga saylanayotgan partiya saylovlarda 75 % ovoz to‘plagan holda parlamentda katta o‘rniga ega bo‘lardi. Endilikda davlat miqyosida bo‘lib o‘tgan saylovlarda ko‘p ovoz olgan partiya yoki partiyalar ittifoqi o‘z navbatida parlamentning quyi palatasidagi deputatlar sonining 55 % qismiga egalik qilishardi. Bundan tashqari boshqa partiyalarga ham bir qator imkoniyatlar berildi: kaolitsiyalar uchun 10 %, kaolitsiya tarkibida bo‘lgan uchun 2 %, mustaqil partiyalar uchun esa 4 % miqdorda parlament deputatligiga saylanish mumkin edi.

Senatning katta qismi Italiyaning turli hududlaridan saylanishi belgilab qo‘yildi. Mamlakatning har bir hududidan qancha miqdorda senator saylanishi uning hududi aholisi soniga qarab belgilangandi. Saylovlarda kaolitsiya ko‘proq ovoz olsa parlamentda berilgan 55 % miqdoridagi deputatlardan ham ko‘proq o‘ringa egalik qilardi. Senatorlarning katta qismi hududiy okruglardan saylanardi, ularning ko‘p qismi kaolitsiya va kamroq qismi partiyalar hissasiga to‘g‘ri kelardi. Senatorlarning bir qancha qismoni Italiya prezidenti tomonidan mamlakat miqyosida fan sohasida, manaviyat, adabiyot va ijtimoiy sohalarda yaxshi natijalarni ko‘rsatgan shaxslarni ushbu lavozimga tayinlardi.

Saylov to‘g‘risidagi bu qonun 2005-yilning o‘zidayoq siyosatchilar tomonidan bir qancha qarshiliklarga uchradi. “Shimoliy Liga” partiyasining yetakchisi bo‘lgan R. Karderoli bu qonun loyihasini “ razillik” deb atadi va uni qabul qilishga qarshi ekanligini yashirib o‘tirmadi, taniqli siyosatchilardan biri bo‘lgan D. Sartori bu qonun loyihasini “ Porcellum” deya tarifladi. Bu qonunni Achebero qonuni bilan taqqoslab ko‘rdi.  Sakkiz yil vaqt o‘tgandan keyin Italiya konstitutsiyaviy sudi saylov to‘grisidagi bu qonunni qaytadan tekshirib uni

[44] Любин В. Италия перед вызовами XXI столетия. - АСТ, 2008. –ст.123.

konstitutsiyaviy tartibga loyiqligiga shubxa bilan qaray boshladi. Bu qonun loyihasini qaytadan koʻrib chiqishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻydi.

Konstitutsiyaviy sudga B. Grillo boshliq " besh yulduz harakati" deb nom olgan harakat oʻz norozilik hujjatini topshirdi[45]. Unga koʻra 148 kishi oʻz noroziliklarini bildirgan edi. Unda parlamentning deputatlar palatsida saylanadigan prizident saylovida ham noqonuniylik holatlari qayd etilganligiham inobatga olingan edi. Bundan tashqari saylov tizimida bir qancha oʻzgarishlarni amaga oshirish , misol sifatida saylovchilarni ovoz berish uchun belgilangan yoshini ham qayta koʻrib chiqishni talab qila boshladi. Demokratik partiya vakili boʻlgan Djaketti ham saylov tizimiga oid oʻzining siyosiy qarashlarini bildirib oʻtdi.

Bu vaqtda mamalakat prezidenti boʻlib turgan Djordjo Napalitano parlamentning boshqaruv tizimiga aralashish haqida oʻz fikrlarini bildirib oʻtdi. U parlament prezidentni saylashni qoralab oʻtdi va bu tizimni demokratlashtirish maqsadida yangi qonun loyihasini ishlab chiqish zarurligini takidladi.

M. Rensi ichki siyosatda birdaniga keskin oʻzgarish qilishga harakat qilib, mamlakatda prezident vazifalarini ham bosh vazir tarafdori sifatida maydonga chiqdi. Natijada mamlakat prezidenti boʻlgan Napalitanoga qarshi fikrlar bildira boshlandi va kinoya bilan " qirol Djordjo" deya soʻzlarni aytdi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatni izga solish maqsadida navbatdagi parlament saylovi boʻladigan 2018-yilgacha saylov tizimiga tegishli boʻlgan qonuni koʻrib chiqish lozim edi. Agarda Rensi boshchiligidagi guruh buni uddasidan chiqa olsa, uni siyosiy kuch har tomonlama qoʻllardi va qaytadan saylanish imkoniyatiga ega boʻlardi.

M. Rensi boshliq hukumat yangi saylov tizimga oid qonunni 2014-yilning oxirida yana parlament deputatalari palatasiga havola etdi. Bu qonun loyihasi 2014-yilning 20-dekabr kuni parlament senatiga taqdim qilindi. Bu vaqtda senat rajdestvo tatiliga chiqib ketganligi sababli bu qonun loyihasi ustida muzokoralarni

[45] Италия (север и Центр) [Текст]: Путеводитель - 7-е изд. - М.: Авангард, 2007. - (Путеводитель «Пти Фюте»).ст. 129.

2015-yilning 7-yanvar kuniga qoldirishni e`lon qildi. M.Rensi tomonidan ishlab chiqilgan saylov tizimiga oid bu qonun “ Italikum “ nomini oldi.

Yangi saylov to‘g‘risidagi qonunning xarakterli tomoni shundan iborat ediki, agarda saylov hududlarida birorta nomzod ko‘proq ovoz ola bilmasa, bu hududlarda ikkinchi turda yana qaytadan saylov bo‘lib o‘tishi belgilandi. Bu qonunda Rensi bir qancha yangiliklarni ham kiritishga harakat qilgandi.

Bu qonunga ko‘ra birinchi o‘rinda parlamentga saylanishda hududning ishlab chiqarish darajasi e`tiborga olinishi lozim edi. Trentmo, Altaro-Adjigje va Valle-g‘Aocta hududlarining saylov tizimidagi o‘rniga o‘zgartirish kiritish lozimligi belgilandi. Bu shimoliy viloyatlar parlamentda 9 o‘ringa ega edilar. Ya`ni Terentin, Altaro-Adjigjiga 8 ta va Valle-g‘ Aoctoga esa 1 o‘rin berilgandi. Yangi qonun loyihasida bu o‘rinlar umumiy soni 8 ta o‘ringa qisqartirildi. Bu qonunni porcellumga tenglashtirib unda parlamentga kirish tartibi o‘ziga xos qilib belgilandi. Bunga ko‘ra 4,5 % ni partiyalar ittifoqiga, 3 % ni ittifoqqa kirmagan partiyalarga, 12 % ni kaolitsiyalarga berildi. Bundan tashqari asosiy ahamiyat saylov hududlariga qaratildi ularga 20 % miqdorda saylovchini saylash mumkin edi[46].

Bu qonun loyihasida Shimoliy Ligaga berilayotgan imtiyozlar bekor qilindi. Shimoliy Liga partiyasi parlament saylovlarida uchta viloyatda 9 % ovoz to‘pladi va parlamentda juda kam miqdordago o‘ringa ega bo‘ldi.

Bu qonunga ko‘ra endilikda saylovlarda saylanish tartibi birozgina o‘zgardi. Saylovlarda kaolitsiya yoki partiya 40 % ovoz to‘plasa, unga parlamentda 15 % o‘rin berilardi. Bu qonunga ko‘ra saylovlarda g‘alaba qozongan partiyalarga parlamentning 617 o‘rnidan 340 tasi berilardi, yoki bo‘lmasa 55 % qismini egallagan bo‘lardi. Buning natijasida bu palata deputlari bir qancha imkoniyatlarga ega bo‘lardi.

---

[46] Г.Н. Комкова, Е.В. Колесников, О.В. Афанасьева. Конституционное право зарубежных стран. - М.: Юрайт, 2012. – ст.335.

Bu yangi qonun bo‘yicha saylovlarda partiya yoki kaolitsiya 40 % dan kam ovoz olgan holda ikkinchi tur o‘tkazilishi belgilandi. Bu saylovlarda endi ikkita partiya qatanshishi mumkin edi. Birinchi turda ko‘proq ovoz olganlar o‘z navbatida parlamentga qanul qilinadi.

Bundan tashqari saylov uchastkalarining soni ko‘paytirilib ularning imkoniyatlari oshirilishiga alohida e`tibor qaratildi. 27 ta saylov okruglari o‘rniga endilikda 100 ta saylov okruglarini tuzish belgilandi. Har bir uchastka uchun taxminan 600 ming saylovchi biriktirildi. Ularning har birida eng ko‘pi bilan 6 ta nomzod ko‘rsatilishi ega bo‘ldi. Saylov tizimiga aloqador bo‘lgan dastlabki qonun loyihasida saylov varaqalarini taqiqlandi, nomzodlar blyutenlarda ko‘rsatilgan tartibda saylanardi. Yashirin ovoz berish tizimi Italiya konstitutsion sudi tomonidan rad etildi.

Bundan tashqari kelajakda har bir ro‘yxat bo‘yicha eng yuqori nomzodlarining kamida 40 % ni ayollar tashkil qilishi lozim edi. Ular o‘ndan ziyod saylov okruglarida birinchi nomzod sifatida qo‘yilishi ham belgilangan edi.

Yangi saylov qonunchiligi bilan bog‘liq ravishda faol tarizda muhokama qilinib kelinmoqda edi. Shuncha muhokamalardan keyin oxirgi so‘zda har ikkala jins vakillari ham ham teng darajada parlamentga saylanish huquqiga ega ekanligi aytildi. Bundan tashqari saylovchilar ro‘yxatdan nozodlar o‘zlarining jinsiga ko‘ra muqobil bo‘lishi va er xotinlarining ikki martadan ortiqroq takrorlanishi mumkin emas edi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilar aksincha ikkita nomzodga ovoz berishga to‘g‘ri keladi. Bular M. Rensining hukumati tomonidan hosil qilinilishi takilf etilgan saylov qonununing asosiy qoidalari edi. Yuqorida aytib o‘tilganidek saylov qonunchiligining isloh qilish keng miqyosli konstitutsiyaviy islohotlarning bir qismidir. Bu Italiya konistitutsiyasining isloh qilinishi uchun dastlabki urunishi sifatida qaraladi. Bundan oldin 1983-yilda A. Botsi boshchiligida, 1992-yilda Ch. De Mita boshchiligida, Shuningdek 1997-yilda M. d`Alem boshchiligida maxsus parlament komissiyalari tashkil etilgan edi.

Italiyaning qonunchiligidagi o‘zgarishlar birinchi navbatda katta partiyalar va kaolitsiyalar uchun foydalidir. Chunki parlamentda mutloqa ko‘pchilik ovozni olgan siyosiy partiya davlatdagi siyosiy tizimni nazorat qilish va uning barqarorligini taminlashga o‘z hissasini qo‘shish uchun yashil nurni olgan bo‘lardi. Oxir oqibatda bu zamonaviy Italiya tizimiga o‘xshash siyosiy kuchlarning parchalanishini kamaytirishga yoradam beruvchi ikki tomonlama tizimni shakillanishiga olib kelardi. Natijada kichik partiyalar va fraksiyalar siyosiy maydonni tark etishga yoki kaolitsiyalrdan biriga qo‘shilishga majbur bo‘lardi.

Beppe Grillo va “ besh yulduz harakati” Italiya siyosatining yangilashga harakat qilib ko‘rdi. Bu partiya Germaniyadagi ayrim partiyalar bilan o‘xshash bo‘lsada, davlatning siyosiy jihatdan tartibga solish uchun o‘z dasturini ishlab chiqdi. Bu partiya milliy darajadagi siyosiy tuzilmalarda muhim rol o‘ynashdan ko‘ra, o‘z pozitsiyasini mustahkam ushlab turish va vaziyatga mos ravishda harakat qilishni afzal ko‘rardi. 2013-yilgi parlament saylovlarida B. Grilloning olib borgan say-harakatlari bilan bu partiya parlament saylovlarida 25,6 % ovoz to‘plab ijtimoiy sohada o‘zini namoyish qildi. Ammo “ Grillini” harakati tez suratlarda rivojlanib borayotganligini ko‘rishgan italiayalik mutaxasislar o‘ziga xos fikrlarni olg‘a sura boshladi. Ayrimlarining fikriga qaraganda bu harakat davlatdagi siyosiy tanglikni ijobiy hal qilishga qodir degan qarashlar ham paydo bo‘la boshladi.

2007-yil 8-sentyabr kuni “qizil” Baloniya markaziy maydonida uning tashabusi bilan to‘plangan kishilar “ shafqatsiz italiyalik siyosatchilarga qarshi o‘z fikrlarini ayta oldi. Bu mitingda ko‘plab kishilar qatnashdi va unda davlat boshqaruvida mafiya bilan aloqador bo‘lgan siyosatchilarni keskin jazolashni talab qila boshladi. Bu mitingda to‘planganlar soni 50 ming kishiga yetgandi. Bu miting davlatdagi norozilik mitinglarning debochasi edi. Italiyaning 180 ta shahar va shaharchalarida taxminan 300 mindan ortiq kishi qatnashgan mitinglar bo‘lib o‘tdi. Bu kabi olomon mitinglarini B. Grill ova uning tarafdorlari doimiy ravishda Italiya shaharlarining markaziy maydonlarida, jumladan o‘n ming odamlar Rimda to‘planib o‘z fikrlarini o‘tkazishga harakat qildi.

Siyosiy kuzatuvchilar bunday ntijadan hayron qolmadi. Grillini hali ham siyosiy tizimga o‘ziga xos o‘zgartirish kiritishga harakat qilmoqda edi. Ular sayovoldi kompaniyasida “ jinoyatchi” sifatida tanilganlar tomonidan o‘tkazilgan siyosiy o‘yinlar bilan shug‘ullanmaslik uchun kaolitsiyalarga hech kim bilan qo‘shilmaydi. Huddi shu munosabat kaolitsiyani isloh qilish, senatning ro‘lini o‘zgartirish va boshqa bir qancha talablarni ilgari surdi.

XX asr oxirida davlatda korrupsiyaga qarshi harakat ancha kuchaydi. Kassiga Italiyaning 8-prizidenti bo‘lgaida u ham korrupsiyaga qashi o‘zfikrlarini bildirib o‘tdi. Bu vaqtda mamlakat bosh vaziri D. Andereotti bo‘lib 1991-yilda IKP dab o‘linish yuz berdi. Demokratik partiya va komunistik islohotlar asta-sekin shakillana bordi. Bu davrda Italiya ichki siyosatida 1991-1993-yillarda saylov tizimini isloh qilish davri bo‘ldi. Partiyalar ro‘yxatida (ananaviy) ovoz berish yo‘li bilan proportsional tizim bo‘yicha deputatlarning faqat ¼ qismi saylanardi; qolganlari esa ko‘pchilik tizimida saylanardi.

Amanto hukumati korrupsiyaga qarshi ishlarni hukumat nazoratidagi militsiyaga topshirish to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi. Aholining ommoviy norozilgi uchun bu qonun loyihasi prezident tomonidan imzolanmadi. Bu vaqtda davlat iqtisodiy holatida liraning ikki marta devalvatsiyasi amalga oshirildi. Davlat budjet kamomatining qisqartirilishiga va Yevropa pul tizimida Italiyaning obro‘sini tushub ketishiga sabab bo‘ldi. 1992-yil siyosiy inqiroz; Milanning qariyalari uchun mo‘ljallangan yetimxonasi atrofida janjal bilan bog‘liq bo‘lib davlatdagi siyosiy vaziyatni yanada tang ahvolga olib kelib qo‘ydi. Bu voqea mamlakatdagi barcha hukumron partiyalarga salbiy ta`sir o‘tkazdi.

Saylov tizimining kontseptsiyasi hukumat instituti, parlament instituti, prezidenti instituti, saylov huquqi muassasasi, shu jumladan, inson huquqlari va erkinliklari konstitutsiyada belgilb qo‘yilgan huquqlarga ega edi.

"Saylov huquqi" kontseptsiyasi bilan bir qatorda odatda «saylov tizimi» atamasi qo‘llaniladi. Saylov tizimida keng ma'noda saylov huquqi me'yorlarini amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tizimini tushunishdir. "Saylov

tizimi" - bu ba'zi bir tarzda normalari yoki tartibga solinadigan va bo‘sh normalari va an'analari dan farqli bo‘lishi mumkin, ijtimoiy munosabatlarni normalari bilan bir qatorda ovoz berish huquqi  insoning qonunda belgilab qo‘yilgan eng katta vakolatdir.

"Saylov tizimi" tushunchasi ham tor ma'noda qo‘llaniladi. Bunga ko‘ra nomzodlarni ro‘yxatga olish va qonunga kiritilgan ovozlarni hisoblash tizimi ham saylovlarni tashkil etishning o‘ziga xos usulidir. Eng keng tarqalgan ikkita saylov tizimi mavjud: ko‘pchilik va proportsional tizimidir. Yuqorida sanab o‘tilgan ikkala turlar qo‘llanilganida ham aralashtirilgan saylov tizimi mavjud .

Proportsional tizim - partiya ro‘yxatlarida ovoz berishdir. Proportsional tizimning afzalliklari ko‘pchilik tizimining kamchiliklarini takrorlamasigidadir. Proportsional tuzilma, shuningdek, ovoz berishning kichik foizini olgan partiyalar tomonidan parlamentga o‘z vakili kiritish huquqiga ega bolardi[47]. Turli partiyalar vakili bo‘linadigan, lekin turli hajmdagi parlamentlar mamlakatdagi kuchlarni taqsimlashni aks ettiradi. Natijalarni aniqlashda ushbu tizim ko‘pchilik tizimiga nisbatan ancha murakkabdir.

Produktiv tizimda ovozlarni sanashda bir qanchakamchiliklar bor. Shuning uchun ko‘plab mamlakatlarda ushbu tizimdan foydalanish asta-sekin kam ko‘zga tashlanmoqda.

1993-yilda parlamentning ikkala palatasiga bo‘ladigan saylov tartibi, shuningdek 15 ming aholiga ega bo‘lgan shahar kengashlarini tuzishda saylov tizimi tubdan o‘zgartirildi; Ikkinchidan, 5 mingga yaqin aholisiga ega bo‘lgan kichik kommunalar ham belgilangan tartibda saylovlarda ishtirok etishi belgilb qo‘yilgandi.

[47] Тагепера Р., Шугарт М. Описание избирательных систем. -- Голосов Г.В., Глакина Л.А. (ред.) Современная сравнительная политология. М., 1997. Ст.40.

Parlament palatalarini saylash tartibi o‘zgarishi (1993-yil 4-avgustdagi ikkita qonun) siyosiy sabablarga asoslandi[48]. Bu organlar siyosiy partiyalarga o‘rinlar ning katta qismini  olish huquqini ham berardi. Senat saylovi uchun teng tizim qo‘llanila boshlandi. Multfraktsiyalash mamlakatda mavjud ko‘p partiyaviylik tizimining aks-sadosi edi. Mavjud saylov tizimlarining natijasi kaolitsiya hukumatlarining shakllanishi bo‘lib, ular ko‘pincha davlat hayotining turli muammolarida umumiy tilni topa olmagan 4-6 partiya vakillaridan iborat edi. Buning natijasida mamlakatda doimiy siyosiy beqarorlik, xususiy sektorda bo‘layotgan inqirozlarga sabab bo‘lmoqda edi. Saylov tizimini isloh qilish hozirgi vaziyatni o‘zgartirishi va kichik partiyalarning parlament tarkibiga ta'sirini butunlay chiqarib tashlashi kerakligi kun tartibida turardi. Yangi saylov qonunchiligini qabul qilishining sababi 1993-yil 18-19-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan referendum natijalari bo‘lib, ularda saylovchilarning 74% ovoz berishda ishtirok etgan; 82.7% ishtirokchibu qonunni yoqlab ovoz bergan, 17,3% qarshi ovoz, bo‘sh byulletenlar 3,3% ini ovoz saylovchilar, yaroqsiz ovoz - 1,9%ni tashkil qilgan.

Deputatlar palatasini tashkil etishda islohot o‘tkazilgach, mamlakat 27 ta saylov okrugiga bo‘lingan; Senat mintaqalar, tumanlar miqyosida saylanadi, shuning uchun yuqori palatani tashkil etish 20 ta teng saylov uchastkalari viloyatlar chegaralariga to‘g'ri keladi. Viloyatlardan deputatlarini saylashda Piemont, Lombardiya, Venetsiya, Lazio va Sitsiliya ikki yoki uch saylov okrugiga bo‘lingan. Bu tumanlarda, ko‘p tizim bilan birgalikda deputatlar o‘rinlari soni ham ancha ko‘pchilikni tashkil qilardi. Bular ham proportsional tizimiga mos ravishda senat sayovlarida ishtirok etardi[49]. Deputatlar palatasiga proporsional tizimda joy ajratilganda tabiiy kvotalash usuli qo‘llaniladi, ya'ni T.Karning kvotasi eng katta qoldiq qoidasi bilan belgilandi. Deputatlarni joylashtirishda ishtirok etish uchun nomzodlar ro‘yxatdagi ovozlarning kamida 4 foizini yig'ishlari kerak.

---

[48] Италия (север и Центр) [Текст]: Путеводитель - 7-е изд. - М.: Авангард, 2007. - (Путеводитель «Пти Фюте»)ст. 134.

[49] Тагепера Р., Шугарт М. Описание избирательных систем. -- Голосов Г.В., Глакина Л.А. (ред.) Современная сравнительная политология. М., 1997. Ст.41.

Deputatlarni saylashda har bir saylovchi ikkita saylov byulleteniga - birining ko‘pchilik tizimiga nomzodning ovoz berishiga, ikkinchisi - partiyalar ro‘yxatiga ovoz berishga beriladi. Senatorlarni saylashda saylovchilarga bir ovoz berildi. Senatorlarning har bir deputatlikka nomzodlar ro‘yxati yoki ro‘yxat bloklari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak (5 maksimum) edi. Nomzod bitta mandatli saylov okrugida vakillik qilishi mumkin, lekin bir vaqtning o‘zida bir yoki bir nechta okrug bo‘yicha har qanday ro‘yxatga kiritilishi mumkin emasdi. Biroq, kichik siyosiy partiyalarga ko‘p saylov tizimining harakat qilish maxsus afzalliklarni bermasdi. Buni oldini olish maqsadida bir qoida joriy etildi, unga ko‘ra  har qanday bir mandatga ega bo‘lgan  tumanida nomzod etib saylandi yoki bir nechta mandatlarga ega bo‘lgan tumanlardan saylangan senatorlarni bir biridan ajratmasliklarini taminlash lozim edi. Bir mandatli tumanida nomzod kamida 500 imzoga ega bo‘lishi va tuman qismidir komun ro‘yxati ham bo‘lishi lozim edi. Senatorlar uchun yagona mandatdagi nomzodlarni ko‘rsatish uchun yana bir qancha talablar bor edi.

Hududiy kengashlarni saylash tartibi isloh qilinmadi. Kengashlar prokuratura tizimiga binoan tuman (tumanlar bilan bir xil) bilan tanlanadi. Joylar provintsiyalar o‘rtasida proportsional tizim bo‘yicha taqsimlanadi, unda viloyat aholisiga qarab eng katta muvozanat hukmronligi bilan belgilanadi. Hududiy kengashlarga deputatlar saylash uchun saylov kvotasi tegishli ovozlarning umumiy sonini bir-biriga oshirilishi kerak bo‘lgan joylarning soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Keyin har bir ro‘yxat bo‘yicha olingan ovozlar hisoblangan kvotalarga bo‘linadi. Tumanlardagi taqsimlanmagan o‘rinlar viloyat ichida eng yirik qoldiq qoidalari bo‘yicha proportsional tizimga o‘tkaziladi. Saylovchilar imtiyozli ovoz berish huquqiga ega. Hududlarda maslahatchilar soni aholi asosida ushbu mintaqaning saylov qonunchiligi bilan belgilanadi: aholisi 6 milliondan ortiq bo‘lgan hududlar bo‘yicha 80 nafar, 60 dan 4 milliondan 6 milliongacha, 40 dan 1 milliondan 3 milliongacha, bir million aholiga ega hududlar uchun ham

belgilangan tartibda saylanardi. Italiyaning hududiy kengashlariga saylovlar o‘tkazilish tartibi ham islohot davrida o‘zgardi.

Viloyat kengashlari birinchi navbatda tumanlarda bir mandatli ko‘pchilik tizimi bo‘yicha keyin viloyatdagi proportsional tizim orqali saylanadi. Nomzodda kvotani belgilashda, viloyatda partiyalar ro‘yxatlari orasidagi o‘rinlarni ajratishda "2" raqami qo‘llaniladi, qolgan joylar eng katta qoldiq qoidalariga binoan taqsimlanadi.

Kommunal kengashlar kommuna  aholisining soniga qarab farq qiladi. 15 ming yoki undan kam aholiga ega bo‘lgan kommunalar ichida keng tarqalish imkoniyati bilan ko‘pchilik tizim ishlatiladi. 15 mingdan ziyod aholiga ega bo‘lgan kommunallarda o‘rinlar d'Hondt qoidasini qo‘llash bilan mutanosib tizimga muvofiq taqsimlanadi.

1993-yilda respublikaning yirik shaharlari (Milan, Turin, Palermo, Rim, Neapol, Venetsiya, Trieste, Kataniya, Genoa) shaharlarning asosiy shaharlari kengashlarining saylovlarida saylov tizimi o‘zgargan holda bo‘lib o‘tdi.  Ushbu shaharlarning  ko‘pchilikida proportsional tizim qo‘llanila boshlandi va shahar hokimlarining to‘g'ridan-to‘g'ri saylovlari joriy etildi.

Saylovlardan tashqari, referendumda italiyalik saylovchilar saylov qutilariga ham alohida e`tibor qaratishgan. Italiya - urushdan keyingi davrda o‘tkazilgan referendumlarning soni bo‘yicha Shveytsariyada keying ikkinchi o‘rinda turgan Yevropa mamlakati . 1947-yilgi Konstitutsiyada milliy va mahalliy miqyosda juda ko‘p sonli referendum o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Konstitutsiya odamlarning tashabbus huquqini belgilaydi (71-moddaning 2-bandi), bu xalq ovoziga ega bo‘lmagan, ammo parlament tomonidan ko‘rib chiqiladi. Eng kamida 50 ming imzo varaqasi bo‘lgan qonun loyihasi parlamentda ko‘rib chiqiqladi va u imzolarni tekshiradi va hisobga oladi, ularning qonuniyligini o‘rnatadi. Qonun loyihasi ma'ruza maqolasi shaklida va tushuntirish xati bilan taqdim etiladi. Faqat konstitutsiyaviy me'yorni qo‘llashni ta'minlaydigan referendum va insonlarning tashabbusi to‘g'risidagi qonun qabul qilinganidan

so‘nggina (1987 yilga qadar faqatgina 30 ta tashabbus joriy etildi) ulardan faqat bir nechtasi parlament muhokamasiga qabul qilinardi.

Davlatning hududiy chegaralari o‘zgargan taqdirda referendum mamlakatning asosiy qonunlari (132 va 133-moddalar) bilan ta'minlanadi. Bu manfaatdor aholining kamida uchdan bir qismini ifodalovchi shahar kengashlari tavsiyasiga ko‘ra ko‘rib chiqilar va hal etilardi.  Xuddi shu ovoz berish yo‘li bilan viloyatlar va jamoalar bir mintaqadan ajralib, boshqasiga qo‘shilganda amalga oshiriladi. Mintaqada referendum yo‘li bilan yangi komuniyalar shakllanishi mumkin, ularning chegaralari va nomlari o‘zgarishi mumkin edi.

Asosiy qonunning 138-moddasi asosida konstitutsiyaviy referendum o‘tkazish ehtimoli haqida so‘z yuritildi.

Konstitutsiyaning 75-moddasida nazarda tutilgan bandda  qonunga nisbatan xalqning vetosi qay tartibda bo‘lishi aytilgandi. Konstitutsiyaning 75-moddasi asosida o‘tkazilgan referendum milliy darajadagi ovoz berishning yagona shakli edi. 1974, 1978, 1981, 1985-yillarda referendumning bir necha "to‘lqini" (xalq vetosi) mavjudligiva hokazo. Yigirmadan ortiq qonunlarga nisbatan bunday veto huquqini xalq qo‘llagan edi. Har bir "to‘lqin" odatda qoida tariqasida bir nechta qonunlarni bekor qilish to‘g'risida ovoz berishni o‘z ichiga olgan.

Mamlakat miqyosidagi ovozlarning katta qismiga qaramay, Italiyada referendum o‘tkazish juda cheklangan. Shunday qilib, u avvalgi parlament palatalarining birida vakolat muddati tugashiga yilda milliy veto shaklida referendum o‘tkazishga so‘rov taqdim qilinar va ruxsat olinardi.  Ushbu qoidalar va bunday ovoz berishning ba'zi boshqa talablarini inobatga olgan holda ular har yili 1 yanvardan 30 sentyabrgacha topshirilishi mumkin. Referendum avtomatik kechiktirilishi ham mumkin edi. Bunday vaziyatda 365 kundan keyin yana o‘tkazilishi mumkin edi. Referendum Respublika prezidenti farmoni bilan parlament palatalari talabi bilan kechiktirilishi mumkin edi.

Konstitutsiyaning 123-moddasiga binoan har bir viloyat o‘z qonunchiligida viloyatning qonunlari va ma'muriy tuzilmalariga referendum o‘tkazish tartibini

belgilash huquqiga ega bo‘lgan. Nizomda Sitsiliya viloyati bundan mustasnodir. Mintaqadagi referendum ikki xil: maslahatchi va mashhur vetoning shaklidir. Misol uchun, Latsio viloyatida 50 kishining ming iltimosiga mintaqaviy qonunchilik to‘liq yoki qisman bekor qilish to‘g'risidagi qaror qabul qilish uchun yetarli deb hisoblangan. Soliq masalalari va byudjetni qabul qilish uchun referendum o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi. Boshqa sohalarda milliy vetos shaklida ovoz berishni o‘tkazish uchun boshqa malaka talablari belgilandi. Misol uchun, Basilicata hududida 8,000 imzo talab qilinadi.

Saylovlarda faol ovoz berish konstitutsiyasiga ko‘ra to‘g'ri, jinsidan qat`iy nazar barcha Italiya fuqarolari tomonidan balog'at yoshiga yetganlar uchun mumkin edi. 1975-yil 8-martdagi qonunga binoan, ko‘pchilik yoshi 18 yoshni tashkil etadi. Senat saylovlarida ishtirok etish uchun 25 yoshga to‘lishing kerak[50]. Italiyada senat va deputatlar palatasiga saylovlarda ham o‘ziga xos tarizda ovoz berilardi. Ovoz berish huquqiga faqat sudlarda aybdor deb topilganlar va aqli zaiflar ega emasdilar.

Saylov kuni 25 yoshga to‘lgan saylovchi deputat etib saylanishi mumkin. Senatga saylov o‘tkazish uchun siz kamida 40 yoshda bo‘lishingiz kerak.

2013-yil 4-dekabr kuni Italiya konstitutsion sudining majlisi bo‘lib o‘tdi, unda mamlakat asosiy qonunining amaldagi saylov qonunchiligiga zid kelmasligi to‘g'risida qaror qabul qilindi. Biz Enriko Letta boshchiligidagi ayni, shu jumladan bir necha hukumat tomonidan tashkil qilingan qonun №270, 2005 haqida bormoqda.

2005-yilda, keyingi parlament saylovlari arafasida, markaz-o‘ng koalitsiyasi Silvio Berluskoni tashabbusi bilan yangi saylov qonuni ishlab chiqilib uni qabul qilindi.

Dastlab, 2005-yilgi saylov qonuni juda ko‘p tanqidlarga sabab bo‘ldi. Bu qonun loyihasining tuzuvchisi - Roberto Calderoli "Shimoliy ligasi" vakili va

---

[50] Тагепера Р., Шугарт М. Описание избирательных систем. -- Голосов Г.В., Глакина Л.А. (ред.) Современная сравнительная политология. М., 1997. Ст.41.

Giovanni Sartorilar bo‘lishgan. Bu qonun tarixga «Porcellum» nomad kiradi. Uning afzaliklari bir qancha jihatlari bilan oldingi saylov tog‘risidagi qonunlardan farq qilardi. Ba'zi tanqidchilar "Porcellum" ni Acherbos qonuniga solishtirgan. Sakkiz yil o‘tib, Italiya Konstitutsiyaviy sudi (xususan, "saylov premium" va "ro‘yxatlarini bloklangan") Konstitutsiyasiga zid emas qonun qonuniyligini shubha ostiga va uning qoidalarini o‘zgarirish lozim deya qarorga keladi.

2014 yil 12 mart - Italiya parlamentining quyi palatasi mamlakat saylov tizimidagi o‘zgarishlarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ma'qulladi.«Italicum» deb nomlanuvchi hujjat, qabul uchun, deputatlar palatasi 365 a'zolari, 156 qarshi ovoz berildi, 40 nafari o‘z betarafligini saqladi. Qonun loyihasining deputatlari tasdiqlashi uchun parlamentga muhokamaga kiritdi. Bu qonundagi bandlar oldingi saylov qonunlariga qaraganda ancha femokratik ruhda edi.

Xullas, Italiyada amalga oshirilgan konistitutsiyaviy islohotlar o‘z samarasini bera boshladi. Saylov to‘grisidagi yangi qonunlarning qabul qilinishi natijasida boshqaruvdagi beqarorlik asta-sekin yo‘qala bordi.

## III.Bob. Italiya tashqi siyosati

### 3.1.Italiya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar

Italiya Yevropada ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarga befarq qaramas edi. XX asrning 90-yillariga kelganda dunyodagi siyosiy jarayonlar ancha o‘zgara boshladi. Ikki qutubli dunyo parchalanib sotsializm o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Bu kabi siyosiy jarayonlar sodir bo‘layatgan bir vaqtda, Yevropada ham ko‘plab siyosiy voqealar yuz bermoqda edi. Bu vaqtda Yevropa Ittifoqining kengayishi ham shiddat bilan bordi. Italiya Yevropa Ittifoqining asoschilaridan biridir. U Yevropa Ittifoqining shakllanishida katta hissa qo‘shgan edi.

1992-yilda Italiya Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlari kabi Yevropa Ittifoqiga a`zo bo‘lish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladi. 1994-yilda Avstriya, Finlandiya, Norvegiya va Shvetsiyada Yevropa ittifoqiga a`zo bo‘lish masalasida referendum o‘tkazildi. 1995-yilda Norvegiyadan tashqari qolgan davlatlar Yevropa Ittifoqi a`zoligiga qabul qilindi. Yevropa Ittifoqining bunday kengayishiga Italiya ham o‘ziga xos munosabat bildirdi. Bu davrda hukumat tepasida turgan Berluskoni Yevropa Ittifoqining bu kengayishiga unchalik ham ijobiy fikr bildirmadi.

Italiya Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik doirasida bir qancha tashkilotlarga ham qo‘shildi. Misol sifatida Yevropa erkin savdo uyushmasiga a`zo bo‘ldi. Italiya Yevropa Ittifoqining faoliyatini yanada takomillashtirish uchun Amsterdam shartnomasini imzoladi. Italiya Yevropa Ittifoqi doirasidagi tashkilotlarga CFSP va ESDP da ham faol harakat qilmoqda.[51]

Yevropa Ittifoqi 2002-yil 13-dekabrda “eski va yangi ittifoq orasida muzokaralar” mavzusidagi qarorni e`lon qildi. Yevropa parlamenti 2003-yil 9-aprelda bu qarorni tasdiqladi. 2003-yil 16-aprelda Yevropa Ittifoqining 15 ta eski va 10 ta yangi a`zo davlatlari ishtirokida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuvda yangi 10 ta davlatni a`zolikka qabul qilish masalasi ko‘rib chiqildi. 2004-yil 1-

[51] Зонова Т. В. «Италия. От Первой ко Второй Республике», М.: Весь мир, 2011 г

yanvaridan 10 ta davlat Yevropa Ittifoqining teng a`zosi sifatida o‘z faoliyatini boshladi. 2005-yil 1-yanvaridan yana ikkita davlat qo‘shildi.

Italiyaning Yevropa integratsiyasidagi o‘rni:

2002-yilga kelganda Italiya 74 ta xalqaro tashkilotlarga a`zo bo‘lgandi. Yevropa Ittifoqining tashkilotchilaridan biri bo‘lgan Italiya 2003-yilda Yevropa Ittifoqiga raislik qildi. Umumiy holatda Yevropa hamjamiyatiga integratsiyasi Italiya iqtisodiga ijobiy ta`sir ko‘rsatdi. Maastrixt shartnomasiga ko‘ra Italiyada inflyatsiya darajasi keskin pasaydi. Italiya hukumati Yevropa Ittifoqi talablaridan kelib chiqqan holda bir qancha islohotlarni o‘tkazdi. Bu islohotlar davlat iqtisodiyotiga katta foyda bo‘ldi. Italiyaning yevro zonasiga o‘tishi ham iqtisodiyotni yanada rivojlanishiga katta yordam berdi.

Italiyani Yevropa Ittifoqiga integratsiyalashuvini yuqori deb baholash mumkin. Italiya Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlari bilan iqtisodiy sohada juda faol aloqalar o‘rnatilgan. Bundan tashqari Germaniyadan, Fransiyadan, Buyuk Britaniyadan va boshqa ko‘plab davlatlardan Italiyaga sayyohlar o‘qimi keskin ko‘paydi. Bu sohadan keladigan ko‘plab foyda Italiya iqtisodiga ijobiy ta`sir ko‘rsatdi.

Italiya Maastrixt shartnomasiga qo‘shilishni bir necha bosqichini amalga oshirgan, Birinchi bosqich 1992-yildan-1994-yilgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Bu davrni birlashtiruvchi siyosat deyiladi. Shu jumladan monetary sohasida ishlar Giuliano Amanto va Karlo Azeglio Chiampi tomonidan qo‘llab-quvvatlagandi. Italiya Maastrixt nizomlariga mos kelish uchun ko‘plab iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish lozim edi. Italiyada bu shartnomani ratifikatsiya qilishda boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlariga qaraganda unchalik qiyinchilik bo‘lmadi. Parlamentda chap radikallar-komunistlar va past-fashistik partiyalar o‘z noroziligini bildirib o‘tdi.

1994-yil Italiya parlamenti uchun bo‘lib o‘tgan saylovlardan so‘ng hokimyat tepasiga kelgan Silvio Berluskoni Italiya siyosatida “Yevrosaptim” g‘oyasini olg‘a surdi. Yevrosaptimni targ‘ib qilishda bu hukumatda tashqi ishlar vaziri sifatida

faoliyat yuritayotgan A.Martinoning ham o‘rni katta bo‘ldi. Bu davrda Italiya Maastrixt shartnomasini qabul qilishning ikkinchi bosqichini boshlab yubordi. Berluskoni yagona bitta pulga o‘tishni “qattiq” siyosat deya baholaydi. Bu vaqtda hukumatda yana o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu o‘zgarish natijasida hukumat tepasiga L. Dini boshchiligidagi yangi kuchlar keldi. U tashqi siyosatda bir qancha o‘zgarishlarni amalga oshirish maqsadida bir qancha ishlarni amalga oshirishni belgilab oldi. U Italiyaning Maastrixt shartnomasining barcha talablarini bajarishga va yagona valyutani qabul qilishga rozi ekanligini aytdi. 1996-yilda hukumat tepasiga kelgan Ramon Prodi ham Italiyaning Yevropa Ittifoqi bilan integratsiyalashuvini maqullaydi. U Maastrixt shartnomasi doirasida harakatni davom ettirishiga va`da beradi. 1999-yilda L. Dini Iqtisodiy va valyuta ittifoqi doirasida “har biri harakat qilishi kerak” degan strategiyani targ‘ib qiladi. 1998-yilda Italiya Maastrixt shartnomasi doirasida bir qancha muommolarga duch keldi. Chunki davlat bir vaqtning o‘zida bitta valyutni joriy qilish, soliq siyosati va davlat xarajatlari oshishiga sabab bo‘la boshladi. Hukumat bu kabi muommolarni xal qilish maqsadida davlat budjet xarajati kamomatini qisqartirishga harakat qildi. Shu maqsadda Italiya Yevropa talablariga mos ravishda daromad soliq miqdorini oshirish, soliq tizimini o‘zgartirdi. Qoshimcha qiymat solig‘i miqdorini sezilarli ravishda oshirdi.

Bu kabi ishlarning amalga oshirishi bevosita Italiyaning Yevropa integratsiyasiga qo‘shimcha yanada kuchayishiga olib keldi. Hukumat yanada ko‘plab sohalarni ham yevro talablariga mos ravishda o‘zgartirishga harakat qildi.

Roman Prodi tomonidan Italiya iqtisodini o‘zgartirish maqsadida 1996-yilda iqtisodiyotni nemis modeliga moslashtirish dasturi ko‘plab siyosatchilar qarshiligiga uchradi. Misol sifatida Fausto Bertinotti 1996-yil aprel oyida hukumatning bu siyosatiga o‘zining keskin qarshiligini bildirib o‘tdi. Prodi ijtimoiy sohada pensiya yoshini 65 yosh, kasallik vaqtida darmodni 20 % gacha pasaytirish kabi siyosatni olg‘a surdi. Uning bu siyosatini Bertinotti “ ijtimoiy

davlatning yo‘q qilinishi” deb talqin qilindi[52]. Ular Maastrixt biz uchun juda ozlik qiladi degan siyosat tarafdori edi.

Italiya XX asr oxirida Yevropadagi geo-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etdi. Ilgari Italiya Yevropa integratsiyasi loyihasi bo‘yicha ko‘p shikoyat bildirardi. XXI asr boshida Italiyada yana hokimyat tepasiga qaytib kelgan Silvio Beluskoni Yevropa integratsiyasida davlatning qattiy pozitsiyasini belgilab oldi. Uning bu jihatga bo‘lgan munosabatiga mashxur italiyalik siyosatchi J. Bonvichi o‘ziga xos munosabat bildiradi. Berluskoni Yevropa Ittifqining tuzilmasi haqida o‘z pozitsiyasini bildirdi, unga ko‘ra u “ xalq davlatlar federatsiyasi” ni targ‘ib qildi. Bu jihatdan Berluskoning qarshlari Buyuk Britaniya pozitsiyasiga yaqin edi. Berluskoni Yevropa Ittifoqi haqida shunday fikr bildirdi, unga ko‘ra “ Yevropa o‘z tanlagan muassasalari, davlatlarning o‘z milliy parlamentlari bilan birgalikda kelajakni tashkil qilish lozim” degandi. Bu davrda Italiyaning bir qancha partiyalari Yevropa Ittifoqi siyosatiga o‘zining salbiy fikrini ochiqdan ochiq bildirib o‘tardi. Misol sifatida Italiyadagi separatchilik harakatining yetakchilaridan biri bo‘lgan, ‘”Shimoliy Liga” partiyasi va uning yetakchisi Umberto Bossi edi. U Yevropa Ittifoqini “G‘arbning Sovet Ittifoqi” deya tariflaydi. Bu ittifoqni u milliy respublikalarning mustaqiligiga tahdid soluvchi kuch deya baholaydi.

O‘z navbatida Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlaridan biri bo‘lgan Germaniya ham Italiyadagi siyosiy jarayonlarga o‘z munosabatini bildirib o‘tadi. 2000-yilda Gerhard Shroyder saylovlarda neo-fashist partiya rahbari Gianfranko Fini g‘alaba qozonsa, Yevropa Ittifoqi Rimga bir qancha sanksiyalar joriy qilishga va`da berdi. “Yevropa Ittifoqi Silivio Berluskonining g‘alaba qozonishini oldini olish uchun har qanday ishni qilish kerak edi” degandi Belgiya tashqi ishlar vaziri bo‘lgan Lui Michel. Uning bunday deyishiga Berluskonining birinchi boshqaruv davrida amalga oshirgan ko‘plab ishlarini misol qilib keltirgandi.

---

[52] Зонова Т. В. «Италия. От Первой ко Второй Республике», М.: Весь мир, 2011 г

Hokimyat tepasiga kelgandan so‘ng Berluskoni o‘z an`anasiga sodiq qolgandek ko‘proq AQSH bilan aloqalarni yanada mustaxkamlashga harakat qiladi. Berluskoni hukumatda Yevropa integratsiyasining asosiy tarafdorlaridan biri bo‘lgan R.Ruggiero 2002-yildan tashqi ishlar vaziri lavozimidan iste`fo berishga majbur bo‘ladi. Bu vaqtga kelganda U. Bossi Yevropaning joriy etishga o‘zining qarshi ekanligini ochiqdan-ochiq bildiradi. R. Ruggiero tashqi sihlar vaziri lavozimidan ist`efo berganidan so‘ng 10 oygacha Berluskonining o‘zi bu lavozimni ham boshqarib turdi. U Italiya tashqi ishlar vaziri sifatida neo-fashistik harakatning yetakchilaridan bo‘lgan Giafranko Finini tayinlashga harakat qildi. Lekin, London, Parij, Berlin va Bryussel siyosiy yetakchilari Berluskoning bu siyosatiga keskin qarshi chiqishdi. Yevropaning yetakchi davlatlari bilan nizoga borishni istamagan Berluskoni bu siyostidan voz kechishga majbur bo‘ldi.

Ruggeiro iste`fo bergandan keyin ko‘plab Yevropaa nashrlari Berluskoni haqida “ Yevropa integratsiyasiga qarshi” nomi ostida maqolalar chop eta boshladi. Bunday vaziyatda Berluskoni Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarini tartibga solishga majbur bo‘ldi. Shuningdek u “Italiyani har tomonlama suvren davlatdir,hech kim bizning nomimizdan gapirish huquqiga ega emasdir” degandi.

2002-yilning 10 oyi davomida ham tashqi ishlar vaziri lavozimini egallagan Berluskoni oldida bir qancha muommolar ko‘ndalang bo‘lib turardi. Bunday muommolardan biri Italiyaning tashqi siyosatiga bog‘liq edi. Bosh vazir oldida tashqi ishlar vazirini tayinlash va tashqi ishlar yo‘nalishini belgilab olish vazifasi turardi.

Bu davrad ko‘plab italiyalik siyosatchilar tashqi ishlar vazirligini yangidan shakillantirishni talab qila boshladi. Bunday vaziyatda Yevropa Ittifoqining gigant davlatlari ham Italiya siyosiy jarayonlariga o‘z munosabatini bildira boshladi. Fransiya va Germaniya Berluskoni boshliq hukumat olib borayotgan siyosatga ochiqdan-ochiq qarshi ekanligini aytgan holda, Buyuk Britaniya esa motadil pozitsiyada turdi. Italiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi ittifoqni mustahkamlash uchun allaqachon ikki taraf o‘rtasida bir qancha kelishuvlar amalga oshgan edi.

2003-yil fevral oyida Italiya Britaniya sammiti davomida Berluskoni va Bler o‘zaro uchrashdi. Bu uchrashuv doirasida Yevropa Ittifoqi tashkilotlarini isloh qilish bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi. Bundan tashqari tomonlar Britaniya va Italiya o‘rtasida yana ko‘plab boshqa masalalarni ham ko‘rib chiqdi. Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya Berluskoni kabi siyosatchilarning paydo bo‘lishini “ tenglar ichida” o‘zaro hamkorlikka katta putur yetkazish mumkin deya fikrda edi. Ularning bunday qarorga kelishi Berluskoni tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosat natijasi edi.

Italiya bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlarda huquqiy muommolar: Italiya bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida munosabatlardan biri hibsga olish uchun umumiy Yevropa qarorini qabul qilish lozim edi.  Italiyalik siyosatchi bo‘lgan R. Croci ham hibsga olishda bir qancha masalalarni ko‘tarib chiqdi. Italiya adliya vazir Roberto Castelli qonun ustuvorligini taminlash maqsadida ko‘plab ishlarni amalga oshirish lozimligini aytdi. U Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlari tomonidan xalqaro jinoyatlar masalalarida kelishuv imzolanishi lozimligini takidladi, terrorizmga qarshi kurashda hammani jalb etish va unga jazo berishda birgalikda kelishgan holda ish olib borishga harakat qilish lozimligi bildirildi.

2001-yilning dekabr oyida bir hafta davomida Italiya Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan hibsga olish to‘g‘risidagi konsensusga erishish uchun muvafaqiyatsiz muzokoralar olib bordi. Oxir oqibat Italiya Yevropa  Ittifoqi talabi bo‘lgan qamoqqa olishga sanksiya berishni qo‘llab quvvatlashga majbur bo‘ldi. Bu vaqtda Yevropa Ittifoqi prizidenti Belgiyalik Guy Verhofstadt edi[53].

Italiya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi huquq sohasidagi munosabatdagi keying muhum nuqta-Italiya tomonidan kiritilgan yuqori martabali mansabdorlar uchun qonuniy taqiblardan himoya qilish edi. 2002-yilning kuzida taniqli siyosatchi Antonio Macanik tomonidan besh oliy davlat mansabdor shaxsining jinoiy jazodan daxlsizligini tiklash masalasidagi qonun loyihasi Yevroparlamentga

[53] Авилова А.В. Италия: своеобразие южноевропейского пути развития. - СПб: 2008. – ст. 38.

taqdim etildi. Bu qonun loyihasi yuzasidan ko‘plab muzokaralar bo‘lib o‘tdi, va 2003-yil iyun oyida parlament tomonidan tasdiqlandi.

2003-yil 1-iyuldan Italiya Yevropa Ittifoqiga raislik qilishni boshladi. Bundan bir xafta oldin Italiyaning Yevropa Ittifoqiga raislik qilish masalasida kelishmovchiliklar kelib chiqqandi. Germaniyadagi “Der Spiegel” jurnal bu qarorga o‘ziga xos munosabat bildirib o‘tdi. Jurnalning sahifasida shunday jumlalar keltirib o‘tilgan edi, “Silvio Berluskoni qahramon hozirgi kunda butun Yevropada” degandi. Bundan shuni bilish mumkinki, Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlarida biri bo‘lgan Germaniya ommaviy axborot vositalari Italiya siyosatiga norozilik ko‘zi bilan qaramoqda edi.

Italiyaning Yevropa Ittifoqiga raislik qilish muommolari: Italiyaning Yevropa Ittifoqiga raislik qilish haqida bir necha oy davomida G‘arbning bir qator ommaviy axborot vositalari salbiy ruhdagi maqolalarini chop qilib turgandi. Ularda Italiyaning Yevropa Ittifoqiga raislik qilishi bu demokratik qonunga zid deya baholaydi. Bunga Berluskoninng Italiya hukumat tepasida turganini sabab qilib ko‘rsatadi. Gazeta va jurnallar 6 oy davomida o‘z norozliklarni maqolalarida ko‘rsatib turdi. Italiya gazetasi Corriere della Sera ko‘plab Yevropaning davlatlarida Berluskoning hukumat tepasida turganligiga norozi kayfiyatda bir qancha maqolalarini yozayotganligi haqida xabar beradi. Italiyaning ushbu gazetasi o‘z maqolasida Yevropa Ittifoqining ko‘plab davlatlari ommaviy axborot vositalarida Silvio Berluskonining siyosiy faoliyati haqida to‘xtalib uni “ma`naviy huquqqa” eaga ekanligiga shubha bilan qarayotganini yashirmayotganligiga urg‘u berib o‘tadi. Germaniyaning Der Siepigel jurnali Silvio Berluskoni haqida “ Der Pater” ( kofe) nomli maqolasini chop etadi. Bundan tashqari yana bir mashxur nemis jurnali “ Fokus” Silvio Berluskonini mafiya boshlig‘i sifatida baholab uni Yevropadagi “ dahshatli entfan” deb ataydi.

Ramon Prodi 1996-yil aprelidan 1998-yil oktyabr oyigacha Italiyada hukumat tepasida turadi. Bu davrda Italiyaning tashqi siyosatdagi asosiy maqsadi sifatida Yevropa hududida birinchi guruhga kirishni taminlash edi. U Maastrixt

shartnomasi talablarini belgilangan tartibda bajarishga kirisha boshlaydi. Uning davrida Italiya va Yevropa Ittifoqi oʻrtasida siyosiy va iqtisodiy hamkorlik ancha ijobiy ahamiyat kasb etadi. [54]

1999-2004-yillarda Roman Prodi Yevropa siyosiy ishlarida faol qatnashadi. U besh yil davomida Yevropa Komissiyasiga raislik lavozimida faoliyat olib boradi. U bu davrda ham Yevropa doirasida koʻplab ishlarni amalga oshirishga harakat qiladi. Bu vaqt orasida yagona valyutaga oʻtish, Konstitutsiya loyihasini tayyorlash va Yevropa Ittifoqining eng keng kengayishi amalga oshirildi. Bu davrda Yevropa Ittifoqi 15 tadan 25 tagacha kengaydi. Prodi tomonidan olib borilgan say-harakatlar natijasida 2004-yil 29-oktyabrda Rim shahrida Yevropa Ittifoqining konstitutsiyasini qabul qilish toʻgʻrisida shartnoma imzolandi. Bu imzolangan konistitutsiya loyihasini Italiya parlamenti 2005-yil 6-aprelida tasdiqladi.

2003-yil bahor oyida Gretsiyaning Salonika shahrida Yevropa Kengashining sammiti boʻlib oʻtdi. Bu sammitda Italiyadan Raberto Antoniones ishtirok etdi[55]. Bu sammitda Italiyaning Yevropa Ittifoqiga rasilik qilish masalasi, konstitutsiya loyihasi ham muhokama qilindi. Bu sammitda Italiya Yevropa Ittifoqining qonuniy tuzilmalariga tegishli boʻlgan yana koʻplab masalalarni ham oʻrtaga tashladi. Yevropa Kengashi a`zolari kelishgan holda koʻplab masalalarni ijobiy hal qilishga urundi. Koʻrib chiqilgan dasturda takidlanishicha, Italiya Yevropa Ittifoqiga raislik muddatida quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha ish olib borishni belgilab olindi.

- Yevropa Ittifoqi konstitutsiyasini imzolash;
- iqtisodiy rivojlanish;
- Yevropa Ittifoqining kengayishi;
- Diplomatiya va Xavfsizlik;
- Rossiya-Italiya-Yevropa Ittifoqi yoʻnalishidagi hamkorlik;

---

[54] Буланов А. Ворота в Европу / "Эксперт". - 2008. - № 56 - С. 54
[55] Авилова А.В. Италия: своеобразие южноевропейского пути развития. - СПб: 2008. – ст. 39.

Bundan tashqari dasturda ishsizlarni ish bilan taminlash, telekomunikatsiya, energetika, ekalogiya, qishloq xo'jaligi, ichki bozor raqobatdoshligi, sanoat, ilmiy ishlanmalar va boshqa ko'plab sohalarni rivojlantirish belgilab olingan edi.

Yevropa Ittifoqi konstitutsiyasida ko'plab jihatlarga e`tibor qaratilgan edi. Bundan tashqari xavfsizlik masalasi ham alohida e`tiborga olindi.

Berluskoni tomonidan Yevropa integratsiyasi haqida shunday fikr keltirilgan edi. Uning fikricha integratsiya bu-davlat suverentetining soddalashtirish va bartaraf etishtir deyilgandi. 2005-yil 11-mart kuni Ispaniya poytaxti Madrid shahrida Yevropa Ittifoqi samitida xavfsizlik masalasi asosiy muommo sifatida o'rtaga qo'yildi. Bu sammitda Italiya o'ziga xos pozitsiyani egalladi. Italiya tarafi Yevropada xavfsizlikni taminlash maqsadida ko'plab ishlarni amalga oshirishni taklif qilib chiqdi. Italiya Osiyo va Afrika davlatlaridan kelayotgan migrantlarni cheklashga chaqirdi. Ular Yevropadagi xavfsizlika katta ta`sir o'tkazmoqda deb o'z fikrini bildiradi.

Romano Prodi 2006-2008-yillarda Italiya hukumatiga qaytishi Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarni ijobiy tomonga qarab o'zgartirdi. Italiyaning Yevropa integratsiyasidagi rolini har tomonlama oshirishga harakat qildi. 2007-yilda Yevropa Ittifoqining bir qator tuzulmalarini isloh qilish masalasida Italiya ham Bonn kelushuvini imzoladi.

2008-yilda boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi davrida ham Yevropa Ittifoqi ko'plab muommolarga duch keldi. Davlat iqtisodiy ahvoli keskin yomonlashdi, buning natijasida ko'plab noroziliklar ham yuzaga keldi. Yevro hududidagi inqiroz asosan Italiya, Ispaniya va Gretsiyaga qattiq ta`sir ko'rsatdi. Yevropa Ittifoqining iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlari Germaniya va Fransiya Italiya iqtisodini tartibga solishga harakat qildi. Germaniyaning Deutsch banki Italiya davlat obligatsiyalarining 88 % ni sotib oldi va 8 mlrd yevro miqdorida iqtisodiyotga investitsiya kiritdi. Yevropa Markaziy banki raisi Jan Klod Trichet 24 oy davomida Italiya parlamenti bir qator islohotlarni ko'rib chiqishi lozimligini takidlagan edi.

2011-yilning ikkinchi yarmida  Italiyaning iqtisodiy ahvol yomonlashdi. Italiya iqtisodiyot esa hujumlar qurboni bo‘ldi, natijada kreditlar bo‘yicha foizlarni sezilarli darajada oshirdi. Muammolar ko‘paydi, buning natijasida  Italiya uchinchi yevro maydoni iqtisodiyoti tizimi bo‘yicha  o‘zining qarz majburiyatlarini bajara olmadi. Yevropa qit'asini larzaga solgan bu inqiroz  iqtisodiy va pul-kredit uyushmasi butun tizimi qulashi olib kelishi mumkin edi. Davlatning tashqi va ichki siyosatining asosiy vazifalaridan biri Italiyaning moliyaviy inqirozni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo‘lish uchun ittifoqchilar, investorlar, aksionerlarni va boshqalarni ishontirish zaruriyati  ko‘ndalang bo‘lib turadi.

Silvio Berluskoni boshchiligidagi markaziy o‘ng hukumati chet elda Italiya moliyasining rag'batlantiruvchi obro‘si va chuqur porlashgan siyosiy qarashlarini yaratish uchun kurash olib bordi. Bu, Berluskoni fraksiyasining aksariyat qismi bilan birga, hukumatning tobora ortib borayotgan qarzlarini to‘lay olmayaptimi degan savolga shubha bilan qarashga olib keldi. Italiyaning moliyaviy muammolari va raqiblarini byudjetni muvozanatlashiga ishontirish uchun imkoniyatlarning kamayishi ko‘plab xalqaro agentliklarning italiyalik obligatsiyalar reytingida to‘g'ridan-to‘g'ri chiziqqa tushib qolishiga sabab bo‘ldi. Italiya asosiy  harakatlarini yevro hududidagi bugungi vaziyat tartibga solish, iqtisodiy tizimi bankrot olib kelishi mumkin bo‘lgan jihatlarga alohida e`tibor qaratish lozimligiga davat qilardi. Yevropa Ittifoqining  va Fransiya va Germaniya kabi katta  davlatlari bilan har tomonlama iqtisodiy hamkorlikning rivojlantirish choralarini ko‘ra boshlaydi. Bu davlatlar Italiyaning inqirozdan chiqishiga katta yordam berishi lozim edi.

2011-yilda Italiya iqtisodi ancha sezilarli o‘zgarishlarga uchrab ijobiy tomonga qarab harakatlana boshladi. 2011-yilning 23-oktyabrida Yevropa sammitida Merkel, Sarkozi va Berluskoni ommaviy inqiroz uchun birgalikda kurashishga kelishib oldi. 2011-yil 12-noyabrda Berluskoni Italiya prezidenti Djorodjo Napalitan bosimi ostida o‘z lavozimidan ketdi. Eng ahamiyatli tomoni shundaki, uning davrida Italiyada 46 ta iqtisodiy islohot o‘tkazilgan edi.

Berluskoni o‘rniga hukumat tepasiga kelgan Monti ham Yevropa Ittifoqi doirasida bir qator ishlarni amalga oshirishga harakat qildi. U ham Yevropa integratsiyasini faol qo‘llab-quvvatlaydi va bu ittifoqda Italiyaning o‘rni va rolini oshirishga harakat qiladi.

Prezident Napalitano tomonidan 2013-yil 24-aprelda Enriko Letta bosh vazir sifatida e`lon qilinadi. Eng qiziq  tomoni shundaki bu hukumat tarkibida 7 nafar ayol vakil bo‘lgandi. Lekin Letta hukumati unchalik ham barqaror bo‘lmadi. Uning davrida Italiya Yevropa Ittifoqi doirasida unchalik bir katta ishni amalga oshira olmadi.

2014-yil 14-fevralda M. Renzi bosh vazir sifatida saylandi. Shu yilning 22-may kuni Italiyaning Yevropa Ittifoqiga raislik qilish va uning vazifalari haqida gapirib o‘tdi. U Yevropada moliyaviy barqarorlikni taminlash maqsadida yangi dastur ishlab chiqardi. 2015-yil 13-yanvarda Renzi Strasburgda Italiyaning yarim yillik Yevropa Ittifoqiga raislik natijalari haqida maruza qildi. U o‘z nutqida Yevropa Ittifoqi zamonaviy islohotlarga muhtoj ekanligini aytib o‘tadi. U Italiyaning Yevropa Ittifoqidagi mavqeyini oshirishga harakat qiladi. Uning raislik davrida Yevropa Ittifoqi va Rossiya o‘rtasidagi ziddiyat kundan-kunga yomonlashib ketdi.

Xullas, Italiya Yevropa integratsiyasida faol ishtirok etmoqda. U Yevropa Ittifoqida ham katta mavqeyga egadir. Italiya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar ijobiy ahamiyat kasb etmoqda.

## 3.2. Italiya-AQSH-NATO.

Italiya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri har tomonlama manfaatli aloqalar o‘rnatishdan iboratdir. XX asrning 90-yillarida kelganda dunyoda bo‘layotgan siyosiy jarayonga Italiya rahbarlari to‘g‘richa yondashishga harakat qila boshladi.

Italiya va AQSH o‘rtasidagi aloqalar XX asrning 90-yillariga kelganda ham ijobiy ahamiyat kasb etardi. Italiya AQSHning Yevropada yuritadigan siyosatiga o‘ziga xos nazar bilan qarardi. Bu davrda Italiya dunyoda harbiy va iqtisodiy jihatdan qudratli bo‘lgan.

Besh yil davomida Italiyada to‘rt tashqi ishlar vaziri almashdi. Renato Ruggiero 2000-yil iyun oyidan 2002-yilning yanvar oyigacha Italiyada tashqi ishlar vaziri lavozimida faoliyat yuritgan edi. Bundan tashqari Gianfranco Fini 2004-yil noyabr oyidan 2006-yil may oyigacha Italiya tashqi ishlar vaziri sifatida o‘z faoliyatini yuritdi. U faoliyati davomida Italiayning Yevropa Ittifoqi va AQSH bilan olib boriladigan siyosatini o‘ziga xos yo‘nalishda davom etishiga harakat qilgandi. Undan oldin tashqi ishlar vaziri sifatida Franko Frattini 2002-yil noyabridan 2004-yil noyabrigacha ko‘proq Italiyaning Yevropa Ittifoqi bilan bo‘ladigan munosabatlarini tartibga solishga urundi va bir qancha yutuqlarga ham erishdi.

Renato Ruggieroning iste'foga chiqishi sabablaridan biri uning tashqi siyosatda bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi bo‘ldi[56]. U ko‘proq AQSH tarafdori sifatida tashqi siyosatda ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘ydi. Uning faoliyati ko‘plab siyosatchilar noroziligiga sabab bo‘ldi. Tashqi ishlar vaziri vazifasini bajarishdan oldin u Jahon savdo tashkiloti bosh direktori lavozimida ishlagan edi. Bundan tashqari FIAT ning egasi bo‘lgan Gianni Anelli bilan ham yaxshi aloqada bo‘lgan. Ruggiero o‘z faoliyati davomida Italiyaning tashqi siyosiy aloqalarida

[56] Селихова И. Ю. «Политика Италии в НАТО (цели, задачи, основные направления)», дипломатическая академия МИД РФ, 2010.

AQSH va Yevropa Ittifoqining munosabatlarini samimiy bo‘lishi tarafdori sifatida maydonga chiqdi va bir qancha ishlarga qo‘l urdi. Misol sifatida uning tashabusi bilan Rimda imzolangan Yevropa Ittifoqi va AQSh o‘rtasidagi “Rim hamkorlik strategiyasi” katta ahamiyatga ega edi. Bundan tashqari Italiya bosh vaziri sifatida o‘z faoliyatini bu davrda yuritayotgan Silvio Berluskoni ham tashqi siyosatda AQSHning tarafdori sifatida namoyon bo‘ldi. U bir necha marotaba o‘z chiqishlarida Italiya va Yevropa Ittifoqining AQSH bilan hamkorligi o‘zlari uchun katta imkoniyatlar eshigini ochishi mumkinligini takidlardi. Bundan tashqari Berluskoni hukumatida iqtisodiyot vaziri sifatida faoliyat olib borayotgan Giulio Tremonti ham Italiyadagi iqtisodiy sohadagi islohotlar o‘z samarasini berishi uchun unga chetdan ham katta ko‘mak kerak bo‘lishi lozim edi deb takidlaydi. Bundan shuni ko‘rishimiz mumkinki, u ham AQSHning Italiya iqtisodyotiga katta miqdorda yordam kiritishi tarafdori va AQSH bilan aloqalarni mustahkamlashni maqul ko‘rishini yashirib o‘tirmadi. Italiya Prezidenti Karlo Azeglio Champi esa tashqi siyosatda birozgina liberal harakat tarafdori sifatida u ko‘proq qo‘shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash tarafdori sifatida tanilgandi. Hukumatda mudofaa vaziri bo‘lgan Antonio Martino AQSHga bir necha maratoba tashrif buyurib, Italiya va AQSH o‘rtasidagi harbiy sohadagi hamkorlikni yangi pog‘onaga ko‘tarishga harakat qilgandi.

Silvio Berluskoni tashqi siyosati "merosxo‘rlik" tamoyili asosida olib borildi. U ham o‘ng pozitsiya tarafdorlari sifatida AQSH bilan aloqalarni yanada rivojlantirishga harakat qildi. U tashqi ishlar vaziri bo‘lgan Ruggero Italiyaning tashqi siyosatdagi ishlari ko‘proq Yevropa Ittifoqiga qaraganda AQSh bilan bog‘liqligi va bunda davlat katta manfaat ko‘rishni takidlagandi. Shu bilan birgalikda Berluskoni oldida ikkita yo‘l ko‘ndalang bo‘lib chiqib qoldi. Bu yo‘llar Bryussel va Vashington yo‘llari edi. U o‘z faoliyatida Vashington bilan ko‘proq aloqa qilgan bo‘lsada, Bryussel bilan ham aloqalarni rivojlantirishga majbur bo‘ldi. Berluskoni tashqi siyosatining mohiyati tog‘risida ko‘p mutaxasislar o‘z fikrlarini bildirib o‘tadi. Ular ikkita jihatga alohida o‘z e`tiborlarini qaratadi. Bu masala

bo‘yicha olimlar ikki lagerga bo‘lingan: 1) Berluskoni Italiyaning tashqi siyosatini o‘zgartirgan va 2) siyosatda uzluksizligini ko‘rganlar (Muzokaralar uslubi va taktikasi o‘zgardi, ammo mohiyati bir xil bo‘lib qoldi). Mashhur siyosatchilardan biri bo‘lgan Pietro Ignasi birinchi nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlaydi. Uning so‘zlariga ko‘ra, Berluskonining AQSh va G'arb davlatlari bilan hamkorlik qilish yo‘llarini e'lon qilinganiga qaramasdan, hukumat rahbari Bryusselga qaraganda Vashingtonga nisbatan "qat'iy sadoqat" siyosatini olib bormoqda. Bundan tashqari yana bitta mashxur siyosiy tanqidchi  Ettore Yunon Rim Xalqaro ishlar instituti direktori bo‘lib,  Italiya hukumati tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosat haqida o‘z fikrini shu tarzda bayon qiladi; “ ularning siyosiy ittifoqchilari turlarini kengaytirish va  an'anaviy yondashuvga ko‘ra Italiya Yevropa bilan, albatta, manfaatli aloqalarni saqlab qoldi" degandi. Serxio Romano ham Italiya tashqi siyosati haqida o‘z qarashini ochiqdan-ochiq bildirib o‘tadi  olib borilayotgan bu siyosatni "tashkiliy ustuvor o‘zgartirish sifatida baholaydi."[57]

Italiyaning taniqli diplomati Osvaldo Croci Berluskoni  tomonidan olib borilgan tashqi siyosatga o‘ziga xos tarzda baho berdi. U Berluskoni boshqaruvi davrida  Italiya yanada NATO va AQSH bilan yaqinlasha boshlashi davri deya ta`riflaydi. U  yana shunday fikrlari ham olg‘a suradi : "Berluskoni Italiya tashqi siyosatida o‘zgarish qilgan bo‘lsa, u uslubi va muzokaralar o‘tkazish tarzda faqat emas, balki mohiyati o‘zgarmadi" deb takidlaydi. U bunga dalil sifatida Iroqdagi vaziyatni  misol sifatda keltiradi. Uning fikricha Italiya  tashqi siyosatda  ikkita pozitsiyani ham bir xil olib borish zarurdir deydi. Berluskoninging tashqi siyosiy faoliyatini ikkiyuzlamachilikning yangi bir ko‘rinishi sifatida baholaydi. Bu davrda Italiya bir tomondan Qo‘shma Shtatlar va ikkinchi tomondan Bryussel bilan ham yaxshi aloqalarni o‘rnatgan edi. Berluskoni hukumati pozitsiyasi faqat iqtisodiy aloqalarni emas balki, harbiy hamkorlikka ham alohida e`tibor qaratgandi. Buning uchun u albatta harbiy jihatdan ancha qudratli bo‘lgan davlat bilan aloqalarni

[57] Любин В. Италия перед вызовами XXI столетия. - АСТ, 2008.ст.124.

yaxshilashga harakat qildi. Italiya bunday hamkor sifatida AQShni tanlaydi va aloqalarni yanada mustahkamlashga intiladi.

Italiya AQSHning dunyo davlatlari ishlariga aralashish siyosatini yoqlaydi. Misol sifatida Yaqin Sharqdagi vaziyatni hal qilishda Italiya diplomatlari AQSH pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. U Isroil-Falastin masalasida ham AQSH tarafida turib muammoni hal qilish ishida qatnashadi.

Italiya 2001-yilda bo‘lib o‘tgan AQSHdagi terorchilik harakatini keskin qoralab chiqadi. Italiya hukumati bu harakat yuzasidan AQSH rahbariyatiga hamdartlik bildiradi. Shundan so‘ng AQSHning Afg‘onistondagi NATO boshchiligidagi harbiy operatsiyasida qatnashish niyati borligini bildirib o‘tadi. Italiya Afg‘onistondagi terrorizmga qarshi harbiy harakatlarda faol qatnashadi. U o‘z harbiy qo‘shinlarini, harbiy texnika vositalarini bu harakatga safarbar etadi. Italiya Afg‘onistondagi harakatlarga rasman 2002-yilning yanvar oyidan boshlab qatnasha boshlaydi. U Xalqaro Xavsizlikka Yordam kuchlari (ISEF) nomi ostida harbiy harakatlarda faol ishtirok etadi[58]. Bu vaqtdagi Prodi hukumati shunday degandi “ bizning qo‘shinlarimiz BMT talabiga muvofiq Afg‘onistonda NATO harakatlarida terrorizmga qarshi kurashmoqda”. Italiya bundan tashqari bu hududda yetishtirilgan giyoxvand moddalarni yo‘q qilish tarafdori edi.

Italiyaning harbiy jihatdan nisbatan kuchsizligi va o‘rta yer dengizida xavfsizlikni taminlash uchun AQSH bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga majbur edi. U AQSH bilan har tomonlama aloqalar o‘rnatgandi. Italiya siyosiy arboblari o‘z navbatida AQSH prezidentlari bilan yaxshi munosabatda edi. Italiyaning O‘rta yer dengizi siyosatining asosiy yo‘nalishi NATO ning Islomiy terrorizm xavfiga qarshi kurashidir.

Amerika va ko‘p jihatdan NATO davom etayotgan siyosat mavzusi bo‘lishi kerak. Shubhasiz, NATO rahbariyati Yevropa davlatlari siyosatidagi rolini

[58] Селихова И. Ю. «Политика Италии в НАТО (цели, задачи, основные направления)», дипломатическая академия МИД РФ, 2010.

mustahkamlash uchun yordam qo‘lini cho‘zishga qaratilgan edi. AQSHning Italiya bilan munosabatlardagi maqsadi shundan iborat ediki u bu davlat orqali O‘rta Yer dengizini ham nazorat qilishni ko‘zlagan edi. Biroq, ba'zi xatarlarga qaramay, harbiy bo‘lmagan aholini himoya qilish kerakligi belgilandi. Harbiy yordamdan tashqari, aholiga iqtisodiy va gumanitar yordam ham ko‘rsatilishi lozim edi. Kaolitsiyada hamkorlik maqsadida birgalikda ishlashlari ham nazarda tutilgan edi. Afg'onistondagi missiyaning asosiy maqsadi mamlakatda tolibonlar tomonidan bostirilayotgan demokratik rejim tuzishga yordam berishdir.

Italiya o‘zining dengiz qo‘shnisi bo‘lgan Liviyadagi siyosiy vaziyatga ham alohida ko‘z bilan qaradi. AQSH boshchiligidagi NATOning bu davlatdagi siyosiy rejimni tanqid qilishi va uning rahbarini olib borayotgan siyosatidan noroziligini yashirib o‘tirmadi. Muammar Kaddafiyni hokimyatdan ketkazish uchun AQSH ko‘plab harakatlarni amlaga oshirdi. AQSHning hamkori bo‘lgan Italiya ham bu siyosiy vaziyatga o‘z munosabatini bildirdi. U AQSH tarafida turib Liviyadagi siyosiy rejimni qulatish ishlariga ko‘mak berdi. AQSHning talabi bilan 2003-yilda Liviyaga qo‘yilgan BMTning embargosi faqatgina 2005-yilga kelgandagina bekor qilindi.

Italiya Kosovo mojarosidagi pozitsiyasi: Italiya AQSHning hamkori sifatida Yevropadagi ko‘pgina siyosiy vaziyatlarda uning pozitsiyasini qo‘llay boshladi. NATO Italiyaning harbiy jihatdan qo‘llab turuvchi tashkilot sifatida qaralardi. Italiya hukumati rivojlanayotgan mamlakatlarda NATOga qo‘yilgan majburiyatlarni o‘z ichiga olgan to‘liq pragmatik maqsadlarini birlashtirishga majbur bo‘ladi, bu ko‘pincha bir-biriga zid keladi. Hukumat qarama-qarshi tomonlarning reaksiyasini inobatga olgan holda siyosat olib borishga majbur bo‘ldi. Rimning ziddiyatli holatlarda olib borgan maqsadlarining ko‘pligi kechiktirilgan qarorlarni qabul qilishi o‘z navbatida diplomatik mag'lubiyatlarga sabab bo‘ladi.

Italiya hukumati Serbiya ishlariga aralashishga unchalik ham xohishi yo‘qligini bildirib o‘tdi. Shunday bo‘lsada, AQSHning tazyiqi ostida bu mojaroga

aralashishga majbur bo‘ldi. Italiya kosovalik albanlarning tarafini oldi va Serbiyani qattiq tanqid qildi.

Qochqinlarning oqimini kamaytirishga urinishi Massimo D'Alema hukumatiga bir qancha muammolarni olib keldi. Kosovo muammosini hal qilishda Italiyaning muvozanatli yondashuvi ishlab chiqildi. Roman Prodi NATOning Serbiyaga qilingan havo hujumida Italiyaning samolyotlaridan foydalanishga ruxsat bergan. Bundan tashqari, NATO samolyotlari uchun Italiyada qo‘nadigan aeradromlar masalasida muammo yuzaga keldi. Siyosatchilar orasida bu tadbirni qoralovchilari ham ko‘p qisimni tashkil qilardi. Shunday bo‘lsada Italiya bu mojaroda ham AQSH tarafida turdi.

1999-yil 24-martda NATO Serbiya qo‘shinlariga qarshi harbiy operatsiya o‘tkazdi[59]. Unda Buyuk Britaniya,  Italiya, Fransiya, Germaniya ishtirok etdi. Anqara, London va Rim o‘z hududlarini AQSH havo kemalari uchun tranzit punktlari sifatida taqdim etdi.Garchi NATO tarkibida barcha qarorlar konsensus asosida qabul qilinganligiga qaramasdan, Evropa davlatlaridan hech biri harbiy harakatlarga to‘sqinlik qilolmagan, ammo bu BMT Xavfsizlik kengashida ko‘rib chiqilmasdan qabul qilingan.

Gazeta La Repubblica gazetasida keltirilgan ma`lumot bo‘yicha  Vashington Yevropa davlatlari to‘g‘risidagi to‘rt ming maxfiy xabarlar to‘plagandi. Bundan maqsad AQSH Yevropa davlatlarini ham ichki ham tashqi siyosatini nazorat qilishga urunishi edi.  Bu to‘rt minga yaqin xabarlarning ko‘pchilik qismi bevosita Italiya bilan bog‘liq edi.  Italiya hukumatiga birichi marta 1994-yilda bosh vazir sifatida saylangan Berluskoni tashqi siyosatda Italiyaning AQSH bilan manfaatli aloqalar o‘natishga harakat qildi. Shu yili Fabio Bogo‘nun  degan  siyosatchi Chala La Repubblica gazetasida chop etilgan bir maqolasida  Italiya va AQSH o‘rtasidagi

[59] Селихова И. Ю. «Политика Италии в НАТО (цели, задачи, основные направления)», дипломатическая академия МИД РФ, 2010.

munosabatlarga o‘z munosabatini bildirib o‘tadi. Bundan bilinib turibdiki, Italiya hukumatining tashqi siyosatidan norozilar ko‘pchilikni tashkil qilardi.

2009-yilning fevral oyida Ronald Spolli AQSHning Italiyadagi elchisi bo‘lib tayinlanadi. U o‘z faoliytida AQSH va Italiya o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu vaqtda AQSH davlat kotibi bo‘lgan Hillari Klinton tomonidan yangi memorandum tayyorlandi. Unda shunday so‘zlar ham keltirilgandi «bizga Yevropadan kuchli ittifoqdosh kerakdir". 2009-yilda Berluskoni AQSHni Italiyaning eng yaxshi ittifoqchisi bo‘lib, u o‘rtadagi munosabatlarni yanada rivojlantirishga chaqirdi. U AQSHning Rimdagi elchisi bilan ham bir necha maratoba uchrashib, bu masala yuzasidan suxbatlashadi. Bu suxbatlar chog‘ida ikki tomon ham ko‘plab masalalarga oydinlik kiritadi. Berluskoni AQSHning xalqaro maydonda olib borayotgan siyosatini oqlab chiqib, uni dunyo xavsizligini taminlovchisi deb maqtaydi.

Italiyadagi AQSH elchisi bo‘lgan Spolya ochiqchasiga Amerikaning bu siyosatdan nimani kutishini haqida gapiradi". Uning fikriga qaraganda Italiya o‘tgan 20 yil davomida AQShning Bolqon erishilgan yutuqlar, Livan va Afg'onistonda tinchlik o‘rnatish operatsiyalarida ham muhim rol o‘ynagandi. Nihoyat, Italiya AQSh uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hudud sifatida qarala boshlandi. AQShning Afrikadagi harbiy harakatlarini boshqarib turish maqsadida Italiya hududi tayanch sifatida tanlangandi. 2008-yilda AFRICOM dasturi tuzilgan, unga ko‘ra AQSHning Liviyaga bo‘ladigan munosabatlari shunga qarab olib borilardi.

Bundan tashqari AQSH elchisi Italiya tashqi siyosatiga o‘z munosabatini bildirib o‘tib shunday degandi “biz bunday siyosatdan ko‘p foydalansak deydi– Spolli, Italiya yadroviy sohada o‘z siyosatini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan Eronga qarshi aniq siyosat olib boradi va u bilan bo‘ladigan iqtisodiy aloqalarni cheklaydi”. Vashington ham Rim ham terrorizmga qarshi kurash oldida hamkorlik uchun o‘z eshiklarini ochadi degandi AQSH elchisi. Italiya va AQSH o‘rtasidagi munosabatlarning qay darajada mustahkamligiga, AQSh razvedka bo‘limi vakili

Vikileaks tomonidan keltirilgan ma'lumotlar ancha oydinlik kiritadi. Uning bergan ma`lumotlariga qaraganda ikki davlat oʻrtasida koʻplab maxfiy shartnomalar tuzgandi. Bulardan koʻplari siyosiy sohaga tegishli boʻlgan.

Italiyaga AQSh elchisi sifatida yangi saylangan Jon Fillips  Rimga keliboq Italiya ishlariga oʻz munosabatini bildira boshladi. U Italiya tashqi va ichki siyosati toʻgʻrisida koʻplab ma`lumotlarni toʻplandi va uni Vashintonga yuborib turdi.

Vikileaks 23-fevral kuni yangi janjalli ma'lumotlarni e'lon qildi. Bu ma`lumotda AQSh Milliy xavfsizlik agentligi siyosat va Italiya siyosatiga bogʻliqligi toʻgrisida edi.

NATO rahbarlari, shuningdek, Italiya «Sikral", Buyuk Britaniya "Skynet", Fransiya "Syracuse" da suniy yoʻldosh aloqa tizimlari asosida tashkil etiladi suniy yoʻldosh orqali aloqaning yangi ittifoq tizimini yaratish boʻyicha hamkorlik toʻg'risidagi kelishuvga erishildi.  Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlari tomonidan yaxshi shartlar asosida shartnoma imzoladi. Bu shartnoma 15 yil muddatga imzolandi. Amalda shartnoma 2005-yilning 1-yanvaridan kuchga kirishi belgilab qoʻyildi. 2005-yildan boshlab bu shartnoma rasmanasiga kuchga kirdi.

Garchi Italiya NATOning sharqqa kengayishiga qarshi boʻlmasa-da, bu jarayon Rossiyaning xavfsizligini hisobga olishni afzal koʻrdi. Bu pozitsiya Janubi-Sharqiy Yevropada NATOning kengayishi tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan ikkinchi Berluskoni hukumati davrida oʻzgarmagan (Bolgariya va xususan Ruminiya), NATO va Rossiya oʻrtasidagi rasmiy belgilangan munosabatlar qandaydir joriy etish uchun kurash davom etdi.

Italiya diplomatik vakillari Yevropa Ittifoqi mudofaa dasturi boʻyicha NATO bilan hamkorlik imkoniyatlarni yaxshilash, uning faoliyatini samarali boʻlishini taminlash maqsadida koʻplab ishlarni amalga oshirishga harakat qildi. Italiya siyosatchilari va diplomatlarning koʻpchilik qismi amerikalik hamkorlarning Yevropadagi harbiy harakati samarali oʻtkazish choralari ustida bosh qotira boshladi. Ularning nazarida amerikaliklarda shubha paydo boʻlsa, bu transatlantik hamkorlikka salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin edi. Bundan tashqari,

Italiya NATOning parchalanishidan tashvishlanar edi. Chunki, Italiya dengiz chegaralarining zaifligini bilardi. Italiyaning O‘rta Yer dengizi xavfsizligini ta'minlovchi ishonchli amerika mudofaasini saqlab qolishga astoydil harakat qilardi. Italiya AQSH bilan hamkorlikda mudofaa va xavfsizlik doirasida ko‘plab ishlarni amalga oshirishni maqsad qilgandi. Bundan tashqari Italiya AQSH boshchilik qilayotgan NATOning Yevropa Ittifoqida o‘z pozitsiyasini yanada mustahkanlashdan manfaatdor edi.

Italiyaning Yevropa Ittifoqiga raisligi davrida 2003-yilning oxiriga qadar Yevropa mudofaa siyosatini muvofiqlashtirishni rejalashtirilgan edi. Xususan, Italiya Bosh vaziri Silvio Berluskoni, mamlakat rahbari vaqtida Yevropa Ittifoqining harbiy jihatdan kuchayishiga o‘ziga xos munosabat bildirib o‘tgan. U yana shunday degandi: "Yevropa Ittifoqi o‘z 50 yillik tarixida birinchi marta o‘z-o‘zini mudofaa rejasini amalga oshirish mumkin bo‘ladi va jahon sahnasida yanada nufuzga ega bo‘lishi mumkin." Shu bilan bir vaqtda, Italiya yetakchi Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi xavsizlikni taminlashda NATO qisman to‘lduruvchi ro‘lni o‘ynashi lozim degandi”.

Yevropa Ittifoqi raisligining tugashi bilan Italiya hukumati Yevropa Ittifoqi va NATO o‘rtasidagi hamkorlikni saqlab qolish siyosatini davom ettirdi. Ushbu tashqi siyosat dekabr oyida Bryusselda bo‘lib o‘tgan Yevropa Ittifoqi sammitida e'lon qilindi. Yevropa Ittifoqi mudofaa siyosatini NATOga muxolifatga qurmasligi kerak degan fikrni Italiya tomoni bir necha marta takidladi. Italiyaning bunday yo‘l tutishidan maqsad AQSH bilan bo‘lgan yaxshi munosabatiga ziyon yetishdan xavotirda edi.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida ham Italiya va AQSH o‘rtasidagi yaxshi munosabatlar saqlanib qoldi. Italiya rahbarlarining ko‘pchilik qismi AQSH bilan manfaatli munosabatlarning saqlab qolinishi tarafdori edi. Itliyada 2014-yilda hokimiyat tepasiga kelgan M. Rensi davrida ham tashqi siyosatdagi bu ko‘rinish ma`lum darajada o‘zgargan holda saqlanib qoldi. Bu davrda ham Italiya NATOning faoliyatida faol ishtirok etishda davom etmoqda.

Xullas, Italiya tashqi siyosatda AQSH va NATO bilan juda manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Italiya tashqi siyosatida AQSHning ta`siri ancha sezilarli o‘ringa egadir. U AQSHning olib borgan siyosatini har tomonlama maqullamoqda. Ayniqsa Berluskoni hokimyat tepasida turgan vaqti Italiya AQSH bilan munosabatlarini har tomonlama rivojlantirgan edi. Hozirgi kunda ham Italiyaning AQSH va NATO bilan munosabatlari ancha ijobiy ahamiyat kasb etadi.

## Xulosa

Italiyada XX asr 90-yillariga kelganda siyosiy hayotida ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Hukumat tepasida uzoq yillardan beri o‘z o‘rnini hech kimga bermasdan kelayotgan XDP o‘z mavqeyini yoqota bordi. Natijada ko‘plab yangi partiyalar siyosiy maydonga kirib kela boshladi. XDPda bo‘linish yuz berdi va uning mavqeyi keskin pasaydi. Italiya sotsialistik partiyasi ham o‘zining obro‘sini ancha yo‘qotgan edi. Ularning nufuzini yo‘qotishga partiya tetakchilarining korrupsiya botqog‘iga botib qolganligi sabab bo‘ldi.

Dissertatsiyanng birinchi bobi bo‘yicha quyidagi jihatlarga alohida o‘z e`tiborimni qaratib shu ishlarni qilishga harakat qildim :

1. XX asr 90-yillarida Italiyada iqtisodiy hayoti ancha rivojlandi. Bunga sabab sifatida davlat rahbarlarining iqtisodga bo‘lgan munosabatining o‘zgarganligi;
2. XX asrning 90-yillari XXI asr boshlarida Italiyada jtimoiy sohada ko‘plab o‘zgarishlar olib borildi. Italiyadagi ijtimoiy muommolarning nihoyatda ko‘pligi nafat ijtimoiy hayotga, balki siyosiy hayotga ham ta`sirini o‘tkazdi. Ayniqsa Italiyaning hududlar bo‘yicha rivojlanishi noteksligi davlatning barqarorligiga o‘zining salbiy ta`sirini o‘tkazisb kelmoqda edi;
3. Italiyada ijtimoiy sohaga oid ko‘plab qonunlar qabulqilndi. Ishsizlar ish bilan taminlandi, Ayniqsa Italiya janubidagi dehqonlarning ahvolini tartibga solish bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borildi;

Birinchi bob bo‘yicha yuqoridagi jihatlarga o‘z e`tiborimni qartdi. Bunda Italiyadagi iqtisodiy hayotdagi tanglikning kelib chiqishi va hukumat rahbarlari tomonidan olib borilgan islohatlar. Ijtimoiy muommolarning naqadar o‘tkirligi nafaqat aholining norozligiga balki davlat beqarorligiga ham sabab bo‘lmoqda edi. Bu sohalarni tartibga solish bo‘yicha hukumat tepasiga kelgan har bir rahbar bir qancha ishlarni amalga oshirishga harakat dissertatsiyaning asosiy qismida batafsil yoritildi.

Italiyda iqtisodiy o‘sish va davlat rahbarlari tomonidan olib borilgan jtimoiy siyosat bo‘yicha quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchidan, Hukumat tepasida turgan partiyalar davlat iqtisodiyotini tartibga solish maqsadida qilgan ishlari;

Ikkinchidan, Davlatning iqtisodiy rivojlanishining jadallashganligi;

Uchunchidan, Itlaiya uchun eng o‘tkir muommolardan biri bo‘lgan hududiy rivojlanish ijtimoiy hayotning tartibga solish bo‘yicha qilingan ishlari va boshqalar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi o‘z e`tiborimni quyidagi jihatlarga o‘z e`tiborimni qaratib, shularni aniqlashga harakat qildim:

1. Partiyaviy tizmda qilingan o‘zgarishlar, partiyalar o‘rtasida partameny saylovlarida qatnashishni tartibda solinishi;
2. Italiya siyosiy beqarorligiga sabab bo‘lib kelayotgan saylov tizimining tartibga solish maqsadida bir necha marta islohat amalga oshirildi;
3. Italiya siyosiy hayotida ko‘rinmas hokimyatning kuchliligi va unga qarshi demokratik kuchlarning birlashishi;
4. Italiyada konistitutsion islohatlarning amalga oshirilishi va aholining unga bo‘lgan munosabati va boshqalar.

Ikkinchi bobda olib borgan izlanishlarim bo‘yicha quyidagilarni aniqladim: Italiya siyosiy hayotida beqarorlikning asl sababi uzoq yillardan beri yani 1927-yilda qabul qilingan saylov to‘g‘risidagi qonuning mavjudligiga borib taqaladi. Unga ko‘ra saylovda shaxsga ema balki, partiyaga ovoz beriladi. Bundan tashqari Italiya siyosiy rahbarlarining korrupsiya botqog‘iga botganligi, davlatda demokratik kuchlarning obro‘sining oshib borishi va boshqalar.

Italiyada partiyaviy saylov tizmidagi o‘zgarishlar bo‘yicha quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchidan, Hukumat tepasiga kelgan rahbar o‘z manfaati yo‘lida ish olib borilishi va buning natijasida boshqaruvda ko‘plab jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yilishi;

Ikkinchidan, Yangi saylov qonunchiligiga ko‘ra ko‘plab o‘zgarishlar bo‘lishi belgilab qo‘yilganligi;

Uchunchidan, Konistitutsiyavi islohatning amalga oshirilishi Italiyada demokratik talablarning oshishiga sabab bo‘lganligi.

Dissertatsiyamning 3-bobida Italiyaning 1990-2015-yillar chegarasidagi tashqi siyosatni yoritishga harakat qildim:

1. Italiya bu davrda Yevropa Ittifoqining a`zosi sifatida uning ham tashqi ham ichki siyosatida alohida o‘ringa ega ekanligi. Bunda Italiya Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan yaxshi munosabatlarning saqlab qolishdan va uni yanada rivojlantirishdan;
2. Italiyada hukumatning tezda akmashinishi natijasida Yevropa Ittifoqi bilan bo‘lgan munosabatlarning har xilligiga sabab bo‘lshi ;
3. Bu davrda Italiyaning AQSH bilan olib borgan munsabatlarining o‘ziga xosligi. Bunga ko‘ra ko‘plab hukumat rahbarlari AQSH bilan munosabatlarni yanada rivojlantiris tarafdoriekanligi;
4. Italiyaning NATO bilan olib borgan hamkorlik masalalari.

Uchunchi bob bo‘yicha olib borgan izlanishim davomida shularni aniqladim: Bular,Silvio Berluskonini AQSh prezidentlari bilan shaxsiy munosabatlarda ancha yaqinligi, Italiya bosh vazirlar tashqi siyosatda Yevropa Ittifqoida o‘z mavqeyini yanada mustahkamlash yo‘lidagi harakatlari, NATo bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishdan manfatdorligi va boshqalar.

Italiya ko‘zda tutilayotgan bu vaqtda tashqi siyosatda quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchidan, Italiya Yevropa Ittifoqidagi o‘z o‘rnini yanada mustahkamlashni maqsad qilgandi.

Ikkinchidan,Silvio Berluskoni hokimyatda turganda Italiyaning tashqi siyosatdagi asosiy maqsadi AQSH bilan yanada yaqinlashi edi;

Uchunchidan,Italiya boshqa Yevropa davlatlari bilan kelishilgan holda siyosat olib borishga harakat qildi. Eng avvalo o‘zining qo‘shnilari bo‘lgan germaniya va Fransiya bilan yaxshi aloqalar o‘rnatdi.

To‘rtinchidan, Italiya NATOning dunyoda olib brgan siyosatini har tomonlama maqullashga harakat qildi.

Xullas, Italiyadagi partiyaviy-siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar qilnishga urunish oldingi davrga qaraganda ancha ijobiy natijalarga erishildi. Davlat tepasida demokratik kayfiyatdagi rahbarlar kelishi, saylov tizimidagi o‘zgarishlar bu Italiayaning har tamonlama taraqqiy qilishiga sabab bo‘ldi.

## Prezident asarlari


1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz"./Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: : "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". 2 /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". 2017 yil14 yanvar Sh.M. Mirziyoyev.– Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 104 b.


## Asosiy adabiyotlar


1. Авилова А.В. Италия: своеобразие южноевропейского пути развития. - СПб: 2008. - 80с.
2. А.А. Гольдфарб. Шпаргалка по конституционному праву. - М.: РГ-Пресс, 2013. - 80 с.
3. Андреев С.С., Бабышев Л.С. Италия. - М: Академия, 2001. - 432 с.
4. Б.И. Осминин. Принятие и реализация государствами международных договорных обязательств. - М.: , 2006. - 408 с.
5. Бурков В.Н., Заложнев А.Ю, Новиков Д.А. Мировая экономика и международный бизнес. - "Эксмо", 2009. - 360-365с
6. В.Е. Сафонов, Е.В. Миряшева. Конституционное право зарубежных стран. Особенная часть. - М.: Юрайт, 2013. - 422 с.
7. Г.Н. Комкова, Е.В. Колесников, О.В. Афанасьева. Конституционное право зарубежных стран. - М.: Юрайт, 2012. - 416 с.

8. Италия (север и Центр) [Текст]: Путеводитель - 7-е изд. - М.: Авангард, 2007. - 280с. - (Путеводитель «Пти Фюте»).
9. Кунц И. Италия на рубеже веков. - М. Наука, 1999. - 56 с.
10. Л.А. Голубева, А.Э. Черноков. Сравнительное государствоведение. - М.: ИВЭСЭП, Знание, 2009. - 560 с
11. Любин В. Италия перед вызовами XXI столетия. - АСТ, 2008. - 122-125с.
12. Мировое хозяйство и экономика стран мира [Текст]: Учеб. пособие для вузов/В.П. Воронин. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 240с.
13. Зонова Т. В. «Италия. От Первой ко Второй Республике», М.: Весь мир, 2011 г.
14. Тагепера Р., Шугарт М. Описание избирательных систем. -- Голосов Г.В., Глакина Л.А. (ред.) Современная сравнительная политология. М., 1997. С. 43.
15. Селихова И. Ю. «Политика Италии в НАТО (цели, задачи, основные направления)», дипломатическая академия МИД РФ, 2010.

## Qo‘shimcha adabiyotlar

1. В.В. Маклаков. Конституции зарубежных государств. Великобритания, Франция, Германия, Италия, Европейский Союз, Соединенные Штаты Америки, Япония. - М.: Инфотропик Медиа, 2012. - 616 с.
2. Э.П. Григонис, В.П. Григонис. Конституционное право зарубежных стран. - СПб.: Питер, 2006. - 208 с.
3. Г.Н. Комкова, Е.В. Колесников, О.В. Афанасьева. Конституционное право зарубежных стран. - М.: Юрайт, 2011. - 416 с.
4. Конституционное право зарубежных стран. - М.: Норма, Инфра-М, 2010. - 1088 с.

5. М.Б. Смоленский, Л.Ю. Колюшкина. Конституционное право зарубежных стран. 100 экзаменационных ответов. - М.: Феникс, ИД Март, 2009. - 224 с.
6. Попов Н. Ю. Судебная система Италии // Судебные системы западных государств. М.: Наука, 1991 (гл. VI)
7. С.А. Трыканова. Основы избирательного права и процесса. - М.: Флинта, 2012. - 96 с.
8. Страшун Б. А., Конституционное (государственное) право зарубежных стран: Учебник. Том 3. - М.: БЕК, 1999.

**Davriy matbuot nashrlari ma`lumotlari**

1. Алексеева А. У них и у нас / "Эксперт". - 2009. - № 34 -С. 100
2. Алиев А. Кризисный оптимизм / "Коммерсантъ" - 2009. -№ 22 - С. 18
3. Буланов А. Ворота в Европу / "Эксперт". - 2008. - № 56 - С. 54
4. Гавриков Д.А. Мировой опыт разработки перспектив развития электроэнергетики //www.eriras.ru/ (Дата публикации: 01.04. 2008)
5. Кобеляцкий А. Прогноз ОЭСР: Мировая экономика досрочно выходит из кризиса // gtmarket.ru/ (Дата публикации: 23.11.2009)
6. Комаров М.П. Инфраструктура регионов мира. - СПб: 2007. - 34-35 с.
7. Кунгуров Д. Реформа века / "Российская Бизнес-газета". - 2009. - №25. - С.7
8. Матвеева А. Почему Россия не Италия / "Коммерсантъ ВЛАСТЬ". - 2009. - № 23 - С. 8-9
9. Митрофанов П. Правительство Италии выделит 1,3 млрд евро на поддержку предприятий // mia-italia.com/ (Дата публикации: 18.03.2009)
10. Перечнева И. Италия. Приватизация, инвестиции //polpred.com/ (Дата публикации: 01.04.2006)
11. Пономарев В. Все обвалилось / "Коммерсантъ" - 2009. - № 34. - С. 43.
12. Зорина Е. Цена простых схем / "Эксперт". - 2008. - №50 - С. 22

## Internet resurslari


1. Михайлова Е. ОЭСР: Кризис не закончится и в 2011 году //www.dengi.ua/ (Дата публикации: 25.12.2009)
2. Завадский М. Экономика Италии в 2008 году в условиях мирового финансового кризиса //www.rcrussia.it/
3. Интернет-портал Интерфакс / http://www.interfax.ru/world/364156. - Дата доступа: 01.03.2014
4. Интернет-портал Newsland / http://newsland.com/news/detail/id/1290599/. - Дата доступа: 02.03.2014